CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK

10-sinf

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan tavsiya etilgan

TOSHKENT – 2022

UO‘K 355.211.5(075.3)
KBK 68.49ya72
Ch 31

Sotvoldiyev A.Y., Bo‘tayev A. M., Yoqubov A. F., Abduvoxidov X. A.
Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik [Matn] : 10-sinf uchun darslik / – Toshkent : Respublika ta’lim markazi, 2022. – 160 b.

Taqrizchilar:

T. Choriyev	O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati, Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi a‘zosi, filologiya fanlari nomzodi, professor;
T. Karimov	O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati, Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi a‘zosi, siyosatshunoslik fanlari nomzodi;
Sh. Usmanov	O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Jangovar tayyorgarlik bosh boshqarmasi katta inspektori, podpolkovnik;
A. Kenjayev	Nizomiy nomidagi TDPU Harbiy ta’lim fakulteti o‘qituvchisi, podpolkovnik.



Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.

ISBN 978-9943-8453-7-4

© Respublika ta’lim markazi, 2022.

MUNDARIJA

Kirish 6

I bo‘lim. HARBIY-VATANPARVARLIK VA HARBIY SAN’AT TARIXI

I.1. Harbiy san’at tarixining shakllanishi

1-mashg‘ulot. Dunyo miqyosida harbiy sohaning rivojlanishiga hissa qo‘shgan sarkardalar. Buyuk sarkardalarning jangovar mahoratlari 9

I.2. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida harbiy va milliy qadriyatlar

1-mashg‘ulot. Vatanparvarlik va harbiy-vatanparvarlik tushunchalari. Jangovar an’analar..... 13

2-mashg‘ulot. Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekistonlik jangchilarning ko‘rsatgan qahramonliklari. Vatan mustaqilligi uchun jon fido qilgan harbiy xizmatchilar 16

II bo‘lim. HARBIY XIZMAT ASOSLARI

II.1. Harbiy xizmatning huquqiy asoslari

1-mashg‘ulot. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Vatan himoyasi to‘g‘risida. Qurolli Kuchlarga rahbarlik qilish. Qurolli Kuchlar Bosh shtabi. Harbiy okruglar..... 20

2-mashg‘ulot. O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi qonuni. Harbiy xizmat turlari. Harbiy xizmatga chaqirilishdan ozod etish. Harbiy xizmatga chaqirilish muddatini kechiktirish 23

II.2. O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa to‘g‘risidagi qonuni

1-mashg‘ulot. Mudofaa tushunchasi. Mudofaa to‘g‘risidagi qonun. Qurolli Kuchlarning tashkil etilishi 28

2-mashg‘ulot. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari. Mudofaa vazirligi qo‘shin turlari, vazifasi, tuzilishi va faoliyat asoslari..... 31

II.3. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Ichki xizmat nizomi

1-mashg‘ulot. Harbiy xizmatchilarning umumiy majburiyatlari. Harbiy unvonlar. Boshliqlar va bo‘ysunuvchilar, kattalar va kichiklar..... 35

2-mashg‘ulot. To‘g‘ridan-to‘g‘ri va bevosita boshliqlar. Buyruq berish va uni bajarish tartibi. Harbiycha salomlashish, harbiycha xushmuomalalik va murojaat etish qoidalari. Harbiy xizmatchilar orasidagi Nizom munosabatlarini buzganlik uchun javobgarlik 42

III bo‘lim. OTISH TAYYORGARLIGI

III.1. O‘qotar qurollarning vazifasi, tuzilishi, ishlash prinsipi va jangovar xususiyatlari

1-mashg‘ulot. Nazariy. Kalashnikov avtomatining vazifasi, konstruktiv va ballistik ko‘rsatkichlari, umumiy tuzilishi. Kalashnikov qo‘l pulemyoti. Jangovar patronlar. Qurol-yarog‘ va o‘q-dorilar bilan ishlaganda xavfsizlik choralari 47

2-mashg‘ulot. Avtomatning asosiy qism va mexanizmlari, ularning vazifalari. Kalashnikov avtomatini noto‘liq qismlarga ajratish va qayta yig‘ish tartibi..... 52

III.2. Quroldan otish asoslari va qoidalari

1-mashg‘ulot. Nazariy. Otish hodisasi va uning davrlari. O‘qning boshlang‘ich tezligi va uning otishga ta’siri. Qurolning ortga urishi (tepishi) va o‘qning uchish burchagi 61

2-mashg‘ulot. Nazariy. O‘q trayektoriyasining hosil bo‘lishi. To‘g‘ri otish. To‘silgan, o‘q tegmaydigan va tegadigan bo‘shliqlar hamda ularning amaliy ahamiyati 64

III.3. Joyda turib va harakat paytida qo‘zg‘almas va paydo bo‘luvchi nishonlarga o‘t ochish

1-mashg‘ulot. Mashg‘ulot o‘tkazishdagi xavfsizlik choralari. O‘qdonni patron bilan to‘ldirish. Tayanchni tayyorlash. Tayanchdan yotib otishga tayyorlanish. Otishni amalga oshirish. Otishni to‘xtatish. Qurolni o‘qsizlantirish 68

IV bo‘lim. AMALIY JISMONIY TAYYORGARLIK

IV.1. To‘siqlar yo‘lagi (qatori)dan o‘tish

1-mashg‘ulot. Yagona to‘siqlar yo‘lagi bilan tanishish. Alohida to‘siqlardan o‘tish usullari va ularni yengib o‘tishni mashq qilish 77

2-mashg‘ulot. To‘siqlar yo‘lagini yengib o‘tish mashqini bajarish 82

3-mashg‘ulot. Umumiy nazorat mashqlarini bajarish 83

V bo‘lim. HARBIY ISH ASOSLARI

V.1. Umumqo‘shin jangi asoslari

1-mashg‘ulot. Nazariy. Jang haqida tushuncha. Zamonaviy umumqo‘shin jangining tavsifi va maqsadi. Zamonaviy umumqo‘shin jangining asosiy turlari. Askarning jangdagi majburiyatlari va ekipirovkasi 86

2-mashg‘ulot. Nazariy. Jangovar guruhning tarkibi, qurollanishi va jangovar imkoniyatlari. Jangovar guruhning jangovar tartibi 89

VI bo‘lim. FUQARO MUHOFAZASI

VI.1. Favqulodda vaziyatlar tushunchasi. O‘zbekiston Respublikasi hududida sodir bo‘lish ehtimoli mavjud tabiiy xarakterdagi favqulodda vaziyatlar

1-mashg‘ulot. Favqulodda vaziyatlar tushunchasi. Zilzila, ko‘chkilar, suv toshqini, sel, qor ko‘chishi, kuchli shamollar va boshqalar. Yaqinlashib kelayotgan xavf belgilari 94

VI.2. O‘zbekiston Respublikasi hududida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan texnogen va tabiiy tusdagi favqulodda vaziyatlarda aholining harakatlari

1-mashg‘ulot. Nazariy. Favqulodda yuzaga keladigan epidemiologik, epizootik va epifitotik vaziyatlar. Karantin va pandemiya 97

2-mashg‘ulot. Nazariy. Texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar tushunchasi va ularning yuz berish sabablari 102

VI.3. Ommaviy qirg‘in qurollari va ulardan aholini himoya qilish

1-mashg‘ulot. Nazariy. Yadroviy qurol. Yadroviy zararlanish o‘chog‘i. Termoyadro quroli. Neytron bombasi. Kimyoviy qurol 107

2-mashg‘ulot. Nazariy. Bakteriyaviy (biologik) qurol. Karantin va observatsiya. Zamonaviy oddiy qirg‘in vositalari 114

VI.4. Shaxsiy (individual) himoya vositalari, vazifasi, tuzilishi va ulardan foydalanish tartibi

1-mashg‘ulot. Nafas olish organlarini himoya qiluvchi individual vositalar. Fuqaro gazniqoblari. Ularning vazifasi, tuzilishi va ulardan foydalanish. Respirator. Changga qarshi matoli niqob, paxta-doka bog‘lagich va ulardan foydalanish 117

2-mashg‘ulot. Amaliy. Terini himoya qilish vositalari. Maxsus himoya vositalari: umumqo‘shin himoya jamlanmasi, yengil kostyum, himoyalovchi-filtrlovchi kiyim. Umumqo‘shin himoya jamlanmasidan “yoping‘ich”, “yengil plash”, “kombinezon” ko‘rinishida foydalanish. L-1 yengil kostyumini kiyish. Terini himoya qilishning qo‘lbola vositalaridan foydalanish. Germetizatsiyalash va aralashma shimdirish orqali himoya xususiyatlarini oshirish 121

VI.5. Fuqaro muhofazasi himoya inshootlari

1-mashg‘ulot. Panagohlar. Radiatsiyaga qarshi pana joylar. Oddiy pana joylar. Odamlarni himoya inshootlariga joylashtirish 125

VI.6. Evakuatsiya tadbirlarida aholining harakat qilish tartibi

1-mashg‘ulot. Evakuatsiya tadbirlarini o‘tkazish 129

VI.7. Sanitariya ishlovi. Kiyim-bosh va buyumlarni zararsizlantirish

1-mashg‘ulot. Odamlarni sanitariya ishlovidan o‘tkazish 134

VII bo‘lim. TIBBIY BILIM ASOSLARI

VII. 1. Shikastlanganda, baxtsiz hodisa sodir bo‘lganda va jarohatlanganda (yaralanganda) birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish

1-mashg‘ulot. Nazariy. Jarohat to‘g‘risida tushuncha, jarohatlarning turlari. Jarohatlanganda birinchi tibbiy yordam. Bog‘lam va bog‘lash uchun materiallar. Shaxsiy bog‘lash paketidan foydalanish qoidalari 139

2-mashg‘ulot. Amaliy. Bosh, ko‘krak, qorin, qo‘l va oyoq sohalariga sterilizatsiya qilingan bog‘lamlar qo‘yish 142

3-mashg‘ulot. Amaliy. Qon ketishining turlari. Qon ketishini vaqtincha to‘xtatish usullari. Arteriya qon tomirlarini barmoq bilan bosish nuqtalari. Qo‘lbola siquvchi bog‘lam va tasma (jgut)dan foydalanish qoidalari 145

4-mashg‘ulot. Amaliy. Suyak sinishi to‘g‘risida tushuncha va uning belgilari. Bosh suyagi, yelka, ko‘krak qafasi, oyoq va qo‘l suyaklari singanda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish usullari 151

Tushuncha va atamalar lug‘ati 156

Foydalanilgan adabiyotlar 158

KIRISH

Jahonda turli yovuz kuchlar o‘zining mustaqil rivojlanish yo‘lini tanlagan yosh davlatlar uchun xavf solib turgan hozirgi davrda Vatan himoyachilariga yuqori darajadagi talablar qo‘yilmoqda. Zamonaviy kurashda faqat Vatani va xalqiga sadoqati, cheksiz, yuksak ma’naviy-ruhiy va jangovar sifatlarga ega, o‘z ishining to‘g‘riligiga va dushman ustidan qozoniladigan g‘alabaga to‘la ishonadigan, qurol-aslaha va jangovar texnikadan mohirona foydalana oladigan, jismonan chiniqqan, intizomli jangchilargina g‘alaba qozonadi.

Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi qonuniga binoan o‘qitiladi. Fan o‘quv dasturi o‘quvchi-yoshlar maktabni bitirgach, mamlakat Qurolli Kuchlari safiga chaqirilar ekan, qisqa vaqt ichida zamonaviy qurollar va jangovar texnikalarni o‘zlashtira olishi uchun ularni yosh askar ega bo‘lishi lozim bo‘lgan darajadagi bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirishni ko‘zda tutadi.

Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanining maqsadlari:

- o‘quvchilarni Vatanga sadoqat;
- ajdodlarga munosib avlod bo‘lish;
- jismoniy barkamollik;
- favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakatlanish;
- zarur holatlarda birinchi tibbiy yordam ko‘rsata olish ruhida tarbiyalash va Vatan Qurolli Kuchlari tarkibida mavjud qurol va texnikalar bo‘yicha bilimga ega bo‘lishdan iborat.

Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanining vazifalari:

• O‘zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari safidagi harbiy xizmat huquqiy asoslarining talablari hamda mohiyatini o‘rgatish;

• harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va harbiy burchga sadoqatli bo‘lish, mas’uliyat va javobgarlikni shakllantirish;

• Vatan mustaqilligi va ravnaqi yo‘lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib voris bo‘lish tuyg‘usini shakllantirish;

• umumharbiy nizomlarning harbiy xizmatchilar hayotidagi ahamiyatini, Vatanga qasamyod va uning talablarini anglash;

• favqulodda vaziyatlarda harakatlanish, zaruriyat tug‘ilganda o‘ziga hamda yon atrofdagilarga birinchi tibbiy amaliy yordam ko‘rsatish ko‘nikmalarini o‘rgatish;

• yosh avlodda qat’iy hayotiy pozitsiya va Vatan taqdiri uchun daxldorlik mas’uliyatini shakllantirish;

• yoshlarni o‘z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo‘naltirish;

• harbiy burchga va Prezidentiga sadoqatli bo‘lish, xalq taqdiri uchun javobgarlik tuyg‘usini shakllantirish.





01 HARBIY-VATANPARVARLIK VA HARBIY SAN’AT TARIXI

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan ko‘zlangan asosiy maqsad – yoshlarda jamiyatning turli tarmoqlari, ayniqsa, harbiy soha bilan aloqador bo‘lgan davlat xizmati turlarida faollik ko‘rsatish, tinch va harbiy sharoitda Konstitutsiya va harbiy burchga sadoqatli bo‘lish, ularda o‘z yurti va xalqi taqdiri uchun yuksak mas’uliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirishdan iborat.

I.1. HARBIY SAN’AT TARIXINING SHAKLLANISHI

1-mashg‘ulot. Dunyo miqyosida harbiy sohaning rivojlanishiga hissa qo‘shgan sarkardalar. Buyuk sarkardalarning jangovar mahoratlari

O‘quv faoliyati natijalari:



- Harbiy san’at tarixi to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘ladi.
- Dunyo miqyosida harbiy sohaning rivojlanishiga hissa qo‘shgan sarkardalar haqida biladi.
- Buyuk sarkardalarning jangovar mahoratiga oid tasavvurga ega bo‘ladi.

Bilasizmi? Harbiy san’at – bu harbiy harakatlarni tayyorlash nazariyasi va uni quruqlik, dengiz hamda havoda olib borish amaliyotidir.

Hozirgi kunda yoshlarni turli ko‘rinishdagi vayronkor g‘oyalar ta’siridan asrash, ularni milliy g‘oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga **Vatan himoyasi** sharafli va muqaddas burch ekanligini singdirish muhim.

Harbiy san’at tarixi

Zamonaviy harbiy san’atning tarkibiy qismi o‘zaro uzviy bog‘liq harbiy strategiya, operativlik san’ati va taktikadan iborat. Harbiy san’at ishlab chiqarishning taraqqiyot darajasi va ijtimoiy tuzum xarakteri bilan belgilanib, mamlakatning rivojlanish tarixi xususiyatlari, milliy xususiyatlar va an’analar, geografik sharoit va boshqa omillarga bog‘liq tarzda rivojlanadi. Insoniyat tarixida harbiy san’atning shakllanishi va rivojlanishi *davlatchilik shakllangan davrga* borib taqaladi.

Samarali hujum uyushtirish yoki ishonchli himoyalanish uchun odamlar yirik harbiy ittifoqlarga birlashishga majbur bo‘lgan. Ilk davlat birlashmalari davridayoq harbiy lashkarlar tuzila boshlangan, harbiy yetakchilarning jamiyat hayotidagi ahamiyati oshib borgan. Shu tariqa urushlar, natijada harbiy san’at tarixi boshlangan.

Bronza davriga kelib Osiyoning ulkan hududlarida yashovchi qadimiy xalqlar qo‘shni hududlarni bo‘ysundirish uchun istilochilik yurishlarini olib borgan.

Ilk ulov vositalari bo‘lgan ot va tuyalar ham harbiy urushlar davrida katta rol o‘ynay boshlagan. G‘ildirakning kashf etilishi jang aravalarining paydo bo‘lishiga turtki bergan.

Eslab qoling!

Bronza va misdan foydalanishning yo‘lga qo‘yilishi harbiy qurol-yarog‘ turlarining kengayishiga olib keldi.



Eslab qoling!

Sarkarda – jangni puxta tashkil etish va jang paytida qo‘shinlarni mohirlik bilan boshqarish orqali ulkan g‘alabalarni qo‘lga kiritgan va tarixdan joy olgan shaxs.



Aleksandr Makedonskiy. U bahodirlarga xos tana tuzilishiga ega bo‘lmasa-da, yoshligidan yer yuziga hukmronlik qilishni orzu qilgan. Sarkardalik qobiliyatlari bilan o‘z davrining buyuk sarkardalaridan biri sanalgan. Makedonskiy armiyasi g‘alabalari qadimgi Gretsiya harbiy san’atining cho‘qqisida turadi. U oz sonli armiya bilan Gretsiyadan Hindistongacha bo‘lgan ulkan imperiyaga asos solgan.

Yuliy Sezar. Qadimgi Rimda davlat arbobi, diktator, sarkarda va yozuvchi. Galliya, Germaniya, Britaniyani bo‘ysundirgan. Harbiy taktika va strategiyani mukammal egallagan, mohir notiq bo‘lgan. O‘z davrining qudratli arbobi. Fitnachilar tomonidan o‘ldirilgan. Shundan so‘ng, fuqarolar urushi boshlanib ketgan va Rim imperiyasi tanazzulga yuz tutgan.





Gannibal Barka. Karfagenlik sarkarda, Qadimgi dunyoning buyuk harbiy strategi. Rimning ashaddiy dushmani. Rimliklarga qarshi urush olib borgan. Dushman qo‘shinlarini qanotlaridan o‘rab olib, so‘ngra qurshovga olish taktikasini mahorat bilan qo‘llagan.

Chingizxon mo‘g‘ul qabilalarini birlashtirib, imperatorga aylangan. Xitoy, butun O‘rta Osiyo, shuningdek, Kavkaz va Sharqiy Yevropani, Bog‘dod va Xorazmni hamda ayrim Rus knyazliklarini egallagan.





Amir Temur. Buyuk lashkarboshi va novator harbiy tashkilotchi hisoblanmish Sohibqiron Amir Temur intizomli armiya tuzishga, jang paytida qo‘shin qismlarini oqilona boshqarishga, jang taqdirini hal qiladigan joylarga harbiy kuchlarni tezkorlik bilan yo‘llashga, mavjud to‘siq va g‘ovlarni tadbirkorlik bilan bartaraf etishga, qo‘shindagi jangovar ruhni yuksak darajada ushlab turishga erishgan. Sohibqiron Sharqda birinchilardan bo‘lib armiyaga o‘t sochar qurol — to‘pni olib kirgan. Tog‘li hududlarda jang harakatlari olib boruvchi maxsus harbiy qism va bo‘linmalarni tashkil qilgan. Amir Temur jahon harbiy ishi tarixida birinchi bo‘lib qo‘shinni jang maydoniga an’anaviy 5 bo‘lakdan farqli ravishda, 7 ta qo‘lga bo‘lib joylashtirish tartibini joriy etgan.

Eslab qoling!

Sohibqiron (arab. *saodatli, zafarli, g‘olib*) — Zuhra yulduzi va Quyosh tutilishining ma’lum bir darajasida to‘qnash kelish vaqti (qiron)da tug‘ilgan chaqaloq. Bunday farzandning baxtli, ulug‘ martabali bo‘lishi oldindan bashorat qilingan.

Buyuk sarkardalarning jangovar mahorati



Buyuk sarkardalardan biri Aleksandr Makedonskiy yigirma yoshida taxtga o‘tirib, o‘n uch yildan kamroq vaqt ichida o‘sha paytda mashhur ko‘plab hududlarni bosib olishga, ulkan imperiya yaratishga muvaffaq bo‘lgan. U yoshligidan o‘zini harbiy xizmatning mashaqqatlariga tayyorlab, podshoh nasliga umuman xos bo‘lmagan hayot kechirgan. Unga berilgan ta’rif: “Ungacha harbiy strategiyaning o‘zi yo‘q edi, u hammasini jang paytida hal qilar edi”.



Gunnlar qabilasining harbiy sarkardasi – Attila. U kuchli, qattiqqo‘l va mohir harbiy taktik sarkarda bo‘lgan. U jang san’atini yaxshi o‘zlashtirgan va jang maydonida harbiy otliq askarlarning harakatlaridan mohirlik bilan foydalangan. Jangchilar urushga nihoyatda yaxshi tayyorgarlik ko‘rardi, hatto 100 metr uzoqlikdan ham nayza bilan aniq urar edi. Ular yaqin janglarda jangovar bolta va qilichlardan mohirlik bilan foydalana olishgan. U o‘zining jangchilarini maxsus, suv o‘tkazmaydigan qalin charmli ust kiyim va po‘lat bosh kiyim, bo‘ynilariga esa po‘latdan yasalgan halqa kiydirib, jangga kirgizgan.

Jaloliddin Manguberdi – xorazmshohlar davlatining so‘nggi hukmdori Muhammad Xorazmshohning to‘ng‘ich o‘g‘li. U 33 yil umr ko‘radi va uning 11 yili jang ichida o‘tadi. To‘liq ismi Jaloliddin ibn Alovuddin Muhammad. Jaloliddining burnida xoli (mank) bo‘lgani uchun Mankburni nomi bilan atalgan. Bu nom talaffuzda o‘zgarib, Manguberdi nomi bilan mashhur. Jaloliddin qorachadan kelgan, o‘rta bo‘yli, turk lafzli shaxs bo‘lgan. Fors tilini ham yaxshi bilgan. Uning botirligi borasida aytish kerakki, u sulton arslonlar orasidagi eng kuchli sher edi. Bir so‘zli, kek saqlamaydigan, ochiq ko‘ngil, to‘g‘ri odam edi. U jiddiy shaxs edi. Hech qachon kulmasdi, juda nari borsa, jilmayib qo‘yardi. U adolatsizliklarni yomon ko‘rardi. Jaloliddin o‘ta qat’iyatli, nihoyatda irodali, murakkab vaziyatlarda, taqdirning qaltis sinovlarida o‘zini yo‘qotib qo‘ymaydigan favqulodda mard va botir sarkarda edi.





Zahriddin Muhammad Bobur kam sonli lashkar bilan ko‘p sonli dushman ustidan g‘olib chiqish taktikasini mahorat bilan qo‘llagan.

U avval raqibini obdon o‘rganadi. Masalan, hind sarkardasi Ibrohim Lo‘diyga qarshi kurashishdan avval Hindiston o‘lkasidagi siyosiy holat, rojalarning tarqoqligi, xalqni Ibrohim Lo‘diyning hukmronligidan bezganligidan foydalangan.

Bobur Panipat jangida xabarchilardan (razvedkadan) keng foydalangan. Razvedka ma’lumotlari asosida xulosa chiqargan. Jangga kirishishdan avval bu yerning iqlimidan tortib, geografik sharoitigacha inobatga olgan.

O‘zingizni sinab ko‘ring!

1. Tarixda o‘chmas iz qoldirgan buyuk sarkardalar muhim sifatlarini izohlab bering.
2. Markaziy Osiyoda mashhur harbiy sarkardalar haqida ma’lumot keltiring.
3. Buyuk sarkardalarning harbiy yurishlarida muhim bo‘lgan qahramonlik namunalarini aytib bering.
4. Harbiy san’at tarixida qadimiy qo‘shin tarkibi qanday qurollangan?
5. Yurtimizga bosqinchilik harakatlarini olib borgan harbiy sarkardalarni sanab bera olasizmi?

I.2. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARIDA HARBIY VA MILLIY QADRIYATLAR

1-mashg‘ulot. Vatanparvarlik va harbiy-vatanparvarlik tushunchalari. Jangovar an’analar

Bilasizmi? Vatanparvarlik va harbiy-vatanparvarlik tushunchalari nimani anglatadi?

O‘quv faoliyati natijalari:



- Vatanparvarlik va harbiy-vatanparvarlik tushunchalarini anglab yetadi.
- Jangovar an’analarni biladi va aytib bera oladi.
- Harbiy qadriyat tushunchasini anglab oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari oldidagi yuksak va mas’uliyatli vazifalarni sog‘lom, jismonan baquvvat va chidamli, aqlan mukammal, yuksak ma’naviy-jangovar sifatlarga ega, Vatan himoyasi yo‘lida vatanparvarlik va fuqaroviy burchini bajarishga tayyor kishigina uddalay oladi.

Eslab qoling!

Vatan kishilarning tug‘ilib o‘sgan joyi bo‘lib, tarixan muayyan xalqqa tegishli hudud hamda uning tabiati, aholisi, o‘ziga xos taraqqiyoti, tili, madaniyati, turmushi va urf-odatlari majmuidir.

Vatanparvarlik tushunchasi

Vatanparvarlik – kishilarning ona yurtiga, o‘z oshyoniga muhabbati va sadoqatini ifodalovchi tushuncha. O‘z Vatani, ona yurti, xalqini cheksiz sevuvchi, Vatan manfaatlari uchun jonbozlik, ya’ni vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg‘u, ma’naviy qadriyatlardan biridir.

Eslab qoling!

Patriotizm (yun. *patris*) so‘zi Vatan, ona Vatan degan ma’nolarni anglatadi.

Fikrlang!

Vatan – xalqning birligi va jipsligini ko‘rsatuvchi umumiy tushuncha.



Harbiy-vatanparvarlik tushunchasi

Vatanparvarlik va harbiy-vatanparvarlik bir-birining o'rnini bosuvchi tushunchalardir. Vatanga nisbatan e'tiqodi mustahkam insongina uni sevadi, ardoqlaydi va har qanday favqulodda holatda uni himoya qilishga tayyor turadi. Shunday ekan, xalq Vatan himoyasiga doim tayyor turgan haqiqiy harbiy vatanparvarga, Vatan manfaatlarini ustun qo'yganlarga ishonch bildiradi. Harbiy-vatanaparvarlik *mafkuraviy, harbiy, texnik va jismoniy tayyorgarlik* bilan rivojlanadi.



Eslab qoling!

An’ana – o‘tmishdan kelajakka meros qoluvchi, avloddan avlodga o‘tuvchi, jamiyat hayotining turli sohalarida namoyon bo‘luvchi moddiy va ma’naviy qadriyat.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining *jangovar an‘analari* – jangchilarning tarixan shakllangan tinch va urush davrlarida xulq me’yoriga aylangan, harbiy xizmatchilarni jangovar burchni namunali o‘tashga, mustaqil Vatani, xalqiga halol va vijdonan xizmat qilishga undaydigan odatlar hamda ma’naviy qoidalardir.

Jangovar an’analar:

- Vatanga muhabbat
- o‘z kuchiga ishonch
- Vatanga qasamyodga sadoqat
- jangovar mahoratni oshirib borish
- ma’naviy bilim
- buzilmas jangovar o‘rtoqlik
- jangovar bayroqqa sadoqat
- harbiy qismga hurmat
- boshliqni hurmat qilish
- intizomlilik
- harbiy burchga sadoqat
- Vatan himoyasiga shay turish

O‘zingizni sinab ko‘ring!

1. Vatanparvarlik va harbiy-vatanparvarlik sifatlari haqida ma’lumot to‘plab, buklet tayyorlash.
2. “Bo‘lajak harbiy xizmatchi uchun harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining ahamiyati” mavzusida referat tayyorlash.
3. Harbiy xizmatchi uchun muhim sifatlarni kundalik hayotda ahamiyatli deb hisoblaysizmi? Fikringizni misollar yordamida izohlang.

Loyiha ishi. Milliy va jangovar qadriyatlar haqida ma’lumot to‘plash.

Toifalash jadvali	
An’analar	Jangovar an’analar

2-mashg‘ulot. Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekistonlik jangchilarning ko‘rsatgan qahramonliklari. Vatan mustaqilligi uchun jon fido qilgan harbiy xizmatchilar

Bilasizmi?

1. Tarixda qanday urushlar bo‘lganligi haqida aytib bera olasizmi?
2. Mustaqillik yillarida Vatan uchun jonini fido qilgan qahramonlar haqida nimalarni bilasiz?
3. Urushlarning kelib chiqish sabablarini bilasizmi?

O‘quv faoliyati natijalari:



- Vatan mustaqilligi va tinchligi uchun kurashgan milliy qahramonlar haqida bilib oladi.

Eslab qoling!

Ikkinchi jahon urushi – insoniyat tarixidagi eng yirik qurolli ixtilof, jahondagi ikkita harbiy-siyosiy koalitsiya (antigitlerchilar va gitlerchilar koalitsiyasi)ning urushi.

Ikkinchi jahon urushi davrida O‘zbek xalqi ham “Hamma narsa – front uchun, hamma narsa g‘alaba uchun!” degan hayotiy shior bilan yashadi. 1939–1945-yillarda bo‘lib o‘tgan bu urushda O‘zbekistonlik jangchilardan 120 ming kishi SSSRning turli orden va medallari bilan taqdirlandi. Shulardan 300 dan ortiq kishiga Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni berildi.

1941-yil 22-iyunda gitlerchilar sobiq SSSRga bostirib kirgan. Bu urush 1945-yil 9-mayda Sovet Ittifoqining g‘alabasi bilan yakunlangan. Ikkinchi Jahon urushi yillarida O‘zbekiston aholisi taxminan 6,5 mln kishini tashkil qilgan. Urushda O‘zbekistondan 1 433 230 nafar odam ishtirok etgan. 450 000 dan ziyod vatandoshlarimiz qonli janglarda qahramonlarcha halok bo‘lgan. 604 052 nafari jang maydonlaridan nogiron bo‘lib qaytgan.

O‘zbekiston fashizm ustidan g‘alaba qozonish uchun juda katta hissa qo‘shdi. Respublika o‘sha paytlar frontga qurol-yarog‘ va oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish bilan birga millionlab ko‘chirilgan insonlar uchun umumiy maskanga aylangan. Fashistlarning tor-mor qilinishida O‘zbekistonda urush yillarida ishlab chiqarilgan qurol-aslahalar katta ahamiyat kasb etdi.



Sobir Rahimov 1902-yil 25-yanvarda Toshkent shahrida dunyoga kelgan. Komsomol yo'llanmasi asosida 1922-yilda Sovet armiyasi safiga kirgan. Sovet Ittifoqida Baku birlashgan harbiy maktabini hamda 1943-yilda K. E. Voroshilov nomidagi Sovet Ittifoqi Qurolli Kuchlari Bosh shtabining harbiy akademiyasini tamomlagan. General-mayor, gvardiya o'qchi diviziyasi qo'mondoni. To'rt marotaba Qizil Bayroq ordeni, bir marotaba II darajali Suvorov ordeni bilan taqdirlangan. Jangovar topshiriqlarni namunali bajarib, janglarda ko'rsatgan jasorati va qahramonligi uchun SSSR Oliy Kengashi Prezidiumining 1965-yil 6-may sanasidagi farmoyishi bilan general-mayor Rahimov Sobir Umarovich vafotidan so'ng "Sovet Ittifoqi Qahramoni" unvoni bilan taqdirlangan.



Qo'chqor Turdiyev 1917-yil 1-sentyabrda Andijon viloyatining Dardoq qishlog'ida tug'ilgan. 1940-yilda armiya safiga chaqirilgan. 1941-yil sentyabrdan janglarda qatnashgan.

1941-yil 15-oktyabrda Ukrainaning Xarkov viloyati Trudolyubovka nomli aholi punkti uchun bo'lgan janglarda katta qahramonlik ko'rsatgan. Askarlar yo'lini nemis DZOTi pulemyotdan kuchli o'q yog'dirib to'sib qo'ygan. Dushman DZOTini yo'q qilish uchun bo'lgan urinishlar zoye ketib, bir necha askar halok bo'lgan. Shunda o'zbek o'g'loni Qo'chqor Turdiyev DZOTning ort tomoniga aylanib o'tib, miltiq qo'ndog'i bilan urib, nemis pulemyotchisini yo'q qilgan, dushman bilan olishib, yana ikki avtomatchini asir olgan. Natijada sovet askarlari hujumga o'tib, jangovar topshiriqni bajargan. Ushbu qahramonligi uchun Q. Turdiyevga SSSR Oliy Sovetining 1942-yil 27-martdagi Farmoniga ko'ra "Sovet Ittifoqi Qahramoni" unvoni berilgan, shuningdek u Lenin ordeni hamda "Oltin Yulduz" medallari bilan taqdirlangan.



Mamadali Topvoldiyev Farg'ona viloyati Rishton tumanidagi Pandigon qishlog'ida tug'ilgan. Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi. 1941-yildan frontda, Borisov shahri yaqinidagi jangda yaralangan va asirga tushgan. 1942-yilda asirlikdan qochgan. Belorussiyadagi partizanlar brigadasida razvedka bo'linmasi komandiri bo'lgan. Mamadali Topvoldiyev Mogilyov viloyati Krugloye rayonidagi janglarda alohida jasorat ko'rsatgan. 1944-yil avgustda "Sovet Ittifoqi Qahramoni" unvoniga sazovor bo'lgan. Mogilyov viloyati Krugloye shaharchasining ko'chalaridan biriga M. Topvoldiyev nomi berilgan.

O‘zbekistonning tinchligi, musaffo osmoni, xalqining osuda hayotini ko‘ra olmagan bir to‘da terrorchi-ekstremistlar 2000–2004-yillarda Surxondaryo viloyatining Uzun va Sariosiyo tumanlari Bobotog‘ hamda Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumanining Burchmulla tog‘li hududlariga bostirib kirishgan. Vatan himoyasi uchun bo‘lgan janglarda:

- **oddiy askarlar:** Muhammadiyev Otabek Avazovich, Abdullayev Farhod Shoazimovich, Sobirov Xolmuhammad Qobulovich, Jo‘rayev Mashrab Xurammovich;
- **kichik serjantlar:** Oxunov Yunusjon Nosirovich, Otabekov Anvarjon Mashrabbekovich, Barnoyev Ulug‘bek Abdullayevich, Tolipov Ravshanbek Olimjonovich;
- **serjantlar:** Tojiboyev Doniyorbek Abdumutalibovich, Eshtemirov Muhiddin Husanovich, Husanov G‘ulom Choriyevich, Madolimov Qahramonjon Nishonboyevich, Xolboyev Xayriddin Shodiboyevich, Asanov Dilshod Jumayevich;
- **katta serjantlar:** Otajonov Elomon Xolmurodovich, Radjapov Ma’rufjon Ahmadovich, Xodjayev Ismatullo Nurillayevich;
- **leyteynantlar:** Sadinov Sayyor Saidovich, G‘aniyev Bobirjon Abdulhamidovich;
- **katta leytenantlar:** Ashirov Shermuhammad Ergashaliyevich, Abkelyamov Narimon Nasirovich, Jalilov Mahmudjon Mo‘minovich, Rajabov Chori Mengliyevich, Toshpulatov Kamoliddin To‘xtapo‘latovich, Mirzayev Azizbek Rustamovich, Salimov Alisher Sattorovich;
- **kapitanlar:** Vasilov Ravil Rashidovich, Jo‘rayev Bahrom Ulug‘bekovich mardlik ko‘rsatib, qahramonlarcha halok bo‘lishgan. Ular xotirasi mangu yashaydi!

Topshiriqlar

1. Qurolli Kuchlar faoliyatida harbiy qadriyatlarning ahamiyati haqida esse yozish.
2. “Armiya – hayot maktabi” mavzusida 10 ta ma’lumot to‘plash.
3. Vatan mustaqilligini himoya qilishda jon fido qilgan harbiy xizmatchilar haqida ma’lumotlar yordamida buklet tayyorlash.
4. Ikkinchi jahon urushida foydalanilgan 10 ta jangovar qurol va harbiy texnika nomini bilish.



02 HARBIY XIZMAT ASOSLARI



O‘zbekiston Respublikasining “Mudofaa to‘g‘risida”gi qonunida mudofaa tushunchasi, mamlakat himoyasi uchun mudofaani tashkil etish, davlat organlarining mudofaa sohasidagi vakolatlari yoritilgan.

“Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi qonunda esa harbiy majburiyat nima ekanligi, harbiy unvonlar, fuqarolarni harbiy xizmatga tayyorlash, ularni chaqiruv hududlarida qayd etish haqida ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, bo‘limda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining “Ichki xizmat nizomi”, “Intizom nizomi”, “Garnizon va qorovul xizmatlari nizomi” hamda “Saf nizomlari” mazmuni bayon qilingan.

II.1. HARBIY XIZMATNING HUQUQIY ASOSLARI

1-mashg‘ulot. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Vatan himoyasi to‘g‘risida. Qurolli Kuchlarga rahbarlik. Qurolli Kuchlar Bosh shtabi. Harbiy okruglar

O‘quv faoliyati natijalari:



- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining Vatan himoyasi to‘g‘risidagi moddalarini biladi.
- Qurolli Kuchlarga rahbarlik qilish borasida ma’lumotga ega bo‘ladi.
- Bosh shtab, harbiy okruglar to‘g‘risida biladi.

Tayanch so‘zlar:

Konstitutsiya, Qurolli Kuchlar, Bosh shtab, harbiy okrug, Oliy Bosh qo‘mondon.

Unutmang!

Qurolli Kuchlar urushlar va qurolli mojarolarni qaytarish hamda oldini olish, O‘zbekiston Respublikasining milliy manfaatlari, suvereniteti, hududiy yaxlitligi hamda aholi tinch hayotini himoya qilish uchun davlat tomonidan tashkil etilgan va saqlab turilgan harbiy birlashma, qo‘shilma va qismlarni, shuningdek, boshqa harbiy tuzilmalarni o‘z ichiga oladi. Qurolli Kuchlar o‘z faoliyatini qonun ustuvorligi, markazlashgan rahbarlik va yakkaboshchilik, jangovar va safarbarlik borasida doimiy shaylik hamda harbiy intizomga rioya etish asosida quradi va amalga oshiradi.

Bilasizmi? Mamlakat mudofaasi uchun qonunlar qanday ahamiyatga ega?

Muhim!

Qurolli Kuchlar – davlatning asosiy qurolli tashkiloti. U harbiy xavfsizlikni ta’minlash, agressiya yuz berganda, davlat manfaatlarini himoya qilish uchun tuziladi.

Bosh shtab – O‘zbekiston Respublikasining suvereniteti va hududiy yaxlitligini qurolli himoya qilish sohasidagi qarorlarni ishlab chiqaruvchi va amalga oshiruvchi yagona qo‘mondonlik organi.

Harbiy okrug – operatsion yo‘nalishlarda O‘zbekiston Respublikasining xavfsizligi va hududiy yaxlitligini ta’minlovchi asosiy harbiy-ma’muriy birlik hamda umumqo‘shin-tezkor strategik hududiy ma’muriy birlashmasi.



Respublika Qurolli Kuchlari huquqiy bazasining yaratilishi va uning kelgusi taraqqiyoti O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi bilan hal etildi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, mamlakatni xalqaro arenada boshqa mamlakatlar bilan teng qatorda bo‘lishini ta’minlovchi, mamlakat ichidagi vaziyatni tartibga soluvchi, shuningdek, boshqa davlatlar bilan teng huquqli munosabatlar yuritishni ta’minlovchi qator qonunlar qabul qilindi. Ular ichidagi bosh qonun – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 52-moddasida O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish har bir O‘zbekiston fuqarosining muqaddas burchi ekanligi ta’kidlangan. Fuqarolar qonunlar bilan o‘rnatilgan harbiy yoki muqobil xizmatni o‘tashga majbur. Konstitutsiyaning 126-moddasida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining vazifalari – O‘zbekiston Respublikasining Davlat suvereniteti, hududiy yaxlitligi, O‘zbekiston xalqining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilishi bayon etilgan.

Shuningdek, Konstitutsiyaning 127-moddasida O‘zbekiston Respublikasi o‘z Qurolli Kuchlarini o‘zining xavfsizligini ta’minlash uchun yetarli darajada ushlab turishi lozimligi ta’kidlangan. O‘zbekistonning Qurolli Kuchlari xalqimizning ajralmas qismidir. Qurolli Kuchlar safida xizmat qilish esa nafaqat jangovar mahorat maktabi, shuning bilan birga ma’naviy-siyosiy, umumiy harbiy, jismonan chiniqish va intizom maktabi hamdir.

Muhim!

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qurolli Kuchlar Oliy Bosh qo‘mondoni hisoblanadi. U mudofaa va Qurolli Kuchlarga rahbarlikni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vaziri mudofaa vazirligi qo‘shinlariga rahbarlikni amalga oshiradi. Urush paytida u Qurolli Kuchlar Oliy Bosh qo‘mondonining o‘rinbosari hisoblanadi.

Qurolli Kuchlar Bosh shtabi boshlig‘i Qurolli Kuchlar oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarish yuzasidan ularga tezkor rahbarlikni amalga oshiradi.

Qurolli Kuchlar Bosh shtabi O‘zbekiston Respublikasining suvereniteti va hududiy yaxlitligini qurolli himoya qilish sohasidagi qarorlarni ishlab chiqaruvchi va amalga oshiruvchi yagona qo‘mondonlik organi hisoblanadi. Bosh shtab Qurolli Kuchlar, harbiy okruglar, vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralari harbiy tuzilmalarini tezkor-strategik boshqarish vazifasini bajaradi. Qo‘shinlarning jangovar harakatlari strategik jihatdan va tezkor rejalashtirilishini hamda ularga rahbarlikni amalga oshiradi.

Harbiy okrug operatsion yo‘nalishlarda O‘zbekiston Respublikasining xavfsizligi va hududiy yaxlitligini ta’minlovchi asosiy harbiy-ma’muriy birlik hamda umumqo‘shin-tezkor strategik hududiy ma’muriy birlashmasidir. Hozirda O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tasarrufida 5 ta harbiy okrug mavjud.

Fikrlang! Siz yashayotgan hudud qaysi harbiy okrugga tegishli?

Mudofaa vazirligi harbiy okruglari



Topshiriqlar

1. Qurolli Kuchlar faoliyatiga doir Konstitutsiya moddalariga sharh bering.
2. Qurolli Kuchlar rahbarining vazifalari nimalardan iborat?
3. Qurolli Kuchlar harbiy okruglari faoliyatini bilasizmi?
4. Qurolli Kuchlar Bosh shtabi qanday maqsadlar uchun xizmat qiladi?
5. “Men harbiy xizmatchi bo‘laman” mavzusida buklet tayyorlash.

2-mashg‘ulot. O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi qonuni. Harbiy xizmat turlari. Harbiy xizmatga chaqirilishdan ozod etish. Harbiy xizmatga chaqirilish muddatini kechiktirish

O‘quv faoliyati natijalari:



- O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi qonuni to‘g‘risida biladi.
- Harbiy majburiyat tushunchasi va harbiy xizmat turlarini aytib beradi.
- Harbiy xizmatga chaqirilishdan ozod etish va harbiy xizmatga chaqirilish muddatini kechiktirish haqida bilib oladi.

Tayanch so‘zlar:

qonun, harbiy majburiyat, harbiy xizmat, harbiy xizmat turlari, ozod etish, muddatni kechiktirish.

Bilasizmi? Harbiy majburiyat nima?

O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi qonuni 2002-yil 12-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarori bilan qabul qilingan. Ushbu qonunning **maqsadi** O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining umumiy harbiy majburiyatini bajarish va harbiy xizmatni o‘tash bilan bog‘liq munosabatni tartibga solishdan iborat.

Eslab qoling!

Umumiy harbiy majburiyat – fuqarolar tomonidan harbiy hisobga turish, chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikdan o‘tish, harbiy xizmatga chaqirilish, chaqiruv bo‘yicha harbiy xizmatni o‘tash, zaxirada turish, harbiy yig‘inlarga chaqirilish va O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida ko‘zda tutilgan tartibda safarbarliklarni bajarish.

Harbiy xizmat – O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining Qurolli Kuchlar safida umumiy harbiy majburiyatni bajarish borasidagi davlat xizmatining alohida turi.

Chaqiriluvchilar – harbiy xizmatga chaqiriladigan va tuman (shahar) chaqiruv uchastkalarida qayd etilgan shaxslar.

Harbiy xizmatchi – haqiqiy harbiy xizmatdagi shaxs.

Harbiyga majburlar – Qurolli Kuchlarning rezervi yoki zaxirasidagi shaxslar.

Harbiyga majbur bo‘lmagan shaxslar – turli sabablarga ko‘ra harbiy ro‘yxatga olinmagan yoki harbiy ro‘yxatdan chiqarilgan, shu jumladan, iste’fodagi shaxslar.

Umumiy harbiy majburiyat fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasini himoya qilishga majburiy harbiy tayyorgarligidan iborat. U O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safini to‘ldirish va ular rezervini tayyorlashni ta’minlash maqsadida joriy etiladi.



Umumiy harbiy majburiyat fuqarolarni harbiy xizmatga tayyorlashni, harbiy xizmatga chaqirishni (kirishni), chaqiruv yoki kontrakt bo‘yicha harbiy xizmat o‘tashni, rezervdagi xizmatni, muqobil xizmatni, harbiy ro‘yxatdan o‘tish qoidalariga rioya etishni, favqulodda vaziyatlarda yoki O‘zbekiston Respublikasiga qarshi harbiy tajovuz bo‘lgan taqdirda aholini muhofaza etish tadbir-choralarini qamrab oladi.

Harbiy xizmatga birinchi marta chaqirilgan fuqarolar Vatanga qasamyod qabul qiladilar.

Eslab qoling!

Fuqarolarni chaqiruv uchastkalarida qayd etish ular 16 yoshga to‘lgan yili umumta’lim muassasalaridagi oxirgi o‘qish yilining oktyabr-noyabr oylarida amalga oshiriladi.

Harbiy xizmatning quyidagi turlari joriy etilgan:

- muddatli harbiy xizmat;
- safarbarlik chaqiruvi rezervidagi harbiy xizmat;
- kontrakt bo‘yicha harbiy xizmat;
- O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida harbiy xizmatni o‘tagan rezervchilar xizmati.



Muddatli harbiy xizmat. Tinchlik davrida muddatli harbiy xizmat va safarbarlik chaqiruv rezervidagi harbiy xizmatga 18 yoshdan 27 yoshgacha bo'lgan, harbiy xizmatni o'tashga yaroqli erkak fuqarolar chaqiriladi. Muddatli harbiy xizmat chaqiruv yoshidagi fuqarolarning oddiy askar va serjant tarkibi lavozimlarida, shuningdek, muqaddam harbiy xizmatni o'tamagan ofitserlarning qonun hujjatlarida belgilangan muddat mobaynida Qurolli Kuchlar safidagi majburiy xizmat hisoblanadi.

Muddatli harbiy xizmatning muddatlari kalendar hisobida quyidagicha belgilanadi:

- oddiy askar va serjantlar tarkibi lavozimlarida xizmat o'tayotgan harbiy xizmatchilar uchun – 12 oy (oliy ma'lumotli shaxslar uchun – 12 oy):
- chaqiruv bo'yicha ofitserlar tarkibi lavozimlarida o'tayotgan ofitserlar uchun – 12 oy.

Safarbarlik chaqiruvi rezervidagi harbiy xizmat hududiy prinsip asosida oylik yig'inlar tarzida tashkil etiladi hamda chaqiriluvchilar tomonidan O'zbekiston Respublikasi mudofaa Vazirligi maxsus hisob-raqamiga pul badallari kiritilishini nazarda tutadi. Safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmat safiga fuqarolar 27 yoshga to'lgunga qadar olinadi va har yilgi harbiy yig'inlarga jalb etilishi mumkin. Favqulodda vaziyatlar yoki O'zbekiston Respublikasiga qarshi harbiy tajovuz yuz bergan taqdirda esa haqiqiy xizmatga chaqiriladi. Safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatni o'tagan fuqarolar 27 yoshga to'lganlaridan keyin Qurolli Kuchlar rezervi tarkibiga o'tkaziladi.

Kontrakt bo'yicha harbiy xizmat – Qurolli Kuchlar safidagi haqiqiy harbiy xizmatga ixtiyoriylik asosida, harbiy xizmat nazarda tutilgan vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar orqali davlat bilan tuziladigan kontraktga binoan kirgan fuqarolar bajaradigan harbiy xizmat turi. Harbiy xizmatni kasb tariqasida tanlagan fuqarolar kontrakt bo'yicha harbiy xizmatni oddiy askar, serjant va ofitserlar tarkibi lavozimlarida o'taydi. Harbiy xizmatni o'tash

muddatlari hamda asosiy shartlari kontraktda belgilanadi. Harbiy xizmatning kontraktda nazarda tutilgan muddati tugaganidan keyin taraflarning kelishuvi bilan bu muddat yangi kontrakt tuzish orqali uzaytirilishi mumkin.

Rezervchilar xizmati – haqiqiy harbiy xizmatni, shuningdek, safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatni o‘tagan oddiy askar, serjant va ofitserlar jumlasidan bo‘lgan harbiy xizmatga majburlar uchun Qurolli Kuchlarning qo‘shilma, qism va bo‘linmalari safini urush davrida taqozo etiladigan shtatlar darajasiga qadar to‘ldirish, shuningdek, urush davri taqozo etadigan tuzilmalarni kuchaytirish maqsadida umumiy harbiy majburiyat asosida joriy etiladigan harbiy xizmat turi. Rezervchilardan ham urush, ham tinchlik davrida O‘zbekiston Respublikasiga qarshi harbiy tajovuz tahdidi va mamlakat xavfsizligiga tahdid tug‘ilganida, tabiiy ofatlar hamda favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga binoan qo‘shilma va qismlar tarkibida jangovar maqsadlar bo‘yicha foydalanish mumkin.

Chaqiriluvchilarning muddatli harbiy xizmatga va safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga chaqirilish muddatini oilaviy sharoitga ko‘ra kechiktirish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- chaqiriluvchining ota-onasi mehnatga qobiliyatsiz bo‘lib, ularni boqishi shart bo‘lgan mehnatga qobiliyatli voyaga yetgan boshqa o‘g‘li bo‘lmasa (ota-onaning mehnatga qobiliyatsizligi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadi);
- chaqiriluvchining mehnatga qobiliyatli yolg‘iz onasi yoki otasi bo‘lib, ularning qaramog‘ida 16 yoshga to‘lmagan 2 va undan ortiq farzandi bo‘lgani holda mehnatga qobiliyatli voyaga yetgan boshqa o‘g‘li bo‘lmasa;
- chaqiruv kunida chaqiriluvchining tug‘ishgan aka-ukalaridan biri muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan bo‘lsa;
- chaqiriluvchining onasiz tarbiyalanayotgan voyaga yetmagan bir nafar farzandi bo‘lsa;
- chaqiriluvchining birinchi yoki ikkinchi guruh nogiron xotini va voyaga yetmagan ikki va undan ortiq farzandi bo‘lsa.

Tinchlik davrida muddatli harbiy xizmatga hamda safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga chaqirilishdan ozod etiladi:

- salomatligiga ko‘ra harbiy xizmatga yaroqsiz deb topilganlar;
- yaqin qarindoshlaridan biri (aka-ukasi, opa-singlisi) harbiy xizmatni o‘tash vaqtida halok bo‘lgan yoki vafot etgan chaqiriluvchilar;
- ro‘yxatdan o‘tgan diniy tashkilotlardan birida diniy rutba egasi bo‘lgan chaqiriluvchilar.

Jinoiy javobgarlikka tortilgan, shuningdek, sudlangan holati tugallanmaganligi yoki sudlanganligi olib tashlanmagan fuqarolar harbiy xizmatga chaqirilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari harbiy xizmatdan bo‘yin tovlagan taqdirda amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

Savol va topshiriqlar

1. Harbiy xizmat tartibini belgilovchi huquqiy asos haqida nimalarni bilasiz?
2. O‘smirlar 16 yoshga to‘lganlarida nima maqsadda harbiy hisobga olinishi sabablarini aytib bering.
3. Harbiy xizmat turlari haqida nimalarni bilasiz?
4. Jadvalni to‘ldiring.

Harbiy xizmatdan bo‘yin tovlagan fuqarolarga qanday jazo qo‘llaniladi?	Harbiy xizmatdan kimlar ozod etiladi?	Qaysi holatlarda harbiy xizmat muddatlari kechiktiriladi?

II.2. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MUDOFAA TO‘G‘RISIDAGI QONUNI

1-mashg‘ulot. Mudofaa tushunchasi. Mudofaa to‘g‘risidagi qonun. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining tashkil etilishi

O‘quv faoliyati natijalari:



- Mudofaa tushunchasini anglab oladi.
- Mudofaa to‘g‘risidagi qonun haqida biladi.
- Qurolli Kuchlarning tashkil etilishini bilib oladi.

Tayanch so‘zlar:

mudofaa, qaror, qonun, Qurolli Kuchlar, davlat organlari, boshqaruv.

Bilasizmi?

1. Mudofaa deganda nimani tushunasiz?
2. Qurolli Kuchlarsiz ham mamlakat mustaqilligini saqlash mumkinmi?

Eslab qoling!

Mudofaa – O‘zbekiston Respublikasining suvereniteti, hududiy yaxlitligi va aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilishni ta’minlashning siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ijtimoiy-huquqiy tashkiliy tadbirlar majmuidir.

Qurolli Kuchlar Oliy Bosh qo‘mondoni – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining tashkil etilishi

1991-yil 31-avgustda navbatdan tashqari bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Oliy Kengashining 6-sessiyasida “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi. Unda, jumladan, shunday deyilgan: “O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligini tuzish, Milliy gvardiya va noharbiy (muqobil) xizmatni tashkil etish huquqiga ega”. Ushbu qonunni bajarish yuzasidan 1991-yil 6-sentyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan Mudofaa ishlari Vazirligi tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 25-oktyabrdagi qaroriga binoan Mudofaa ishlari vazirligining huquqiy maqomi va tuzilishi tasdiqlandi. Vazirlik mahalliy-harbiy boshqaruv organlari, fuqarolar mudofaasi shtabi va armiya safidan tashqaridagi xizmatning maxsus boshqarmasi negizida tashkil qilindi. Keyinchalik sobiq

Turkiston harbiy okrugining boshqaruv organlari negizida Mudofaa ishlari vazirligining Bosh shtabi va boshqarmasi hamda ularning joylardagi quyi bo‘linmalari tashkil qilindi.

Mamlakatimiz Qurolli Kuchlarining vujudga kelishida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 14-yanvardagi qarori katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Ushbu qarorga muvofiq respublika hududida joylashgan sobiq SSSR Qurolli Kuchlarining barcha qismlari, harbiy o‘quv yurtlari, muassasa va tashkilotlari O‘zbekiston Respublikasining tasarrufiga olindi hamda ular moddiy texnika va mablag‘ bilan ta’minlanadigan bo‘ldi. Shu tariqa mustaqil davlatimiz Qurolli Kuchlarini barpo etishning dastlabki tashkiliy ishlari yakunlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 1992-yil 3-iyuldagi Farmoniga binoan Mudofaa ishlari vazirligi Mudofaa Vazirligiga aylantirildi. Shuningdek, Oliy Kengashning 12-chaqiriq 10-sessiyasida harbiy xizmatga taalluqli qarorlar, jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Mudofaa to‘g‘risida”, “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida” va “Muqobil xizmat to‘g‘risida”gi qonunlari qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 29-dekabrdagi “Vatan himoyachilari kunini belgilash to‘g‘risida”gi qonuniga binoan 14-yanvar “Vatan himoyachilari kuni” deb e’lon qilindi.



O‘zbekiston Respublikasining “Mudofaa to‘g‘risida”gi qonuni 2001-yil 11-mayda qabul qilindi.

“Mudofaa to‘g‘risida”gi qonunning vazifasi mudofaani tashkil etish va Qurolli Kuchlarni boshqarishning huquqiy asoslarini belgilashdan iborat. Qonun mamlakat mudofaasini ta’minlashda davlat organlarining vakolatlarini, shuningdek, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolarning ishtirokini aniqlab beradi.

Diqqat!

- Mudofaaga va Qurolli Kuchlarga rahbarlikni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti – Qurolli Kuchlar Oliy Bosh qo‘mondoni amalga oshiradi.
- Urush davrida O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vaziri bir paytning o‘zida Qurolli Kuchlar Oliy Bosh qo‘mondoni o‘rinbosari hisoblanadi.
- Qurolli Kuchlarning kundalik faoliyatiga rahbarlikni o‘z bo‘ysunuvida Qurolli Kuchlarning tarkibiga kiradigan harbiy tuzilmalari bo‘lgan vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning rahbarlari amalga oshiradi.
- Qurolli Kuchlar oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarish yuzasidan ularga tezkor rahbarlikni Qurolli Kuchlar Bosh shtabining boshlig‘i amalga oshiradi.

Mudofaa sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari:

- boshqa davlatga qarshi harbiy kuch ishlatmaslik, tajovuzning oldini olish va uni daf etish (O‘zbekiston Respublikasi tegishli shartnomalar bilan bog‘langan davlatlarga yordam ko‘rsatish hollari bundan mustasno);
- xalqaro huquq normalariga muvofiq ravishda kollektiv xavfsizlik tizimlarida ishtirok etish;
- harbiy-siyosiy bloklarda qatnashmaslik;
- harbiy qurilishning zamonaviy urushlar va qurolli mojarolarning xususiyatiga mos bo‘lishi;
- yadroviy va boshqa turdagi ommaviy qirg‘in qurollarini ishlab chiqarishni, qayta ishlashni, olishni, saqlashni, tarqatishni va joylashtirishni rad etish;
- Qurolli Kuchlarning, iqtisodiyotning, aholining, hududning tajovuzni daf etishga doim shay turishi;
- mudofaaning yetarli darajada bo‘lishi;
- harbiy xizmat sharafli ekanligini ta’minlash.

Savol va topshiriqlar

1. Mamlakat mudofaasi nima?
2. Mamlakat mudofaasi qanday prinsiplar asosida amalga oshiriladi?
3. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilish tarixi haqida buklet tayyorlash.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Mudofaa to‘g‘risida”gi qonunining 2, 4 va 6-moddalarini eslab qolish.
5. Qonunlarning davlat mudofasidagi ahamiyatini izohlash.

“Umumharbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi qonun	“Mudofaa to‘g‘risida”gi qonun

2-mashg‘ulot. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari. Mudofaa vazirligi qo‘shin turlari, vazifasi, tuzilishi va faoliyati asoslari

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining vazifasi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 125-moddasida bayon qilingan. U O‘zbekiston Respublikasining davlat suvereniteti va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuzilgan.

O‘quv faoliyati natijalari:



- O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining qo‘shin turlari, vazifasi, tarkibiy tuzilish prinsiplari, ularning faoliyat asoslari haqida tushunchalarga ega bo‘ladi.

Eslab qoling!

Mudofaa vazirligi – Qurolli Kuchlarga ma’muriy va tezkor rahbarlikni amalga oshiradi.

Mudofaa vazirligi O‘zbekiston Prezidentining Farmoniga binoan 1991-yil 6-sentyabr kuni tashkil etilgan va Mudofaa ishlari vazirligi deb nomlangan. 1992-yil 3-iyulda Mudofaa vazirligi deb qayta nomlangan.

Qurolli Kuchlar o‘z faoliyatini qonun ustuvorligi, markazlashgan va yakkaboshchilik, jangovar va safarbarlik borasida doimiy shaylik hamda harbiy intizomga rioya etish asosida amalga oshiradi.

Harbiy obyektlar, binolar va inshootlar, qurol-yarog‘ va harbiy texnikaning barcha turlari davlat mulki hisoblanadi hamda Qurolli Kuchlar tasarrufida bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo‘shinlari:

- quruqlikdagi qo‘shinlar;
- havo hujumidan mudofaa qo‘shinlari va harbiy havo kuchlari;
- maxsus qo‘shinlar.

1. Quruqlikdagi qo‘shinlar

Quruqlikdagi qo‘shinlar qo‘shinlarning ichida eng asosiysi va ko‘p sonligi, shuning bilan birga eng qadimiysidir. Uni tashkil qiladigan piyoda, artilleriya, tank qo‘shinlari hujumda qat’iy harakatlari va mudofaada mustahkam turishlari bilan ajralib turadi.

Motoo‘qchi qismlar kurashning turli vositalari bilan qurollangan va to‘la motorlashtirilgan. Ularning qism va bo‘linmalari piyodalarning jangovar mashinasi PJM (БМП) va zirhli transportyor (БТР)larda harakat qiladi va jang olib boradi.

Avtomat, pulemyot va tankka qarshi vositalar (ПТУРС) bilan ta’minlangan motoo‘qchi qismlar dushmanning mudofaasini muvaffaqiyatli yorib o‘tib, shiddatli hujum qilish orqali dushmanni tor-mor qila oladi.

Tank qismlari quruqlikdagi qo‘shinlarning asosiy zarbdor kuchini tashkil qiladi va jangovar harakatlarda eng ahamiyatli vazifalarni hal qilishga mo‘ljallangan.



Tanklar marshda

Tez harakat qila olishi, zirhli himoyasi, zamonaviy qurollari, tungi ko‘rish asboblari va suv osti (tubi)da harakat qila olish qurilmalari tanklarni zamonaviy sharoitlarda kurashning samarali vositasiga aylantirdi.

Tanklarning ishonchli zirhi ularni yadro portlashining shikast yetkazuvchi omillari – zarbali to‘lqin, yorug‘lik nurlanishi, o‘tib-kirib boruvchi radiatsiya, radiaktiv zaharlanishga qarshi mustahkam turib bera olishini ta’minlaydi.

Quruqlikdagi qo‘shinlar artilleriyasi zambarak (pushka)lar, to‘p (gaubitsa)lar, reaktiv snaryadlarga ega. Bu vositalarning barchasi motorlashtirilgan, juda qisqa vaqt ichida jangovar shay holatga kelib, harakati va o‘t ochishi orqali manyovr qilib, piyodalarni hamda tanklarni kuzatishi mumkin.

Tezkor harakat qiluvchi kuchlar qismlari dushman ichkarisidagi muhim hududlarni egallash, ularni o‘z qo‘shinlari kelguncha ushlab turish, ularga dushmanni tor-mor qilishga yordam berish kabi jangovar vazifalarni bajaradi. Jangovar harakatlarda desantlashni amalga oshirish uchun maxsus samolyotlardan foydalanadi.

2. Havo hujumidan mudofaa qo‘shinlari va harbiy havo kuchlari

Harbiy havo kuchlari porshenli samolyotlardan boshlanib, bugungi zamonaviy reaktiv mashinalar darajasiga yetib keldi. Ular 3000 km/h tezlikda hamda 30 km balandlikda

ucha oladi. Yuqori darajadagi manyovr, olis masofalarga ucha olish, dushmanning juda ichkaridagi obyektlarini ham yo‘q qila olish, havodan dushmanga kutilmagan zarba bera olish harbiy havo kuchlarining asosiy jangovar xususiyatlaridir.


O‘zbegim lochini parvozda

Mamlakatning havo hujumidan mudofaa qo‘shinlarining asosiy vazifasi – muhim ma’muriy-siyosiy markazlar, sanoat markazlari, aerodromlarni va boshqa davlat hamda harbiy ahamiyatga molik obyektlarni dushmanning havo zarbasidan himoya qilishdir. Shuning uchun havo hujumidan mudofaa qo‘shinlari ixtiyorida radiolokatsion bo‘linmalar, zenit-raketali qismlar mavjud.

3. Maxsus qo‘shinlar

Maxsus qo‘shinlar Qurolli Kuchlar jangovar faoliyatini har tomonlama ta’minlash, turli harbiy yo‘nalishlar bo‘yicha tashkil etiladigan qo‘shinlar guruhini kuchaytirish, ularga yuklatilgan vazifalarni bajarishga mo‘ljallangan.


Sapyorlar ish ustida

Muhandislik bo‘linmalari hujumda qism va bo‘linmalarning oldinga harakatlanishini ta’minlaydi, yo‘l yotqizadi, ko‘priklarni ta’mirlaydi va yangi quradi, suvli to‘siqlar orqali o‘tish joyini tayyorlaydi, ularni minalardan tozalaydi. Mudofaada esa muhandislik qo‘shinlari mudofaa marralarini quradi va muhandislik to‘siqlarini o‘rnatadi.


Kimyoviy razvedka

Ommaviy qirg‘in qurollari, jumladan, kimyoviy qurollarning paydo bo‘lishi qo‘shinlarni himoya qilish zaruriyatini keltirib chiqardi. Bunday vazifalarni bajarishda muhim rol *kimyoviy himoya bo‘linmalari*ga tegishlidir. Buning uchun ular maxsus mashina va asboblar, qism va bo‘linmalarni maxsus ishlovdan o‘tkazish uchun materiallar bilan ta’minlangan.

Aloqa bo‘linmalari jangning barcha turlarida ishonchli aloqani ta’minlab beradi. Shu maqsadda aloqa qismlari yaqin va olis masofalardan uzluksiz aloqalarni ta’minlab beruvchi eng zamonaviy radioreleli, simli va uyali aloqa vositalari bilan ta’minlangan. So‘nggi vaqtlarda aloqa bo‘linmalari tarkibida televideniye, fototelegraf, elektron hamda boshqa zamonaviy vositalar mavjud.

*Avtomobil qo‘shinlari*ning bo‘linma va qismlari jang olib borayotgan qismlarga moddiy vositalarni yetkazib berish, yaradorlarni, zararlangan qurollarni evakuatsiya qilish va boshqa yuklarni tashish uchun xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga, shuningdek, davlat xavfsizlik xizmatining chegara qo‘shinlari, Ichki ishlar vazirligining qorovul va ichki qo‘shinlari, Milliy gvardiya, Favqulodda vaziyatlar vazirligiga qarashli tuzilmalar ham kiradi.









Savol va topshiriqlar

1. Markaziy Osiyo davlatlarining Qurolli Kuchlari haqida bilasizmi?
2. Mamlakat mudofaasiga kim rahbarlik qiladi?
3. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy qudrati haqida ma’lumot tayyorlash.
4. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga qanday vazirliklar qo‘shinlari kiradi?

II.3. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARINING ICHKI XIZMAT NIZOMI

1-mashg‘ulot. Harbiy xizmatchilarning umumiy majburiyatlari. Harbiy unvonlar. Boshliqlar va bo‘ysunuvchilar, kattalar va kichiklar

O‘quv faoliyati natijalari:



- Harbiy xizmatchilarning umumiy majburiyatlarini aytib beradi.
- Harbiy unvonlar, boshliqlar va bo‘ysunuvchilar, kattalar va kichiklarni bilib oladi.

Tayanch so‘zlar:

majburiyat, harbiy unvonlar, boshliqlar va bo‘ysunuvchilar, kattalar va kichiklar.

Bilasizmi?

1. Qurolli Kuchlar faoliyatida nizomlar qanday ahamiyatga ega?
2. Boshliq va bo‘ysunuvchi deb kimlarni aytish mumkin?

Tayanch tushunchalar

Umumharbiy nizomlar – harbiy xizmatning qonun va qoidalar majmui.

Farqlovchi nishonlar – harbiy xizmatchilarning rusumli kiyimidagi belgilar. Ular harbiy xizmatchining personal, harbiy va maxsus unvoni, qaysi qo‘shin turiga tegishli ekanligini bildiradi.

Boshliq – bo‘ysunuvchiga buyruq berish va uning ijrosini talab qilib olish huquqiga ega mansabdor shaxs.

Bo‘ysunuvchi – boshliqning buyruqlarini so‘zsiz bajarishga majbur bo‘lgan harbiy xizmatchi.

Harbiy nizomlar – qurolli kuchlar va qo‘shin turlarining qo‘shilma, qism va bo‘linmalaridan jangovar harakatlarda foydalanish prinsiplari, ularning maqsadlari, vazifa va usullarini, harbiy xizmatchilarning majburiyatlarini, ular orasidagi o‘zaro munosabatlarni, kundalik turmush faoliyatini, harbiy xizmatni tashkil etish, o‘tash yo‘l-yo‘riqlarini o‘rgatuvchi hamda odob-axloq normalarini va harbiy nizomni mustahkamlash asosini belgilab beruvchi rasmiy me’yoriy huquqiy hujjatlar.

Harbiy nizomlar jangovar va umumharbiy turlarga bo‘linadi. Jangovar nizomlar qurolli kuchlar qism va bo‘linmalari turlarining jangovar tayyorgarlik asoslari hamda jangovar

harakatlarni olib borishni belgilab beradi. Umumharbiy nizomlar harbiy xizmatchilarning o‘zaro munosabatlari, ularning umumiy va lavozimga oid majburiyatlari, huquqlari, ichki, garnizon va qorovullik xizmatlarini o‘tash tartiblari va boshqalarni belgilovchi Qurolli Kuchlarning hamma turlari uchun umumiy majburiy qoidalardan iborat.

Eslab qoling!

Jangovar nizomlar rasmiy rahbarlik hujjati bo‘lib, birlashma, qo‘shilma va harbiy qismlarning harbiy harakatlar olib borishlaridagi asosiy jangovar prinsiplarini o‘rnatib beradi.



Umumharbiy nizom Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilarining umumiy huquqlari va majburiyatlarini va ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni, brigada mansabdor shaxslarning asosiy majburiyatlarini, shuningdek, ichki tartib qoidalarini belgilaydi. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy qismlarning, shtablarning, boshqarmalarning, muassasalarning, korxonalarning, tashkilotlarning va harbiy bilim yurtlarining barcha harbiy xizmatchilari Ichki xizmat Nizomiga amal qiladi.

Muhim!

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Ichki xizmat, Intizom, Garnizon va qorovullik xizmatlari Nizomi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 9-oktyabrdagi farmoni bilan, Saf nizomi Mudofaa vazirining 1996-yil 14-oktyabrdagi 238-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan va Mudofaa vaziri, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmatilari tomonidan 2013-yil 28-oktyabrdagi 13/34/6/84-sonli qarori asosida kuchga kiritilgan.

Ichki xizmat nizomi Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilarining umumiy huquqlari, majburiyatlari va ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni, mansabdor shaxslarning asosiy majburiyatlarini, shuningdek, ichki tartib-qoidalarni belgilaydi.

Ushbu nizomning talablari bo‘yicha harbiy qismlarda harbiy xizmatchilarning hayoti va ma’naviy jarayonlarni tashkil etilishi aks ettirilgan. Shuningdek, harbiy xizmatchilar

o‘rtasidagi munosabtlar qanday bo‘lishligi, harbiy xushmuomalalik qoidalari, askarlarning majburiyatlari, ichki xizmatni o‘tash tartibi belgilab berilgan.

Harbiy xizmatchilarning umumiy majburiyatlari

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarning harbiy xizmatchilari xizmat faoliyatida qonunlar, harbiy nizomlarning talablariga amal qiladi va siyosiy maqsadlarni ko‘zlovchi boshqa jamoat tashkilotlari va birlashmalarning faoliyati bilan aloqador bo‘lmasligi lozim.

Harbiy xizmatchi quyidagilarga majbur:

- Vatanga qasamyodga sodiq qolishga, o‘z xalqiga fidoyilarcha xizmat qilishga, O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi va hududiy butunligini so‘ngi tomchi qonigacha himoya qilishga;
- o‘z davlati Konstitutsiyasi va qonunlariga qat’iy rioya qilishga, harbiy nizomlarning talablarini bajarishga;
- harbiy xizmat mashaqqatlariga sabot bilan chidashga;
- o‘ziga ishonib topshirilgan qurol-aslaha va harbiy texnikani bilish va ishlatishga, uni doimiy shaylikda saqlashga;
- halol, intizomli va jasur bo‘lishga;
- komandirlarga so‘zsiz bo‘ysunishga va ularni jangda himoya qilishga, harbiy qism Jangovar Bayrog‘ini qo‘riqlashga;
- askariy yurish-turish qoidalariga rioya qilishga va harbiycha salom berishni bajarishga, har doim rusum bo‘yicha, ozoda va saranjom kiyinishga.

Harbiy unvon – Qurolli Kuchlarning har bir harbiy xizmatchisi va zaxiradagi harbiy majburiyatli shaxsga ularning xizmat mavqeyi, harbiy va maxsus tayyorgarligi, o‘tagan xizmat muddati, qaysi qo‘shin yoki xizmat turiga mansub ekanligiga, shuningdek, ko‘rsatgan xizmatlariga ko‘ra beriladigan unvon. Harbiy unvonlar harbiy xizmatchilarning o‘zaro munosabatlaridagi mavqeyini belgilaydi.

Har bir harbiy xizmatchi va harbiy xizmatga majburga tegishli harbiy unvon beriladi. Qurolli Kuchlardagi harbiy unvonlar qo‘shin unvonlari va kema tarkibidagi unvonlarga bo‘linadi.

Qurolli Kuchlarda joriy etilgan harbiy unvonlar

Qo‘shin unvonlari	Kema tarkibidagi unvonlar
Oddiy askarlar tarkibi	
Oddiy askar	Matros
Serjantlar tarkibi	
kichik serjant	2-darajadagi starshina
3-darajali serjant	–
2-darajali serjant	–
1-darajali serjant	–
katta serjant	1-darajadagi starshina
Ofitserlar tarkibi **Kichik ofitserlar tarkibi**	
leytenant	leytenant
katta leytenant	katta leytenant
kapitan	kapitan-leytenant
Katta ofitserlar tarkibi	
mayor	3-darajali kapitan
podpolkovnik	2-darajali kapitan
polkovnik	1-darajali kapitan
Generallar tarkibi	
general-mayor general-leytenant general-polkovnik armiya generali	

Qurolli Kuchlardagi oliy unvon **armiya generali** bo‘lib, bu unvon (urush davrida) O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarning Oliy Bosh qo‘mondoniga, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vaziriga beriladi.

Rezerv, zaxira yoki iste’fodagi fuqarolarning harbiy unvoniga mos ravishda “rezervdagi”, “zaxiradagi” yoki “iste’fodagi” so‘zlari qo‘shiladi.

MUDOFAA VAZIRLIGI HARBIY UNVONLARI



Harbiy xizmatchilarning farqlovchi nishonlari

Harbiy xizmatchilarning harbiy kiyim-kechak va farqlovchi nishonlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi. Qurolli Kuchlar tarkibiga jalb qilingan harbiy xizmatchilarga kundalik va uyushtiriladigan bayram tadbirlari uchun harbiy unvon va qo‘shin turini farqlovchi nishonlari bo‘lgan harbiy kiyim-kechak ajratiladi.

Harbiy xizmatchilar harbiy unvonni va qo‘shin turini farqlovchi nishonlari bo‘lgan harbiy kiyim-kechakda yuradi. Harbiy kiyim-kechakda yurish qoidalari Mudofaa vazirligi tomonidan belgilanadi. Harbiy kiyimda yurish huquqiga ega bo‘lmagan fuqarolar harbiy xizmatchilar kiyim-kechaklarini kiyishi va farqlovchi nishonlarni taqib yurishi taqiqlanadi. Farqlovchi nishonlarga pogonlar, petlitsalar, ko‘krak va yeng belgilari, bosh kiyim, pogon va petlitsalardagi belgilar, kantlar va lampaslar kiradi.


Umumqo‘shin


Harbiy havo kuchlari


Maxsus operatsiya kuchlari


Havo hujumidan mudofaa qo‘shinlari


Artilleriya qo‘shinlari


Havo-desant qo‘shinlari


Tank qo‘shinlari


Avtomobil qo‘shinlari


Aloqa qo‘shinlari


Radiatsion va kimyoviy-biologik muhofaza qo‘shinlari


Muhandislik qo‘shinlari


Yuridik xizmat


Tibbiy ta’minot va veterinariya xizmati


Harbiy harakatlar xizmati


Harbiy ansambl

Boshliqlar va bo‘ysunuvchilar, kattalar va kichiklar

Yakkaboshchilik Qurolli Kuchlardagi asosiy rahbarlik prinsipidir. Yakkaboshchilikda boshliq (komandir) bo‘ysunuvchilariga nisbatan buyruq berish huquqi bilan to‘la ta’minlanadi va qo‘shinlar barcha funksiyalarini amalga oshirishi va hayot faoliyati uchun to‘la javobgar bo‘ladi.

Boshliqlar bo‘ysunuvchilariga nisbatan aniq huquq va majburiyatlarga ega bo‘lgan mansabdor shaxslardir. O‘z xizmat maqomi va harbiy unvoniga ko‘ra ayrim harbiy xizmatchilar boshqalarga nisbatan boshliq yoki bo‘ysunuvchi bo‘lishi mumkin. Ular bo‘ysunuvchilariga buyruq berish va ular ijrosini talab qilish huquqiga ega.

Bo‘ysunuvchilar boshliqlarga so‘zsiz bo‘ysunishga, boshliqlarning buyruqlarini aniq va ko‘rsatilgan muddatda bajarishga majbur. Bo‘ysunuvchilar boshliqning buyruqlarini so‘zsiz bajarishga majbur. Ular boshliqning buyrug‘ini tashabbus va zukkolikni namoyon qilib, so‘zsiz, aniq va muddatida bajarishi shart.

O‘z xizmat maqomi va harbiy unvoniga ko‘ra boshqa harbiy xizmatchilarga nisbatan ularning boshlig‘i yoxud bo‘ysunuvchisi sanalmagan harbiy xizmatchilar *katta* yoxud *kichik* bo‘lishi mumkin.

Kattalik harbiy xizmatchilarning harbiy unvoniga qarab belgilanadi. Harbiy unvon bo‘yicha kattalar unvoni kichiklar intizomni buzgan holatlarda, tartibsizliklarni bartaraf etishni talab qilishi lozim. Unvoni bo‘yicha kichiklar bunday talablarni so‘zsiz bajarishga majbur.

Eslab qoling!

Agar harbiy xizmatchi Umumharbiy nizomlar talabini buzsa, unga intizomiy ta’zir chorasi qo‘llaniladi. Harbiy xizmatchini Umumharbiy nizomlar talabini buzishida jinoyat elementi topilsa (dezertirlik qilsa, sotqinlik qilsa, og‘ir jinoyat qilsa), bu haqida harbiy prokurorga xabar beriladi va unga nisbatan jinoiy ish ochiladi.

Unutmang!

Harbiy xizmatchi bo‘lish intizomli davlat fuqarosi bo‘lish demakdir.

Savol va topshiriqlar

1. Harbiy xizmatchilarning qanday umumiy majburiyatlari mavjud?
2. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida ta’sis etilgan qanday harbiy unvonlarni bilasiz?
3. Harbiy xizmat yakkaboshchilik prinsipining mohiyati nimadan iborat?
4. Harbiy unvon va nishonlarning turlari bo‘yicha taqdimot tayyorlash.
5. Toifalash jadvali yordamida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida ta’sis etilgan harbiy unvonlarni toifalarga ajrating.

Oddiy askarlar tarkibi	Serjantlar tarkibi

Kichik ofitserlar tarkibi	Katta ofitserlar tarkibi	Generallar tarkibi

2-mashg‘ulot. To‘g‘ridan-to‘g‘ri va bevosita boshliqlar. Buyruq berish va uni bajarish tartibi. Harbiycha salomlashish, harbiycha xushmuomalalik va murojaat etish qoidalari. Harbiy xizmatchilar orasidagi Nizom munosabatlarini buzganlik uchun javobgarlik

O‘quv faoliyati natijalari:



- To‘g‘ridan-to‘g‘ri va bevosita boshliqlarni ajratadi.
- Buyruq berish va uni bajarish tartibini biladi.
- Harbiycha salomlashish, harbiycha xushmuomalalik va murojaat etish qoidalarini biladi.
- Harbiy xizmatchilar orasidagi nizom munosabatlarini buzganlik uchun javobgarlikka tortilishini anglaydi.

Tayanch so‘zlar:

bevosita boshliq, to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshliq, buyruq, buyurish, harbiycha salomlashish, javobgarlik.

Bilasizmi? Buyruq berishni topshiriqni bajarish deb tushunasizmi?

Harbiy xizmatchilar, xizmat yuzasidan, hatto vaqtincha bo‘lsa ham, bo‘ysundirilgan boshliqqa **to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshliq** deyiladi.

Bo‘ysunuvchiga yaqinroq bo‘lgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshliq **bevosita boshliq** deyiladi. Masalan, oddiy askar uchun jangovar guruh komandiri bevosita boshliq hisoblanadi.

Buyruq berish va bajarish tartibi

Buyurish shtab boshlig‘i harbiy qism komandiri nomidan yoxud garnizon harbiy komendanti, garnizon boshlig‘i nomidan chiqariluvchi idora qilish xizmat hujjati sanaladi.

Buyruq – komandir (boshliq)ning bo‘ysunuvchilarga qaratilgan va ma’lum amallarining majburan bajarilishini, u yoki bu qoidalarga rioya qilinishini talab etadigan yoxud u yoki bu tartib qoidalarni belgilaydigan ko‘rsatmasi. Buyruq so‘zsiz, aniq va o‘z muddatida bajarilishi lozim. Jangda boshliqning buyrug‘ini o‘z vaqtida va aniq bajarish muvaffaqiyat va dushman ustidan g‘alabaga erishishning shartidir.

Buyruqlar bo‘ysunganlik yo‘sinida beriladi. O‘ta zarur holatlarda katta komandir bo‘ysinuvchiga uning bevosita boshlig‘ini chetlab o‘tgan holda buyruq berishi mumkin. Bunday holatda u bu haqida bo‘ysunuvchining bevosita boshlig‘iga xabar qiladi yoxud bo‘ysunuvchiga uning o‘zi bevosita boshlig‘iga bildiruv berishini buyuradi.

Buyruq olgan harbiy xizmatchi *“Xo‘p bo‘ladi!”* deb javob beradi va shundan keyin uni bajaradi. Agar buyruqni bajarayotgan harbiy xizmatchi maqomiga ko‘ra boshqa katta boshliqdan yangi buyruq olsa, bu haqida ikkinchi buyruqni bergan boshliqqa bildiruv beradi va tasdiqlangandan so‘ng oxirgisini bajaradi. Yangi buyruqni beruvchi bu haqida birinchi buyruqni bergan boshliqqa xabar qiladi.

Harbiycha salomlashish





Harbiycha salomlashish harbiy xizmatchilarning birodarlarcha jipsligining ifodasi, o‘zaro hurmat va mushtaraklik madaniyatining namoyon bo‘lish belgisi sanaladi. Barcha harbiy xizmatchilar bir-biriga duch kelganda (yetib olganda, o‘tib ketayotganda) O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Saf nizomi bilan belgilangan qoidalarga qat’iy rioya qilgan holda bir-biriga salom berishga majburdirlar.

Harbiy unvoniga ko‘ra bo‘ysunuvchilar va kichiklar birinchi bo‘lib salom beradi.

Bundan tashqari harbiy xizmatchilar quyidagi holatlarda salom berishga majburdirlar:

- Noma’lum askar qabriga;
- Vatan ozodligi va mustaqilligi uchun janglarda halok bo‘lgan jangchilarning birodarlik qabristoniga;
- harbiy qismning Jangovar Bayrog‘iga;
- harbiy bo‘linmalar kuzatib borayotgan dafn marosimlariga.

Eslab qoling!

Harbiy xizmatchilar yuksak madaniyat, kamtarlik va og‘ir-bosiqlik namunasini namoyish etishi, jamoat joylarida o‘zini munosib tutishga majburdir.

Harbiy xizmatchilar xulqi va xushmuomalaligi

Harbiy xizmatchilar orasida munosabatlar o‘zaro hurmat asosida quriladi. Ular xizmat masalalari yuzasidan bir-birlariga **“Siz”**lab murojaat etishlari lozim. Boshliqlar savoliga tasdiq javobini aytish kerak bo‘lsa, **“Xuddi shunday”**, agar inkor javobini aytish zarur bo‘lsa, **“Aslo yo‘q”** deb aytiladi.

Safdan tashqarida, buyruq berayotganda yoxud olayotganda harbiy xizmatchilar safona qaddi rostlikda turadilar, agar bosh kiyimda bo‘lsalar, unga qo‘lini qadaydilar va so‘ngra tushiradilar.

Jamoat joylarida, transport vositalarida bo‘sh o‘rinlar bo‘lmagan paytda harbiy xizmatchi boshliqqa (kattaga) o‘z o‘rnini taklif etishga majburdir.

Boshliqlar va kattalarga murojaat qilish

Boshliqlar (kattalar) bo‘ysunuvchilar (kichiklar)ni ularning harbiy unvoni va familiyasi bo‘yicha ataydi. Masalan: **“Oddiy askar Azimov”** yoxud faqat harbiy unvoni bo‘yicha ataydi. Bunda unvonidan oldin **“O‘rtoq”** so‘zi qo‘shib aytiladi. Masalan: **“O‘rtoq askar”, “O‘rtoq serjant”.**

Bo‘ysunuvchilar (kichiklar) kattalar (boshliqlar)ga murojaat qilayotganlarida ularning harbiy unvoni oldiga **“O‘rtoq”** so‘zi qo‘shib aytiladi. Masalan: **“O‘rtoq mayor, murojaat qilishga ruxsat bering!”**

Komandir (boshliq) yoxud kattalar ishtirokida boshqa harbiy xizmatchiga murojaat qilayotgan vaqtida, buning uchun undan ruxsat so‘rashi zarur. Masalan: **“O‘rtoq mayor, leytenant Azimovga murojaat qilishga ruxsat bering!”**

Agar harbiy xizmatchi Umumharbiy nizomga oid munosabatlarni buzsa, u holda intizomiy javobgarlikka tortiladi. Agar uning qilmishida jinoyat elementlari topilsa, jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Savol va topshiriqlar

1. Harbiy xizmatda to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bevosita boshliq deb kimlarga aytiladi?
2. To‘g‘ridan-to‘g‘ri boshliq va bo‘ysunuvchi kim?
3. Buyruqni bajarish tartibi haqida nimalarni bilasiz?
4. Harbiycha xushmuomalalik va murojaat qilish qoidalari qanday tartibda amalga oshiriladi?
5. Boshliqlarga murojaat qilish va harbiycha salomalshishni mashq qilish.
6. Harbiy munosabatning ahamiyati mavzusida buklet tayyorlash.



03 OTISH TAYYORGARLIGI

Otish tayyorgarligi shaxsiy tarkibni o‘z qurolidan jangovar holatning turli sharoitlarida mohirlik bilan foydalana olishlikka o‘rgatish maqsadida o‘tkaziladi.

Otish tayyorgarligi quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi: qurolning moddiy qismlari; otish asoslari; otishning usullari va qoidalari; qo‘l granatalarini uloqtirish; jangda kuzatish va masofalarni aniqlash.

Qurolning moddiy qismlari – qurolning vazifasi, tuzilishi va jangovar xususiyatlarini o‘rganishga mo‘ljallangan bo‘lim. Qurolning moddiy qismlarini bilish u bilan to‘g‘ri muomala qilish, uni asrab-avaylash va turli sharoitlarda otganda benuqson ishlashini ta‘minlab berish uchun zarur.

Harbiy xizmatga chaqiriluvchi qurol-yarog‘dan foydalanish bo‘yicha boshlang‘ich bilimga ega bo‘lishi uchun uni amaliy faoliyatda qo‘llay olish ko‘nikmasi katta ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqib o‘quvchi:

- avtomatni otishga tayyorlashni, undan paydo bo‘luvchi va harakatlanuvchi nishonlarga otish usullarini bajarishni;
- avtomatni tozalash va moylashni;
- burchak kattaligi yordamida nishongacha bo‘lgan masofani aniqlash usullarini;
- parchalanuvchi qo‘l granatalarini har xil holatda uzoqlikka va aniqlikka uloqtirish texnikasini;
- parchalanuvchi qo‘l granatalarni uloqtirish mashqlarini bajarishni uddalashi;
- boshlang‘ich mashq shartlari bo‘yicha avtomatdan jangovar o‘q bilan otish amalini bajarishi;
- kichik kalibrli hamda pnevmatik miltiqdan o‘q otish mashqlarini bajara olish amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi;
- otish mashg‘ulotlarida xavfsizlik qoidalarini bilishi;
- Kalashnikov avtomati, parchalanuvchi qo‘l granatalarining jangovar xususiyatlari, tuzilishi, ishlash prinsiplarini bilishi;
- harakatlanuvchi va paydo bo‘luvchi nishonlarga otish qoidalarini bilishi shart.

Qurol-yarog‘ va o‘q-dorilar bilan ishlaganda xavfsizlik choralariga qat’iy amal qilish zarur. Mashg‘ulot boshlanmasdan oldin avtomat o‘qlanganligini tekshirib ko‘rish lozim. Qurol o‘qlangan yoki o‘qlanmaganligidan qa’tiy nazar:

- uni odamlarga qaratish;
- rahbar (boshliq)ning ruxsatisiz qurolni o‘qlash;
- shaxsiy tarkibga qarata 100 metrdan yaqin masofadan paxtavon o‘q bilan o‘q uzish;
- qizil bayroq ko‘tarilgan joy, xavfli yo‘nalish yoki pana tomonlarga o‘q uzish taqiqlanadi.

“Otish to‘xtatilsin!” buyrug‘i oq bayroq yoki tunda oq rangli fonar yoqish orqali belgilanadi.

O‘q-dorilar bilan ishlaganda:

- o‘q-dorilarni belgilanmagan joyda saqlash;
- o‘q-dorilarni boshqa shaxslarga berish va qarovsiz qoldirish;
- o‘q-dorilardan poroxni chiqarib olish va olovga tashlash;
- otilmay qolgan o‘q-dorilardan o‘quv patronlari sifatida foydalanish taqiqlanadi.

III.1. O‘QOTAR QUROLLARINING VAZIFASI, TUZILISHI, ISHLASH PRINSIPI VA JANGOVAR XUSUSIYATLARI

1-mashg‘ulot. Nazariy. Kalashnikov avtomatining vazifasi, konstruktiv va ballistik ko‘rsatkichlari, umumiy tuzilishi. Kalashnikov qo‘l pulemyoti. Jangovar patronlar. Qurol-yarog‘ va o‘q-dorilar bilan ishlaganda xavfsizlik choralari

O‘quv faoliyati natijalari:

- Kalashnikov avtomatining vazifasi, konstruktiv va ballistik ko‘rsatkichlari, umumiy tuzilishini biladi.
- Kalashnikov qo‘l pulemyotining vazifasi, konstruktiv va ballistik ko‘rsatkichlari, umumiy tuzilishini biladi.
- Jangovar patronlar, qurol-yarog‘ va o‘q-dorilar bilan ishlaganda xavfsizlik choralarini aytib beradi.



Bilasizmi?

1. Avtomatik qurol deganda nimani tushunasiz?
2. Qanday jangovar qurollar haqida bilasiz?

Kalashnikov avtomati dushmanning jonli kuchlarini yo‘q qilish uchun mo‘ljallangan. U individual qurol hisoblanadi.



AKM



AK-74

Tayanch tushunchalar

O‘qotar qurol – o‘q (snaryad)ni stvol kanalidan uchirib chiqarish uchun porox gazlarining yonishidan hosil bo‘lgan gazlar bosimi kuchidan foydalaniladigan qurol.

O‘qli qurol – kalibri 20 mm dan kichik bo‘lgan o‘qotar qurol (pistolet, miltiq, avtomat, pulemyot va h. k.).

Avtomat qurol – qayta o‘qlash va navbatdagi otishni amalga oshirish avtomatik tarzda porox gazlari energiyasi hisobiga amalga oshiriladigan o‘qotar qurol.

Pulemyot – dushmanning yer, havo va suvdagi nishonlarini shikastlash uchun ishlatiladigan tezotar avtomatik qurol.

Patron – o‘qli va artilleriya qurollarining o‘q-dorisi (qurol patron bilan bir usulda o‘qlanadi).

Eslab qoling!

Tungi vaqtlarda avtomat va qo‘l pulemyotlarida maxsus nishon yorituvchi otish moslamalaridan foydalaniladi hamda ular qurollar bilan birgalikda “N” qo‘shimcha harfi bilan ataladi. (Masalan. AKN, AK74N, RPKN74 va b.)

Kalashnikov avtomati (AKM, AK-74) individual qurol hisoblanadi va u dushmanning jonli kuchini yo‘q qilishga mo‘ljallangan. Qo‘l jangida avtomatga nayza-pichoq biriktiriladi. Bir xil kalibrdagi avtomat va pulemyotlar oqdonlarini almashtirib ishlatish mumkin. Kalashnikov avtomati tuzilishi jihatdan juda sodda va yuqori jangovar hamda ekspluatatsion (ishlatish) sifatlariga ega.

Kalashnikov avtomatidan uzluksiz (avtomatik ravishda) va bittalab o‘t ochish mumkin. Uzluksiz o‘t ochish avtomatdan otishning asosiy turi hisoblanadi: u qisqa (5 tagacha otish) yoki (10 tagacha otish) yoki to‘xtovsiz bo‘lishi mumkin.

№	Ko‘rsatkichlar nomi	AKM	RPK	AK-74	PKM
1	2	3	4	5	6
1	Aniq otish uzoqligi:	1000	1000	1000	1000
2	To‘g‘ri otish uzoqligi: ko‘kraksimon nishon bo‘yicha, *m* yugurayotgan nishon bo‘yicha, *m*	 350 525	 365 540	 440 625	 400 650
3	Otish sur’ati, *otish/minut*	600	600	600	600
4	Jangovar tez otish, *otish/minut* – bittalab otganda: – uzluksiz otganda:	 40 100	 50 150	 40 100	 50 150
5	O‘qning boshlang‘ich tezligi, *m/s*	715	745	900	960
6	O‘qning o‘ldirish xususiyati saqlanib qoladigan masofa, *m*	1500	1500	1350	1350
7	O‘qning uchish olisligi, *m*	3000	3000	3150	3150
8	Avtomat (pulemyot)ning og‘irligi: – o‘qlanmagan o‘qdon bilan, *kg* – o‘qlangan o‘qdon bilan, *kg*	 3,3 3,6	 5,3 5,6	 3,3 3,6	 5,0 5,46

9	O‘qdonning hajmi, *patron*	30	40	30	lenta (100 /200)
10	Kalibri, *mm*	7,62	7,62	5,45	5,45
11	Avtomatning uzunligi, *mm*: – nayza-pichoq biriktirilgan, qo‘ndoq yoyilgan – nayza-pichoqsiz va qo‘ndoq yoyilgan – bukilgan qo‘ndoq bilan	 1020 880 640	 – – –	 1089 940 700	 – 1060 845
12	Stvol uzunligi, *mm*	415	590	415	590
13	Stvol o‘yilgan qismining uzunligi, *mm*	369	546	372	549
14	O‘yiqlar soni, *dona*	4	4	4	4
15	Patronning og‘irligi, *g*	16,2	16,2	10,2	10,2
16	O‘qning og‘irligi, *g*	7,9	7,9	3,4	3,4
17	Porox zaryadining miqdori, *g*	1,6	1,6	1,6	1,6
18	NSPU pritselining og‘irligi, *kg*	2,2	2,2	2,2	2,2

Avtomatning uzluksiz ishlashi stvol kanalidan zatvor ramasining gaz porsheniga o‘tadigan porox gazlarining energiyasidan foydalanishga asoslangan.



Avtomatning asosiy qism va mexanizmlari: 1 – stvol, stvol qutisi, mo‘ljalga olish moslamasi, qo‘ndoq va pistolet dastachasi bilan; 2 – stvol qutisining qopqog‘i; 3 – zatvor ramasi gaz porsheni bilan; 4 – zatvor; 5 – qaytarish mexanizmi; 6 – gaz trubkasi (quvuri) stvol qoplamasi bilan; 7 – sevyo (stvolning ostki qoplamasi); 8 – zarba berish-o‘t ochish mexanizmi; 9 – o‘qdon; 10 – nayza-pichoq; 11 – penal (tozalash va moylash anjomlari uchun gilof); 12 – shompol.

Muhim!

AK-74 avtomatining otish samaradorligi AKMning samaradorligidan 1,2–1,6 marta yuqori.

AK-74 avtomatining “o‘t ochish quvvati”ni oshirish uchun 40 mm li stvol osti GP-25 granatomyoti bilan jihozlanadi.

Dunyoda birinchi avtomat 1913–1916-yillarda qurolsoz V. G. Fyodorov tomonidan yaratilgan.

Kalashnikovning dastaki (qo‘l) pulemyoti motoo‘qchi jangovar guruhining quroli hisoblanadi. U dushmanning jonli kuchlari va o‘q otish vositalarini yo‘q qilishga mo‘ljallangan. Kalashnikov qo‘l pulemyotining konstruktiv va ballistik ko‘rsatkichlari jadvalda keltirilgan (48–49-betlar). Uning va qismlarining ishlash prinsipi Kalashnikov avtomati va qismlarning ishlash prinsipi bilan bir xil.



5,45 mm Kalashnikov dastaki (qo‘l) pulemyoti (RPK)



7,62 mm Kalashnikov pulemyoti (PKM)

Pulemyotning stvoli avtomatning stvoliga nisbatan uzunroq. Bu o‘q boshlang‘ich tezligining ortishiga sababchi bo‘ladi, natijada to‘g‘ri otish uzoqligi ortadi.

Eslab qoling!

Kalashnikov avtomatlari va Kalashnikov dastaki (qo‘l) pulemyotlarining ko‘p qismlari birxillashtirilgan. Bu esa pulemyot ishlab chiqarishni osonlashtirgan va arzonlashtirgan.

Kalashnikovning dastaki (qo‘l) pulemyoti (RPK)da 1943-yil namunasidagi 7,62 mm li, RPK74 da esa 5,45 mm li patronlardan foydalaniladi. Jangovar patron o‘q, gilza, porox zaryadi va pistondan iborat.



Jangovar patron:

a) 7,62; x 39 mm;

b) 5,45 x 39 mm.



Jangovar patron tuzilishi:

1 – kapsyul;
2 – gilza;
3 – porox;
4 – o‘q.

1943-yil namunasidagi patronlar oddiy va maxsus maqsadli (yorishuvchi va zirhga qarshi-yondiradigan) o‘qlar bilan ishlab chiqariladi. Maxsus o‘qlarning bosh qismi ajralib turadigan rangga ega.

O‘qning vazifalari

- *Oddiy o‘q* dushmanning ochiqdagi hamda o‘q teshib o‘ta oladigan to‘siq ortidagi jonli kuchini yo‘q qilish uchun mo‘ljallangan.
- *Yorishuvchi (iz qoldiruvchi) o‘q* dushmanning jonli kuchini yo‘q qilish, o‘t ochishni to‘g‘rilash va nishonni ko‘rsatish uchun xizmat qiladi. Trasserning yorug‘ izi 800 m masofagacha uzoqlikdan ko‘rinib turadi. Yorishuvchi o‘qning bosh qismi yashil rangga bo‘yalgan bo‘ladi.
- *Zirhyorar-yondiruvchi o‘q* yonuvchi suyuqliklarni yondirib yuborish va yengil zirhlar ortiga yashiringan dushmanning jonli kuchini 300 m gacha bo‘lgan masofadan yo‘q qilish uchun xizmat qiladi.

Gilza patronning barcha qismlarini biriktirib turish, porox zaryadini tashqi ta’sirlaridan saqlashga xizmat qiladi. U porox zaryadini joylashtirish uchun korpus, o‘qni mahkamlovchi uchlik va tubdan iborat. Gilzaning tubida tashqi tomonidan chiqarib tashlovchi moslamani ilashtirish uchun halqasimon ariqcha qilingan.

Porox zaryadi o‘qqa harakatni uzatish uchun xizmat qilib, porox donachalaridan iborat bo‘ladi.

Kapsyul (piston) porox zaryadini o‘t oldirish uchun xizmat qiladi. U latun qalpoqcha, unga presslangan zarba tarkibi va zarba tarkibini to‘sib turuvchi folgali aylanadan iborat.

AK-74 avtomati va RPK-74 dastaki (qo'l) pulemyotlarida ishlatiladigan 5,45 mm li patronlar oddiy va yorishuvchi o'qlar bilan ishlab chiqariladi.

Yorishuvchi o'qlar bilan o't ochilganda, yorishayotgan o'qlarning iziga qarab, o'qchining joylashgan o'rni bilinib qoladi. Shuning uchun yorishuvchi o'q modernizatsiyalanib, o'q stvoldan uchib chiqqach, 50 m uzoqlashgandan boshlab yorishadigan qilingan.

Savol va topshiriqlar

1. Kalashnikov avtomati va pulemyotining vazifalarini aytib bering.
2. Kalashnikov avtomati va pulemyotining ballistik hamda konstruktiv ko'rsatkichlarini aytib bering.
3. Patron qanday qismlardan iborat?
4. Kalashnikov avtomati va pulemyotining vazifalari hamda ballistik va konstruktiv ko'rsatkichlarini yod oling.
5. Qurol-yarog' va o'q-dorilardan foydalanish bo'yicha infografik taqdimot tayyorlang.
6. AK-74 avtomatida qaysi patrondan foydalangan bo'lar edingiz:
a) 5,45×39; b) 7,62×39; d) 5,45×7,62; Tanlovingizni asoslab bering.

2-mashg'ulot. Avtomatning asosiy qism va mexanizmlari, ularning vazifalari. Kalashnikov avtomatini noto'liq qismlarga ajratish va qayta yig'ish tartibi

Kalashnikov avtomati tuzilishi jihatidan sodda, yuqori darajada jangovar va ishlatishda qulay sifatlarga ega. Avtomatdan samarali foydalana olish uchun uning moddiy qismlari, vazifalari, tuzilishi va ishlash usullarini yaxshi bilish lozim.

O'quv faoliyati natijalari:



- Avtomatning asosiy qism va mexanizmlari, vazifalarini biladi hamda farqlay oladi.
- Kalashnikov avtomatini noto'liq qismlarga ajratish va qayta yig'ish tartibini bajaradi.

Tayanch so'zlar:

stvol, stvol kalibri, stvol qutisi, zatvor, nishonga olish moslamasi, to'liq va noto'liq qismlarga ajratish.

Bilasizmi?

1. Sizningcha, avtomat qanday tartibda ishlaydi?
2. O'qotar qurollarni qismlarga ajratishdan maqsad nima deb o'ylaysiz?

Stvol o‘qqa yo‘nalish berish uchun mo‘ljallangan. Stvol ichida chapdan yuqorilab, o‘ngga yo‘nalgan to‘rtta yo‘niqqa ega. Yo‘niqlar o‘qqa aylanma harakat berish uchun xizmat qiladi. Yo‘niqlar orasidagi oraliqlarga *maydon* deyiladi. Ikkita qarama-qarshi maydonlar orasidagi masofaga *stvol kalibri* deyiladi.

Stvol kanalining boshlang‘ich qismi silliq bo‘lib, gilzaning shakliga ega. Stvolning bu qismiga *patrondon* deyiladi. Patrondondan stvolning o‘yiqlik qismiga o‘tish joyiga *o‘qning kirish qismi* deyiladi.

Stvolning uch qismi tashqi tomondan rezba, mushkaning asosi, gaz kamerasi, birlashtiruvchi mufta va pritsel kolodkasiga ega. Gaz kamerasi stvol kanali bilan gaz o‘tuvchi teshik orqali bog‘lanadi.



Stvol: *a) umumiy ko‘rinishi; b) o‘q kiradigan qismi kesimda; d) stvolning ko‘ndalang kesimi; 1 – pritsel kolodkasi; 2 – birlashtiruvchi mufta; 3 – gaz kamerasi; 4 – gaz o‘tuvchi teshikcha; 5 – mushkaning asosi; 6 – rezba; 7 – patrondon; 8 – stvol shpilkasi uchun chuqurcha; 9 – o‘qning kirish joyi; 10 – kesilgan qism; 11 – maydon; 12 – o‘yiqlar.*



Tormoz-kompensator



Nishonga olish moslamasi

Stvol uchi tormoz-kompensatori otish paytida o‘qlar sochilib ketmasligi, otish qiyaligini oshirish va turtish energiyasini kamaytirish uchun xizmat qiladi.



Stvol qutisi



Stvol qutisining qopqog‘i

Stvol qutisi avtomatning qism va mexanizmlarini birlashtirish, stvol kanalini zatvor bilan yopilishini ta’minlash va zatvorni mahkamlash uchun xizmat qiladi.

Stvol qutisining qopqog‘i stvol qutisiga joylashgan qism va mexanizmlarni ifloslanishdan saqlashga mo‘ljallangan.

Pritsel kolodka, plastinkasimon prujina, planka va xomutchadan tashkil topgan.

Pritsel plankasi mo‘ljallash uchun markazi o‘yiqli qirraga hamda xomutchani o‘rnatilgan holatda prujinali qisgich yordamida ushlab turish uchun kesimlarga ega. Pritsel plankasi 1 dan 10 gacha bo‘laklarga bo‘lingan va unga kirillcha **П** harfi yozilgan shkala chizilgan. Shkalaning har bir raqami 100 m masofani ifodalaydi. **П** harfi pritselning doimiy o‘rnatilganini anglatadi va pritselning 3 raqamiga mos keladi.

Tunda otish uchun tungi pritsellardan foydalaniladi.

Mushka asosga mahkamlangan polozokka burab qotiriladi.

Qo‘ndoq va pistolet dastasi avtomatdan otishda qulaylikni ta’minlab beradi.

Zatvor ramasi gaz porsheni bilan zatvorni zarba beruvchi-tushiruvchi tepki mexanizmni harakatga keltirish uchun mo‘ljallangan.



Zatvor ramasi gaz porsheni bilan



Zatvor

Zatvor patronni patrondonga joylashtirish, stvol kanalini yopish, kapsyul (piston)ni o‘t oldirish va gilza (patron)ni patrondondan chiqarib tashlash uchun xizmat qiladi.

Qaytaruvchi mexanizm zatvor ramasini zatvor bilan birgalikda oldingi holatga qaytarish uchun xizmat qiladi.

Qaytaruvchi mexanizm:

1 – qaytaruvchi prujina; 2 – yetaklovchi sterjen; 3 – harakatlanuvchi sterjen; 4 – mufta.





Gaz trubkasi (quvuri) stvol qoplamasi va gaz porsheni harakatini yo‘naltirib turish va otayotganda qo‘lni kuyishdan saqlash uchun xizmat qiladi.

Zarba berish-o‘t ochish mexanizmi tepkini jangovar vzvoddan yoki avtospusk vzvodidan tushirish, zarbdorga zarba berish, bittalab yoki uzluksiz otishni ta’minlash, otishni to‘xtatish va avtomatni saqlagichga qo‘yish uchun xizmat qiladi.



Zarba berish-o‘t ochish mexanizmi:

1 – ilmoq (tepki); 2 – jangovar prujina; 3 – tushiruvchi ilmoqcha (tepki); 4 – bittalab o‘t ochish sheptalosi; 5 – bittalab o‘t ochish sheptalosi prujinasi; 6 – avtospusk; 7 – avtospusk prujinasi; 8 – ilmoq sekinlashtiruvchisi; 9 – ilmoq sekinlashtiruvchisining prujinasi; 10 – o‘tkazgich (perevodchik); 11 – o‘qlar.

Sevyo (stvolning ostki qoplamasi) avtomat bilan harakat qilganda qulay bo‘lish va qo‘lni kuyishdan saqlash uchun xizmat qiladi.



Sevyo:
1 – barmoqlar uchun tayanch; 2 – metall prokladka; 3 – kesim; 4 – bo‘rtma.



O‘qdon:
1 – korpus; 2 – qopqoq; 3 – taqaluvchi planka; 4 – prujina; 5 – uzatuvchi; 6 – tayanch bo‘rtmasi.

O‘qdon patronlarni joylashtirish hamda ularni stvol qutisiga uzatish uchun xizmat qiladi.

Nayza-pichoq hujumga o‘tishdan oldin avtomatga biriktiriladi va qo‘l jangida dushmanga jiddiy jarohat yetkazish uchun xizmat qiladi. Shuningdek, u pichoq, arra (metallni aralash uchun) hamda qaychi (simlarni qirqish uchun) sifatida ishlatilishi ham mumkin.



AK nayza-pichog‘i



Nayza-pichoqning qini

Qin nayza-pichoqni bel kamarida olib yurish uchun xizmat qiladi. Qin, zarurat tug‘ilganda, nayza-pichoq bilan birgalikda qaychi sifatida simlarni qirqishda ishlatilishi mumkin.

Avtomatni qismlarga ajratish va qayta yig‘ish

Kalashnikov avtomatni qismlarga ajratish va yig‘ish stol yoki toza to‘shalmada o‘tkaziladi. Qism va mexanizmlar ajratish tartibida joylashtiriladi.

Ularga ehtiyotkorlik bilan muomala qilish zarur. Ularni aralashtirib tashlash, ularga ortiqcha kuch ishlatish, qattiq zarba berish mumkin emas.

Muhim!

Kalashnikov avtomati (pulemyoti) to‘liq va noto‘liq tarzda qismlarga ajratilishi mumkin.

U tozalash, moylash va ko‘zdan kechirish uchun noto‘liq tarzda qismlarga ajratiladi.

O‘ta kirlaganda, yomg‘ir, qor yoki qum ostida qolganda hamda ta’mirlash uchun to‘la tarzda qismlarga ajratiladi.

Qo‘shinlarda avtomat (pulemyot)ni faqat noto‘liq qismlarga ajratishga ruxsat etiladi. To‘liq qismlarga ajratish harbiy qism ustaxonasida harbiy qurol-aslahani ta’mirlovchi usta tomonidan amalga oshiriladi.

Kalashnikov avtomatini noto‘liq qismlarga ajratish tartibi



1. O‘qdon ajratiladi. Chap qo‘l bilan avtomatni qo‘ndoq bo‘yni yoki sevyodan ushlab, o‘ng qo‘l bilan o‘qdon to‘liq ushlanadi, o‘ng qo‘lning bosh barmog‘i bilan ilgich eziladi, o‘qdonning quyi qismi oldinga itariladi va o‘qdon ajratiladi. Shundan so‘ng, patrondonda patron bor yoki yo‘qligi tekshiriladi. Buning uchun o‘tkazgich (perevodchik) pastga o‘tkaziladi, zatvor ramasining dastachasini orqaga tortib, patrondon ko‘zdan kechiriladi. So‘ng zatvor ramasining dastachasi qo‘yib yuboriladi va tepki jangovar vzvoddan tushiriladi.



2. Penal sug‘urib olinadi. O‘ng qo‘l barmog‘i bilan qo‘ndoq uyasining qopqog‘ini shunday ochish kerakki, bunda prujinaning ta’siri ostida penal uyasidan chiqa olsin. Qo‘ndog‘i buklanadigan avtomatlar penali o‘qdonlar solinadigan sumkaning cho‘ntagida olib yuriladi.



3. Shompol ajratiladi. Shompolning oxiri – uning boshchasi stvoldan mushkaning asosidagi tayanchdan chiqadigan darajada tortiladi va shompol tashqariga sug‘uriladi.



4. Stvol uchidagi tormoz-kompensator ajratiladi. Buning uchun otvyortka yordamida yoki ko‘rsatkich barmoq tirnog‘i bilan stvol uchidagi tormoz-kompensator fiksatori cho‘ktiriladi. Tormoz-kompensator soat mili yo‘nalishiga teskari yo‘nalishda buraladi.



5. Stvol qutisining qopqog‘i ajratiladi. Chap qo‘l bilan qo‘ndoq bo‘ynidan ushlanadi, shu qo‘lning bosh barmog‘i bilan qaytaruvchi mexanizmning yo‘naltiruvchi sterjeni bo‘rtmasiga eziladi, o‘ng qo‘l bilan stvol qutisi qopqog‘ining orqa qismi tepaga ko‘tariladi va qopqoq ajratiladi.



6. Qaytarish mexanizmi ajratiladi. Avtomatni chap qo‘l bilan qo‘ndoq bo‘ynidan ushlab, o‘ng qo‘l bilan qaytaruvchi mexanizmning sterjeni uning ort qismi stvol qutisidagi o‘z joyidan chiqquncha oldinga itariladi; yo‘naltiruvchi sterjenning orqa qismi tepaga ko‘tariladi va qaytaruvchi mexanizm zatvor ramasining kanalidan sug‘urilib olinadi.



7. Zatvor ramasi (zatvor bilan) ajratiladi. Avtomatni chap qo‘lda ushlashda davom etib, zatvor ramasi zatvor bilan birgalikda tepaga ko‘tariladi va zatvor ajratiladi.



8. Zatvor ramasidan zatvor ajratiladi. Zatvor ramasi chap qo‘lda zatvordan tepaga qaratgan holda ushlanadi. O‘ng qo‘l bilan zatvor orqaga suriladi, uni shunday burash kerakki, zatvorning yetaklovchi bo‘rtmasi zatvor ramasining figurali kesimidan chiqishi zarur, so‘ngra zatvor oldinga chiqariladi.



9. Gaz trubkasi (quvuri) stvol qoplamasi bilan ajratiladi. Avtomatni chap qo‘l bilan ushlab, o‘ng qo‘lda penal yordamida gaz trubkasi zamikateli vertikal holatgacha buraladi va gaz trubkasi gaz kamerasi patrubkasidan olinadi.

Eslab qoling!

№13-normativni bajarish (AK-74 avtomatini noto‘liq qismlarga ajratish uchun) vaqtlar ko‘rsatkichi va baholar:

A’lo	Yaxshi	Qoniqarli
13 soniya	14 soniya	17 soniya

№14-normativni bajarish uchun (AK-74 avtomatini noto‘liq qismlarga ajratilgandan so‘ng qayta yig‘ish uchun) vaqtlar ko‘rsatkichi va baholar:

A’lo	Yaxshi	Qoniqarli
23 soniya	25 soniya	30 soniya

Kalashnikov avtomati qismlarini qayta yig‘ish

1. Gaz trubkasi (stvol qoplamasi bilan) biriktiriladi. Avtomatni chap qo‘lda ushlagan holda, o‘ng qo‘l bilan gaz kamerasi patrubkasining oldingi uchi gaz kamerasi patrubkasiga suriladi, gaz trubkasining orqa qismi stvolga eziladi va zamikatel o‘ziga buraladi (toki uning fiksatori pritsel kolodkasidagi chuqurchaga kirguncha).

2. Zatvor zatvor ramasiga biriktiriladi. Chap qo‘lga zatvor, o‘ng qo‘lga uning ramasi olinadi va u silindrik qismi bilan ramaning kanaliga solinadi; uni shunday burash kerakki, yetaklovchi bo‘rtmasi zatvor ramasining figurali kesimiga kirsin, so‘ngra zatvor oldinga itariladi.

3. Zatvor ramasi zatvor bilan stvol qutisiga biriktiriladi. Chap qo‘l bilan qo‘ndoq bo‘ynidan ushlanadi, bunda bosh barmoq zatvorni ezib turishi, zatvor esa oldingi holatda bo‘lishi zarur. Gaz porsheni pritsel kolodkasi bo‘shlig‘iga kirgiziladi va stvol qutisining bukilgan qirralari zatvor ramasining pazlari (o‘yiqlari)ga kirgunga qadar oldinga suriladi, u ko‘p kuch ishlatmasdan stvol qutisiga siqiladi va oldinga suriladi.

4. Qaytarish mexanizmi biriktiriladi. O‘ng qo‘l bilan qaytaruvchi mexanizm zatvor ramasi kanaliga kirgiziladi; qaytaruvchi prujinani siqib, sterjen oldinga itariladi, sterjenning orqa qismi (tovoni) pastroqqa tushirilib, stvol qutisining bo‘ylama paziga kirgiziladi.

5. Stvol qutisining qopqog‘i biriktiriladi. Stvol qutisining qopqog‘i old qismi bilan pritsel kolodkasidagi yarim aylana kesimga qo‘yiladi; qopqoqning ortki qismi o‘ng qo‘lning kafti bilan oldinga va pastroqqa eziladi, bunda yetaklovchi sterjenning bo‘rtmasi qopqoqning teshigiga kirishi lozim.

6. Tepki jangovar vzvoddan tushiriladi va saqlagichga qo‘yiladi. Tushiruvchi ilmoqcha (tepki)ga eziladi va o‘tkazgich tepaga taqalib qolguncha ko‘tariladi.

7. Tormoz-kompensator biriktiriladi.

8. Shompol biriktiriladi.

9. Penal qo‘ndoqning uyasiga solinadi. Anjomlar penal ichiga solinib, qopqog‘i yopiladi, penal tag tomoni bilan qo‘ndoqning uyasiga solinadi va uning qopqog‘i yopiladigan tarzda uyaga cho‘ktiriladi. Qo‘ndog‘i buklanadigan avtomatlarda penal o‘qdonlar solinadigan sumkaning cho‘ntagiga solinadi.

10. O‘qdon avtomatga biriktiriladi. Chap qo‘l bilan avtomatning sevyosi yoki qo‘ndoq bo‘ynidan ushlab, o‘ng qo‘l bilan o‘qdon ilgichi stvol qutisining tuynugiga kirgiziladi va o‘qdon o‘zi tomonga yopqichi o‘qdonning tayanch bo‘rtmasiga chiqib olguncha tortiladi.

Avtomatni yig‘ishda uning qismlaridagi raqamlar stvol qutisidagi raqamlarga taqqoslanadi.

Savol va topshiriqlar

1. Qurol-yarog‘ va o‘q-dorilar bilan ishlaganda qanday xavfsizlik choralariga amal qilish talab etiladi?
2. O‘qotar qurollarining vazifasi nimalardan iborat?
3. Jangovar patronlar qancha va qanday qismlardan iborat?
4. Kalashnikov avtomatining asosiy qism va mexanizmlarini aytib bera olasizmi?
5. Avtomatning noto‘liq qismlarga ajratish va qayta yig‘ish tartibi qanday tartibda amalga oshiriladi?

Avtomatning asosiy qism va mexanizmlari	**Avtomatning asosiy qism va mexanizmlari vazifalari**
1 – stvol stvol qutisi, nishonga olish moslamasi, qo‘ndoq bilan.	
2 – stvol qutisining qopqog‘i	
3 – zatvor ramasi gaz porsheni bilan	
4 – zatvor	
5 – qaytarish mexanizmi	
6 – gaz trubkasi (quvuri) stvol qoplamasi bilan	
7 – sevyo (stvolning ostki qoplamasi)	
8 – zarba berish-o‘t ochish mexanizmi	
9 – o‘qdon	
10 – nayza-pichoq	
11 – penal (tozalash va moylash anjomlari uchun g‘ilof)	
12 – shompol	

III.2. QUROLDAN OTISH ASOSLARI VA QOIDALARI

1-mashg‘ulot. Nazariy. Otish hodisasi va uning davrlari. O‘qning boshlang‘ich tezligi va uning otishga ta’siri. Qurolning ortga urishi (tepishi) va o‘qning uchish burchagi

O‘quv faoliyati natijalari:

- Otish hodisasi va uning davrlarini aytib beradi.
- O‘qning boshlang‘ich tezligi va uning otishga ta’sirini biladi.
- Qurolning ortga urishi (tepishi) va o‘qning uchish burchagini tushunadi.



Quroldan otishning asoslari o‘z ichiga otish paytida yuz beradigan jarayonlarni tushunish uchun zarur bilim, otish usul va qoidalarini qamrab oladi.

Otish qoidalariga otishga tayyorlanish va o‘t ochishlar kiradi.

Eslab qoling!

Otish deb, o‘qni porox zaryadining yonishida hosil bo‘lgan gazlar ta’sirida stvol kanalidan uchirib chiqarib tashlashga aytiladi.

Bilasizmi? Quroldan otish deganda nimani tushunasiz?

Tayanch tushunchalar

Otish – porox gazlari energiyasi ta’sirida o‘qni stvol kanalidan chiqarib tashlash.

Oqning boshlang‘ich tezligi – o‘qning stvol kanalini tark etayotgandagi tezligi.

Qurolning ortga urishi – qurolning o‘tish yo‘nalishiga qarama-qarshi harakatlanishi.

Uchish burchagi – nishonga mo‘ljallangan qurol stvoli kanali bo‘ylama o‘qining otishgacha bo‘lgan yo‘nalishi va shu bo‘ylama o‘qning snaryad (o‘q)ni stvol kanalidan uchib chiqayotganda hosil qiladigan burchagi.

Otish vaqtning juda qisqa oralig‘ida yuz beradi. Bunda katta hajmda gaz hosil bo‘ladi va ko‘p miqdorda issiqlik ajralib chiqadi. Porox juda katta energiyani hosil qiladi.

Quroldan otish quyidagicha amalga oshiriladi (tepki bosilganda quyidagilar yuz beradi):

1) piston (kapsyul) sindiriladi va alanga hosil bo‘ladi;

2) pistonning alangasi ta’sirida porox o‘t oladi;

3) porox zaryadi gazga aylanadi;

4) stvol kanalida yuqori bosim hosil bo‘ladi;

5) bosim kuchi ta’siri ostida o‘q stvol yo‘niqlariga urilib, aylanma harakat oladi va o‘zining bo‘ylama o‘qi atrofida aylanganicha stvol kanalidan uchib chiqadi.

O‘q boshlang‘ich holatidan 4–6 cm siljiganda gaz bosimi eng katta darajaga erishadi. Bu holatda porox gazlarining bosimi 2800–2900 kgs/cm² ga teng bo‘ladi. Lekin bosim pasaygani bilan o‘qning tezligi pasaymaydi, balki ortib boradi. Bunga sabab, o‘q bosimning eng yuqori davrida tezlanish olganidan so‘ng, gazlar pastroq darajada bo‘lsa-da o‘qqa bosim ko‘rsatishda davom etib, o‘qning harakatini tezlashtiradi.

Porox juda katta energiyani hosil qiladi. 1,6 gramm og‘irlikdagi porox zaryadi 7,9 gramm og‘irlikdagi o‘qni stvol kanalidan 715 m/soniya tezlikda quvib chiqib, uni 3000 m uzoqlikka uloqtira oladi.

Stvol kanalidagi o‘yiqlar chapdan o‘ngga yuqorilab yo‘nalgani uchun o‘qqa aylanma harakat beradi, porox esa yonishda davom etib, gazning miqdori va hajmini orttirib boradi.



Ichki ballistika. Gazlar bosimining o‘zgarishi

O‘qning ortidan stvol kanalidan oquvchi qizigan gazlar bir lahzada kengayib ketadi va havo bilan to‘qnashganda alanga va zarb to‘lqinini hosil qiladi. Zarb to‘lqini esa otishdagi ovozning manbayi hisoblanadi.



Avtomatikaning ishlash prinsipi:
1 – stvol; 2 – o‘q; 3 – stvol devoridagi teshikcha; 4 – o‘q ortidagi bo‘shliq; 5 – gaz kamerasi; 6 – gaz porsheni; 7 – gaz porsheniga o‘tayotgan porox gazlari; 8 – o‘qni stvol kanalidan quvib chiqarayotgan gazlar.

O‘q havoda uchishi uchun uni stvol kanalini tark etayotgandagi tezligi katta ahamiyatga ega. Bu tezlik o‘qni havoda uchishini xarakterlovchi kattalikdir. O‘qning stvol kanalini tark etayotgandagi tezligi *o‘qning boshlang‘ich tezligi* deb ataladi. Odatda, u V_0 deb belgilanadi va metr/soniyada (m/s) o‘lchanadi. O‘qning boshlang‘ich tezligi ortib borishi bilan, uning uchish uzoqligi, teshib o‘tish va o‘ldiruvchi ta’siri ortadi, shuningdek, uning uchishiga ta’sir etuvchi tashqi ta’sirlar pasayadi.

Eslab qoling!

O‘qning o‘ldiruvchi kuchi uning nishon bilan to‘qnashayotgandagi energiyasi bilan xarakterlanadi va kilogram-metrda (kgm) o‘lchanadi. O‘qning stvol uchidagi harakatining energiyasiga *boshlang‘ich energiya* deyiladi. Avtomatdan otishda o‘qning boshlang‘ich energiyasi 29 kgm ga teng. Odamni jarohatlab, safdan chiqarish uchun 8 kgm ga teng energiya kifoya qiladi.

Boshlang‘ich tezlikning kattaligi stvolning uzunligi, o‘qning vazni va zaryadi (porox) miqdoriga bog‘liq. Stvol qanchalik uzun bo‘lsa (ma’lum uzunlikkacha), o‘qqa porox gazlari shunchalik ko‘proq ta’sir etadi va boshlang‘ich tezlik shunchalik katta bo‘ladi.

O‘qning teshib o‘tuvchi ta’siri ma’lum zichlikdagi to‘siqqa kirib borish chuqurligi bilan xarakterlanadi. O‘qning teshib o‘tish kuchi uning to‘siqqa kelib urilgandagi tezligi, og‘irligi, shakli va konstruksiyasiga hamda uchrashish burchagiga bog‘liq.

O‘q otish jarayonida qurolning ortga urishi. Stvol kanalidagi gaz bosimi hamma tomonga bir xil kuch bilan ta’sir ko‘rsatadi. Otish amalga oshirilganda bu bosim nafaqat o‘qni old tomonga haydaydi, balki qurolni ortga qaratib ham turtadi. Otish paytidagi qurolning ortga turtishi *ortga urish* deb ataladi. Qurolning ortga urishi (tepishi) qo‘l, ko‘krak va yelka bilan his qilinadi.

Stvol qaltirashi, qurolning turtishi va boshqa sabablar stvol kanali simmetriya o‘qining otishgacha bo‘lgan va o‘q otilgandagi holatlarining orasidagi burchakning paydo bo‘lishiga olib keladi. Bu burchakka *uchish burchagi* deyiladi.



Savol va topshiriqlar

1. Otish nima?
2. Otish qanday yuz beradi?
3. O‘qning boshlang‘ich tezligi nima?
4. O‘qning boshlang‘ich tezligi otishga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
5. O‘qning o‘ldirish va teshib o‘tish xususiyatlari nimalarga bog‘liq?
6. O‘qning o‘ldirish kuchi ma’lum masofagacha saqlanib qoladi deyish to‘g‘rimi?
7. Nima uchun turli qurollarning ortga urish kuchlari har xil bo‘ladi?

2-mashg‘ulot. Nazariy. O‘q trayektoriyasining hosil bo‘lishi. To‘g‘ri otish. To‘silgan, o‘q tegmaydigan va tegadigan bo‘shliqlar hamda ularning amaliy ahamiyati

O‘quv faoliyati natijalari:



- O‘q trayektoriyasining hosil bo‘lishini tushunadi.
- To‘g‘ri otish mohiyatini anglaydi va tushunadi.
- To‘silgan, o‘q tegmaydigan va tegadigan bo‘shliqlar hamda ularning amaliy ahamiyatini tushunadi hamda biladi.

Bilasizmi?

1. Trayektoriya nima?
2. Quroldan uzilgan o‘q belgilangan mo‘ljalga to‘g‘ri tegishi uchun nimalarga e’tibor qaratish kerak?

Tayanch tushunchalar

O‘qning trayektoriyasi – otilgan o‘qning og‘irlik markazi havoda chizadigan egri chiziq.

To‘g‘ri otish – o‘qning uchish trayektoriyasi o‘zining butun davomiyligida nishondan balandga ko‘tarilmaydigan otish.

Tashlash chizig‘i – stvol kanali o‘qining otish paytidagi davomiyligi ko‘rinishidagi to‘g‘ri chiziq.

To‘silgan bo‘shliq – to‘siq ortidagi o‘q tegmaydigan, to‘siqning cho‘qqisidan uchrashish nuqtasigacha bo‘lgan bo‘shliq.

O‘q uchganda ikkita: og‘irlik va havoning qarshilik kuchi ta’siri ostida harakatlanadi. Og‘irlik kuchi o‘qni doimo pasayishga majbur qiladi, havoning qarshilik kuchi esa o‘qning harakat tezligini to‘xtovsiz sekinlashtiradi. Bu kuchlarning ta’siri natijasida o‘qning uchish tezligi kamayib boradi, uchish trayektoriyasi esa egri chiziq shaklini oladi. O‘q uchishi davomida havo zarrachalari bilan to‘qnashadi va ularni tebranishga majbur qiladi. Natijada o‘qning oldida havo zichlashadi va tovush to‘lqinlarini hosil qiladi. Bunday holat o‘qning uchishida o‘ziga xos tovush chiqishiga sabab bo‘ladi.

Eslab qoling!

Ballistika (yun. *ballo* – irg‘itaman) artilleriya snaryadlari, boshqarilmaydigan raketalar, mina, bomba, o‘q va boshqalarning otilgan vaqtdagi harakatini o‘rganadigan fan. Ballistika ichki va tashqi turlarga bo‘linadi.

Kalashnikov avtomati o‘qining quvur kanalidan uchib chiqishdagi aylanish tezligi bir soniyada 3000 martani tashkil etadi.

Har qanday o‘qotar quroldan otish texnikasini o‘zlashtirish uchun ballistika qonunlarini o‘zlashtirish lozim. Tovush to‘lqinlari o‘qning tezligiga nisbatan tezroq tarqaladi. Agar o‘qning uchish tezligi tovush tezligidan yuqori bo‘lsa, bu to‘lqinlarning o‘zaro bir-biriga urilishi natijasida kuchli zichlangan havo to‘lqini – *ballistik to‘lqin* hosil bo‘ladi. O‘qning tovush tezligidan tez uchishida havoning qarshilik ko‘rsatish kuchining sababchisi o‘qning bosh qismi oldida zichlangan havoning vujudga kelishidir. Shuning uchun, o‘qning oldingi qismini o‘tkir uchli tarzda yaratgan ma’qul. Zamonaviy o‘qning turli shakllarda chiqarilishi havo qarshiligini kamaytirish zaruriyatidan kelib chiqadi.

Trayektoriyaning hosil bo‘lishi

Trayektoriyaning shakli ko‘tarilish burchagining kattaligiga bog‘liq. Ko‘tarilish burchagi oshirilishi bilan trayektoriya balandligi va o‘qning to‘liq gorizontal uchish uzoqligi ham oshadi. Otish vaqtida qurolning stvoli aniq bir holatni egallaydi. Otish vaqtidagi stvol kanalining davomi ko‘rinishida bo‘lgan to‘g‘ri chiziqqa *tashlash chizig‘i* deyiladi.

O‘q havoda harakat qilayotganda og‘irlik kuchi va havoning qarshilik kuchlarining ta’siriga uchraydi. Og‘irlik kuchi pastga yo‘nalgan bo‘lib, o‘qni tashlash chizig‘idan uzluksiz ravishda pastlashga majbur etadi. Havoning qarshilik kuchi esa o‘qning harakat yo‘nalishiga teskari yo‘nalgan bo‘lib, uzliksiz ravishda o‘qni o‘z harakatini yo‘qotishga majbur etadi. O‘q mana shu ikkala kuchning ta’siri ostida tashlash chizig‘ida to‘g‘ri chiziq bo‘ylab emas, balki undan pastga egri chiziq bo‘ylab harakat qiladi.



O‘q trayektoriyasining hosil bo‘lishi

To‘g‘ri otish va uning amaliy ahamiyati

O‘q o‘zining butun uchish trayektoriyasi davomida nishonga nisbatan balandga ko‘tarilmasa, bunday otishga *to‘g‘ri otish* deyiladi.

Jang davrida to‘g‘ri otish masofasi chegarasida o‘q otishda mo‘ljalni o‘zgartirmasdan turib, balandlik bo‘yicha mo‘ljalga olish nuqtasi esa odatda, nishonning pastki chekkasidan, ya’ni quyi qismi bo‘yicha tanlanadi.



To‘g‘ri otish

To‘g‘ri otishning uzoqligi nishonning balandligi va trayektoriyaning yerbag‘irlaganiga bog‘liq. Nishon qanchalik baland va trayektoriya qanchalik yerbag‘irlagan bo‘lsa, to‘g‘ri otish uzoqligi shunchalik katta bo‘ladi. O‘z navbatida, pritselni bir marta o‘rnatish bilan nishonni yo‘q qila olish masofasi ham shunchalik katta bo‘ladi. Bu esa nishonlarni yo‘q qilishni tezlatish imkoniyatini beradi.

To‘siq ortidagi o‘q tegmaydigan, to‘siqning cho‘qqisidan uchrashish nuqtasigacha bo‘lgan bo‘shliqqa *to‘silgan bo‘shliq* deyiladi.



To‘silgan, o‘lik va tegadigan bo‘shliq

To‘silgan bo‘shliqning ushbu trayektoriya bo‘yicha nishonni yo‘q qilib bo‘lmaydigan qismiga *o‘lik bo‘shliq* deyiladi. To‘siq qanchalik baland, nishonning bo‘yi past va trayektoriya yerbag‘irlaganroq bo‘lsa, o‘lik bo‘shliq shunchalik katta bo‘ladi. To‘silgan va o‘lik bo‘shliqlardan dushmanning o‘qidan himoyalanish uchun foydalanish zarur.

To‘silgan bo‘shliqning nishon yo‘q qilina oladigan qismiga *tegadigan bo‘shliq* deyiladi. Tegadigan bo‘shliqning kattaligi nishonning balandligi, trayektoriyaning yerbag‘irlaganligi va tushish burchagiga bog‘liq. Uning amaliy ahamyati shundaki, u nishongacha bo‘lgan masofani aniqlash va pritselni o‘sha masofaga moslab o‘rnatishdagi xatoni tuzatadi.

Savol va topshiriqlar

1. O‘q trayektoriasida egri chiziqlar qanday hosil bo‘ladi?
2. O‘q trayektoriyasining elementlarini aytib bering.
3. Mo‘ljallga o‘q to‘g‘ri yetib borish hodisasini izohlab bering.
4. O‘q otish trayektoriyasiga ta’sir qiluvchi omillarni sanab bering.

III.3. JOYDA TURIB VA HARAKAT PAYTIDA QO‘ZG‘ALMAS VA PAYDO BO‘LUVCHI NISHONLARGA O‘T OCHISH

1-mashg‘ulot. Mashg‘ulot o‘tkazishdagi xavfsizlik choralari. O‘qdonni patron bilan to‘ldirish. Tayanchni tayyorlash. Tayanchdan yotib otishga tayyorlanish. Otishni amalga oshirish. Otishni to‘xtatish. Qurolni o‘qsizlantirish

O‘quv faoliyati natijalari:



- Mashg‘ulot o‘tkazishdagi xavfsizlik choralarini aytib beradi.
- O‘qdonni patron bilan to‘ldirishni bajaradi.
- Tayanch tayyorlashni, tayanchdan yotib otishga tayyorlanishni biladi.
- Otishni amalga oshirishni biladi.
- Otishni to‘xtatish, qurolni o‘qsizlantirishni bajaradi.
- Kichik kalibrli hamda pnevmatik miltiqdan otish mashqlari shartlarini bajaradi

Bilasizmi?

1. O‘q otish bo‘yicha qanday xavfsizlik qoidalarini bilasiz?
2. Kishik kalibrli (TOZ-8) hamda pnevmatik miltiqdan o‘q otganda nimalarga e’tibor qaratish lozim?

Tayanch tushunchalar

O‘qdon patronlarni joylashtirish va ularni stvol qutisiga uzatib berish uchun xizmat qiladi.

O‘tkazgich o‘qdonni patron bilan to‘ldirishni tezlatish uchun ishlatiladi.

Qurolni ko‘rikdan o‘tkazish o‘z ichiga otish mashg‘ulotidan so‘ng qurol o‘qsizlantirilib, o‘qdon olingach, stvol patrondoni va o‘qdonni ko‘zdan kechirishni qamrab oladi.

Avtomatni ko‘zdan kechirish, o‘qdonni o‘q bilan to‘ldirish va o‘qdonni bo‘shatishda o‘ta ehtiyotkor bo‘lish, harakatlar ketma-ketligiga e’tibor berish lozim. Tepkini bosishdan avval stvolning uchi yuqoriga ko‘tarib turiladi. Avtomat o‘qlanmagan bo‘lsa ham, uni odamlar tomon o‘qtalish taqiqlanadi. Mashg‘ulotlar yakunlangandan so‘ng qurolning saqlagichga qo‘yilishi majburiy hisoblanadi.

O‘qdonni patron bilan to‘ldirish

O‘qdonni patron bilan to‘ldirish ikki usulda: faqat qo‘l yoki o‘tkazgich (perexodnik) yordamida amalga oshirilishi mumkin.



O‘qdonni patron bilan oddiy usulda qo‘l bilan to‘ldirish



O‘qdonni oboymadagi patron bilan to‘ldirish

O‘qdonni patron bilan to‘ldirish uchun o‘qdon chap qo‘l bilan og‘zini tepaga, bo‘rtik tomoni bilan chapga, o‘ng qo‘lda patronlar jimjiloqqa qaratilib, gilza ostki qismini bosh va ko‘rsatkich barmoqdardan teparoqqa chiqib turadigan qilib ushlanadi.

O‘qdon sal chapga og‘dirilib, patronlar bosh barmoq bilan eziladi va bittalab yon devorlarning bukigi ostida gilza tubi o‘qdonning ortki devoriga qilib joylanadi. O‘qdon patron bilan to‘ldirilgach, sumkaga solib qo‘yiladi.

Tayanchni tayyorlash. Tayanchdan yotib otishga tayyorlanish. Otishga to‘g‘ri tayyorgarlik ko‘rish avtomatning turg‘unligini ta’minlab beradi. O‘qchi gavdasini qulay va tabiiy tutishi mushaklarni zo‘riqtirmaydi hamda o‘q otishga to‘g‘ri tayyorlanishning asosiy sharti hisoblanadi.

Otish uchun eng qulay holat bu – yotgan holatda otishdir. Yotib otishda o‘qchining gavdasi va qo‘llari yerga mustahkam tiraladi va avtomatning turg‘unligini ta’minlaydi. Tayanchdan foydalanib, avtomat turg‘unligini yanada kuchaytirish mumkin. Odatda, tayanch sifatida chim, qirindi yoki qum to‘ldirilgan qopchalardan foydalaniladi.

Otish uchun tayyorlanish yotib otish uchun holatni qabul qilish va o‘qlashni o‘z ichiga oladi. O‘quv mashg‘ulotlarida otishga tayyorlanish uchun buyruq alohida berilishi mumkin. Masalan: *“Otish marrasiga, qadam – BOS”* va so‘ngra *“O‘QLA!”*. Agar zarur bo‘lsa, *“O‘QLA!”* buyrug‘idan avval otish uchun holat ko‘rsatiladi. Masalan: *“Yotib – O‘QLA!”*.



Yotib otish uchun holatni qabul qilish: *a* va *b* – harakatlar ketma-ketligi.

Yotib otish uchun holatni qabul qilishda, o‘ng qo‘lni tepaga ko‘tarib, avtomat yelkadan olinadi va chap qo‘lga olinib, stvol qutisidan ushlanadi. So‘ng avtomat o‘ng qo‘lga olinadi, stvol nakladkasi va sevyodan stvol uchini oldinga qaratib ushlanadi, shu bilan bir vaqtda o‘ng oyoq bilan oldinga va sal o‘ngroqqa bir qadam tashlanadi. Oldinga engashilib, chap tizzaga tushiriladi va chap qo‘lni oldinga, barmoqlarini o‘ngga qaratib qo‘yiladi (69-bet, *a*); so‘ngra chap oyoqning son qismiga va chap qo‘lning tirsagiga suyanib, chap yon bilan yotiladi va tez qoringa ag‘darilib olinadi, oyoqlar uchlari tashqariga qilingan holda yengilgina ochiladi, bunda avtomat sevyosi bilan chap qo‘l kaftiga qo‘yiladi (69-bet, *b*).

Otish uchun holat qabul qilingach, qurolni o‘qlash amalga oshiriladi. Bu otishga tayyorlanishning ikkinchi elementi hisoblanadi.

Avtomatni o‘qlash uchun, u chap qo‘l bilan sevyodan ushlanadi, o‘ng qo‘l bilan stvol qutisining tuynugiga o‘qdon ilgichi bilan solinadi va u yopqich bo‘rtmasiga sakrab chiqquncha o‘ziga tortiladi, o‘tkazgich uzluksiz o‘t ochish (AV)ga qo‘yiladi, o‘ng qo‘l bilan zatvor ramasi dastachasidan ushlagan holda ortga tortib, qo‘yib yuboriladi. Agar zudlik bilan o‘t ochishning zarurati bo‘lmasa yoki *“O‘t och!”* buyrug‘i berilmasa, avtomat saqlagichga qo‘yiladi va o‘ng qo‘l pistolet dastasiga olinadi.

Otishni amalga oshirish. Qo‘yilgan vazifa va holatga qarab, o‘t ochish mustaqil ravishda yoki komandirning buyrug‘i bo‘yicha amalga oshiriladi.

Otishni amalga oshirish pritselni o‘rnatish, o‘tkazgichni zarur o‘t ochish turiga qo‘yish, avtomatni tutish, mo‘ljalga olish, tepkini ezish va otish chog‘ida avtomatni ushlab turishni o‘z ichiga oladi.

Pritselni moslash uchun askar avtomatni o‘ziga yaqinlashtiradi, o‘ng qo‘lining katta va ko‘rsatkich barmoqlari bilan xomutcha yopqichini siqadi va xomutchani pritsel plankasi bo‘ylab kerakli raqamgacha suradi.



O‘tkazgich holatlari

Avtomatni saqlagich bilan kerakli o‘t ochish turiga o‘tkazish uchun o‘ng qo‘lning bosh barmog‘i bilan o‘tkazgich uzluksiz o‘t ochish (AB) yoki bittalab o‘t ochish (OD) holatiga qo‘yiladi.

Avtomatni to‘g‘ri tutib ushlash otuvchining gavdasi, qo‘llari va boshining holatiga, avtomatning turg‘unligi esa uni to‘g‘ri tutishga bog‘liq.

Avtomatni to‘g‘ri tutib ushlash (qo‘ndoqni yelkaga o‘rnatish) uchun chap qo‘l bilan sevyo yoki o‘qdondan, o‘ng qo‘l bilan esa pistolet dastasidan ushlanadi va nishonni ko‘zdan qochirmay, avtomatning qo‘ndog‘i yelkaga to‘la o‘rnashganligi sezilguncha taqaladi, o‘ng qo‘l ko‘rsatkich barmog‘ining birinchi bo‘g‘ini tepkiga qo‘yiladi (*a* va *b*).



Otish paytida avtomatni ushlash:
a) chap qo‘l bilan sevyodan; b) chap qo‘l bilan o‘qdondan.

Bosh ozroq miqdorda oldinga engashtiriladi va bo‘yinni zo‘riqtirmasdan, o‘ng chakka qo‘ndoqqa yengilroq siqiladi. Bunda o‘ng ko‘z pritsel darajasida, undan 25–30 cm masofada yoki pritsel o‘yig‘i va mushkani doimo ochiq va bir xilda ko‘ra oladigan masofada bo‘lishi kerak.

Qo‘llarning tirsaklari ham to‘g‘ri holatni egallashi lozim. Chap qo‘l tirsagi avtomatning ostiga olib kiriladi, chunki u qurolning asosiy og‘irligini qabul qiladi va tayanch vazifasini o‘taydi. Agar chap qo‘l tirsagini avtomat ostiga olib kirishning imkoni bo‘lmasa, uni sal yonroqqa qo‘yish mumkin, lekin avtomatning bo‘ylama o‘qidan ko‘pi bilan 4 cm gacha.

Eslab qoling!

Otishni amalga oshirish pritselni o‘rnatish, o‘tkazgichni zarur o‘t ochish turiga qo‘yish, avtomatni qo‘ndoqlash, mo‘ljalga olish, tepkini bosish va otish chog‘ida avtomatni ushlab turish jarayonlarini o‘z ichiga oladi.

Yotgan holda otish qulay bo‘lishi uchun sevyo ostiga 20–25 cm balandlikda tayanch to‘shaladi.

Mo‘ljallash – avtomatchining bo‘shliqda qurol stvoli kanaliga o‘qni zarur yo‘nalish va zarur masofaga otishni ta’minlab berishga mo‘ljallangan harakatlari yig‘indisi. Bu harakatlar pritsel va mushka yordamida bajariladi.

Mo‘ljallash uchun chap ko‘z qisiladi, o‘ng ko‘z bilan pritsel o‘yig‘i orqali mushkaga qaraladi. Bunda mushka o‘yiqning qoq o‘rtasida, uning cho‘qqisi pritsel plankasi qirrasi bilan bir xil bo‘lishi kerak.

Bunga tekis *mushka* deyiladi va uni ushlab turish zarur.



Otayotganda tayanchdan foydalanish: a) g‘ishtdan; b) to‘siqdan.

So‘ngra nafasni chiqarib tashlab, tekis mushka mo‘ljallash nuqtasiga olib boriladi. Bir vaqtda tepki bosiladi.

Otish aniqligini pasaytirib yubormaslik uchun uzoq mo‘ljallash tavsiya etilmaydi. O‘t ochish biror sababga ko‘ra 10 soniyadan ko‘proqqa cho‘zilib ketsa, unda mo‘ljallashni to‘xtatish va ko‘zga 5–10 soniya dam berish zarur.

Tepkini bosish – otishni amalga oshirish texnikasining muhim mas’uliyatli elementlardan biri.

Tepkini bosish vaqtida nafasni to‘xtatish zarur. Agar bu vaqtda erkin nafas olinsa, qurol tebranadi, nafas olinganda, stvol pastga siljiydi, nafas chiqarmasa – tepaga siljiydi. Qurol 1–2 cm atrofida tebranadi, bu 100 m gacha otishda mo‘ljallash nuqtasidan o‘qlarni 1 m gacha tepaga va pastga og‘ib ketishiga olib keladi.

Tepkiga o‘ng qo‘l ko‘rsatkich barmog‘ining birinchi bo‘g‘inini qo‘yish va astalik bilan to‘g‘ri orqaga bosish zarur. Agar barmoqning 2-bo‘g‘ini qo‘yilsa, ezish orqaga chapga buriladi, natijada qurol ham chapga jilib ketadi.

Tepkini bosish uchun chap qo‘l bilan qurol sevyosi yoki o‘qdondan, o‘ng qo‘l bilan pistolet dastasidan ushlab, yelka tomonga tortiladi, nafasni to‘xtatib, tepkiga otish yuz berguncha eziladi.

Otishni to‘xtatish. Qurolni o‘qsizlantirish. Otishni to‘xtatish holatga qarab vaqtinchalik yoki to‘la bo‘lishi mumkin. Otishni vaqtinchalik to‘xtatish uchun *“TO‘XTA!”* yoki *“Otish to‘xtatilsin!”* buyruqlari beriladi.



O‘qchi nafas olayotganda yoki nafas chiqarayotganda qurolning harakatlanishi

Buyruqqa ko‘ra o‘qchi tushiruvchi tepkini bosishni to‘xtatadi va avtomatni saqlagichga qo‘yadi. Otishni to‘la to‘xtatish uchun “TO‘XTA!” buyrug‘idan so‘ng “O‘qsizlantir!” buyrug‘i beriladi. Bu buyruq bo‘yicha avtomat saqlagichga qo‘yiladi, pritsel esa **П** ga qo‘yiladi va avtomat o‘qlansizlantiriladi.

Avtomatni o‘qsizlantirish uchun o‘qdon ajiratiladi, avtomat saqlagichdan olinadi, zatvor ramasi sekinlik bilan ortga tortiladi, patrondondan patron chiqariladi va zatvor qo‘yib yuboriladi. Tepki bosiladi, avtomat saqlagichga qo‘yiladi va yerga yotqizib qo‘yiladi, patronlar o‘qdondan chiqarib olinadi.

Qurol o‘qsizlantirilgach, zarur bo‘lsa, *“Qurol – KO‘RIKKA!”* buyrug‘i bo‘yicha ko‘zdan kechiriladi. Bu komanda bo‘yicha: yotgan holda – o‘qdon ajratiladi va o‘qdon bo‘g‘zini o‘ziga qaratib yonga qo‘yiladi, avtomat saqlagichdan olinadi, zatvor ramasi ortga tortiladi va avtomat sal chapga buriladi; avtomat bilan turib “tasmaga” holatida – tik turib otish uchun tayyor holat qabul qilinadi, chap qo‘l bilan avtomatni pastdan – sevyodan ushlab, o‘ng qo‘l bilan o‘qdon ajratiladi va chap qo‘lga uzatgichi osmonga, shishgan tomoni o‘zidan nariga qaratib ushlanadi, chap qo‘l barmoqlari bilan o‘qdon sevyoga juftlanadi, so‘ngra avtomat saqlagichdan olinadi; zatvor ramasi ortga tortiladi va avtomat bir oz chapga buriladi.



O‘qdondan patronlarni chiqarish



Qurolni ko‘zdan kechirish

Savol va topshiriqlar

1. O‘q otish mashg‘ulotlaridagi xavfsizlik qoidalarini aytib bering.
2. Turgan joyda o‘t ochish usullarini ko‘rsatib bering.
3. Yotib otishda tayanchlar nima maqsadda qo‘llaniladi?
4. Otish qanday tartibda amalga oshiriladi?
5. O‘tishdan so‘ng qurolni ko‘rikdan o‘tkazish tartibini aytib bering.
6. Yotib otish uchun holatni qabul qilishni mashq qiling.
7. Quroldan otish asoslari va qoidalariga oid jarayon va elementlar ta’rifini ifodalang.

Quroldan otish asoslari va qoidalari	**Quroldan otish asoslari va qoidalariga oid jarayon va elementlar ta’rifi**
Otish hodisasi va uning davrlari	
O‘qning boshlang‘ich tezligi va uning otishga ta’siri	
Qurolning ortga urishi va o‘qning uchish burchagi	
O‘q trayektoriyasining hosil bo‘lishi	
To‘silgan, o‘q tegmaydigan va tegadigan bo‘shliqlar	
To‘g‘ri otish hamda uning amaliy ahamiyati	



04 AMALIY JISMONIY TAYYORGARLIK

Amaliy jismoniy tayyorgarlik – harbiy xizmatchilar maxsus tayyorgarligining asosiy yo‘nalishlaridan biridir. U harbiy xizmatchilarni o‘qitish va tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi. Amaliy jismoniy tayyorgarlik professional tayyorgarlik sifatida ham muhimdir. Zero, professional tayyorgarlikka ega armiyagina o‘z oldiga qo‘yilgan barcha vazifalarni bajara olish qobiliyatiga ega va barcha zamonaviy talablarga javob bera oladi.

Umumta‘lim maktablari o‘quvchilari “Amaliy jismoniy tayyorgarlik” bo‘limida berilgan mavzularni o‘zlashtirish orqali harbiy xizmatni o‘tashlarida zarur bo‘ladigan jismoniy tayyorlik bo‘yicha amaliy bilim va zarur ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.

Amaliy jismoniy tayyorgarlik chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanining asosiy bo‘limi, o‘quvchilarni harbiy ishga o‘rgatishning zarur va ajralmas qismidir. Uning maqsadi jangovar topshiriqlarni bajarish uchun harbiy xizmatchilarning zarur jismoniy tayyorgarlik darajasini ta’minlashdan iborat.

Bunday tayyorgarlik harbiy amaliy yo‘nalishda kuch, tezlik, epchillik va maxsus sifatlarni rivojlantiruvchi jismoniy mashqlarni, shuningdek, turli ko‘rinish va mazmundagi harbiy sport musobaqalarini o‘z ichiga oladi.

Amaliy-jismoniy tayyorgarlikning vazifalari:

- o‘quvchilarda katta jismoniy kuch, epchillik va harakat tezligini rivojlantirish;
- dovyuraklik, qat’iylik, g‘alabaga bo‘lgan ishonch, o‘zini qo‘lga ola bilish kabi yuksak ruhiy va irodaviy sifatlarini tarbiyalash;
- tez harakat qilish, tabiiy va sun’iy to‘siqlarni yengish, granata uloqtirish va qo‘l jangi kabi ko‘nikmalarni shakllantirish;
- sog‘liqni mustahkamlash va organizmni chiniqtirish;
- organizmning tashqi muhit zararli omillariga qarshi himoya xususiyatlarini oshirish;
- yoshlarda jismoniy mashqlar bilan tizimli ravishda shug‘ullanish odatini shakllantirish va ularni harbiy-amaliy sport turlariga jalb qilish;
- jangovar bo‘linmalar uyushqoqligini oshirish.

Shuningdek, jismoniy tayyorgarlik qo‘l jangi usullari hamda to‘siqlar yo‘lagini yengib o‘tish kabi mashqlarni ham o‘z ichiga oladi. Bunda o‘quvchilar to‘siqlar yo‘lagini yengib o‘tish mashg‘ulotlarida turli gorizontal va vertikal to‘siqlarni yengish, balandlikdan tushish bo‘yicha ko‘nikmalarga ega bo‘ladi, yakka to‘siq hamda to‘siqlar qatorini yengib o‘tishni o‘rganadi. Yagona to‘siqlar yo‘lagida 200 m li nazorat mashqini bajaradi.

Qo‘l jangi mashg‘ulotlarda o‘zini muhofaza qilish, hujum qilish usullari, qo‘l va oyoq bilan zarba berish, mana shunday zarbalardan himoyalanish hamda og‘riq berish usullarini bajarishni o‘rganadi. Shuningdek, dushmanni qurolsizlantirish va bog‘lash kabi usullarni ham o‘zlashtiradi.

IV.1. TO‘SIQLAR YO‘LAGI (QATORI)DAN O‘TISH

1-mashg‘ulot. Yagona to‘siqlar yo‘lagi bilan tanishish. Alohida to‘siqlardan o‘tish usullari va ularni yengib o‘tishni mashq qilish

O‘quv faoliyati natijalari:

- Yagona to‘siqlar yo‘lagi bilan tanishadi.
- Alohida to‘siqlardan o‘tish usullari va ularni yengib o‘tish mashqini bajarish tartibini biladi.



To‘siqlarni turi va o‘lchamiga ko‘ra tayanib va tayanmay sakrash, chuqurlikka sakrash, oshib o‘tish va ichidan o‘tish, tor to‘sin (balka) bo‘ylab yurib o‘tish orqali yengib o‘tish mumkin. Keng bo‘lmagan gorizontal hamda unchalik baland bo‘lmagan vertikal to‘siqlarni esa tayanmasdan sakrash orqali yengib o‘tish mumkin.



Muhim!

- To‘siqlarni yengib o‘tishni mashq qilish jarayonida o‘quvchilarda harbiy-amaliy ko‘nikmalar shakllantiriladi hamda jismoniy, ruhiy va maxsus sifatlar rivojlanadi.

To‘siqlarni yengib o‘tish, granata uloqtirish, maxsus uslub va harakatlarning turli usullarini o‘zlashtirib bo‘lgach, to‘siqlarni kompleks tarzda yengish mashg‘ulotlariga o‘tiladi. Topshiriqqa qarab mashg‘ulotlar AK avtomati bilan yoki avtomatsiz o‘tkazilishi mumkin.

1. To‘siqlar yo‘lagi (qatori)ning boshlanish chizig‘i

- Harakat yo‘lakning boshlanish chizig‘idan mashg‘ulot rahbarining komandasi bo‘yicha boshlanadi. Boshlang‘ich holat – qo‘llarga tayanib yotish yoki tik turish. *“Boshla!”* komandasi bo‘yicha o‘quvchi o‘rnidan turadi va chuqurlik tomon 20 m masofani yugurib o‘tadi.

2. “Xandaq” to‘sig‘i	
• Xandaqning 2,5 metrli qismidan sakrab o‘tiladi va labirint tomon yuguriladi.	
3. “Labirint” to‘sigi	
• Labirint yo‘lakchalaridan harakat yugurish orqali amalga oshiriladi. Individual xususiyatlaridan kelib chiqib, o‘quvchi ko‘krakni old tomonga qilib yoki yonbosh bilan harakatlanishi mumkin.	
4. “Qiya taxtali devor” to‘sig‘i	
• Bu to‘siqdan ko‘krakka tayanib ilashgan usulda va kuch bilan oshib o‘tish mumkin.	

Ko‘krakka tayanib oshib o‘tish

• To‘siqqa yugurib kelib, qo‘llar bilan uning yuqori qiri ushlanadi, oyoqlar bilan yerdan turtilib, to‘siqqa ko‘krak yoki qorin bilan yotiladi. Gavdani oldinga tashlab, o‘ng qo‘l kafti bilan to‘siqning qarama-qarshi tomoniga tayaniladi va oyoqlarni olib o‘tib, yerga sakrab tushiladi.

Ilashgan usulda oshib o‘tish

• To‘siqqa bir qadam qolganda bir oyoq bilan yerdan turtilib, ikkinchi bukilgan oyoq bilan to‘siqqa tayaniladi hamda qo‘llar bilan to‘siqning qiridan ushlanadi. Chap yon bilan to‘siq

qiri qo‘ltiq ostida qolguncha tortilinadi, tizzadan bukilgan chap oyoq to‘siqqa qisiladi, o‘ng oyoq esa ortga olinadi. O‘ng oyoqni siltab, tovon bilan to‘singa ilashiladi va to‘siq ortiga sakrab tushiladi.

Kuch bilan oshib o‘tish

• Yugurib kelib, oldingi usuldagi kabi yerdan bir oyoqda turtiladi, qo‘llar bilan to‘siqning yuqori qiridan ushlanadi. Oyoqlar bilan yordam bergan holda qo‘llarda tortilib, to‘siq qiriga ikkala qo‘l bilan tayaniladi. Holat va to‘siqning ko‘rinishiga qarab, undan quyidagi usullardan biri bilan oshib o‘tiladi va sakrab tushiladi;

– o‘zini to‘siq ortiga tashlash (xuddi ko‘krakka tayanib o‘tgandagi kabi);

– to‘siqqa oyoqlarni osiltirib o‘tirib olish va o‘tirgan holatdan sakrab tushish;

– to‘siqqa o‘ng oyoq bilan tiralish va undan chap oyoqni olib o‘tib, qo‘l va oyoqqa tayangan holatda sakrab tushish.

5. “Buzilgan ko‘prik” to‘sig‘i



• Bu to‘siqdan o‘tishda ko‘prikning ikkinchi (qiyshiq) qismidagi vertikal narvon orqali ko‘prik tepasiga chiqiladi. To‘sin bo‘ylab yuguriladi, ko‘prik qismlari orasidagi uzulish ustidan sakrab o‘tiladi. To‘sinning oxiriga yetganda, tik turgan holatda yerga sakrab tushiladi.

6. “Buzilgan zinapoya” to‘sig‘i

• Bu to‘siqdan o‘tish har bir pog‘ona ustiga oyoq bilan bosish orqali amalga oshiriladi. Bunda ikkala oyoq ham zinalar orasidagi yerga tegishi shart. Zina pog‘onalaridan quyidagicha o‘tiladi:



– 1-pog‘onadan ikkala oyoq ham yonga olingan holda tayanib sakraladi va ikkala oyoq bilan yerga tushiladi;

– 2-pog‘onadan qo‘llarga tayanib yoki oyoq soniga suyanib oshib o‘tiladi;

– 3-pog‘onada ikki qo‘l bilan pog‘onaning tepa qismidan ushlanadi, ikkala oyoq bilan turtiladi, qo‘llari bilan tepaga tortilib, ko‘krakka tayaniladi, to‘siq orqali oshib o‘tiladi va sakrab oyoqlari bilan tushadi;

– 4-pog‘onaning tagidan o‘tiladi va yugurib, keyingi to‘siq tomon ketiladi.

7. “Tuynukli devor” to‘sig‘i



To‘siqni yengish uchun yuqori tuynukdan o‘tiladi. Buning uchun o‘quvchi bir vaqtda boshi va bir oyog‘ini tuynukdan o‘tkazadi. Usul avval sekinlashtirilgan sur’atda o‘rgatiladi, so‘ngra sur’at tezlashiriladi.

8. “Quduq”dan granatani uloqtirish



• “Tuynukli devor” to‘sig‘idan o‘tilgach, yugurib transheyaga boriladi, unga sakrab tushiladi va aloqa yo‘li bilan quduqqacha boriladi.

• Quduqda turgan holda yerdan granata olinadi va “tuynukli devor”ning xohlagan tuynugi yoki devor ortidagi 2,6×3 m o‘lchamdagi maydonchaga otiladi. Agar granata nishonga tegmasa, yana ikkita granata otishga ruxsat beriladi (granataning vazni 600 g).

9. Qaytishda “tuynukli devor”dan o‘tish

• “Tuynukli devor” qo‘llarga tayangan holda devor ustidan sakrash orqali yengib o‘tiladi. Bunda ikkala oyoq bilan devor ustiga sakrab chiqish yoki qo‘lga tayangan holda bir oyoq tovonini devor ustiga qo‘yib, ikkinchisini to‘siq ustidan olib o‘tish va ikkala oyoq bilan sakrab tushish mumkin.

10. Qaytishda “buzilgan zina”dan o‘tish

• O‘quvchi to‘siqqa yaqinlashgach, zina orqali 4-pog‘ona (eng balandi)ga ko‘tariladi. So‘ngra 3, 2, 1-pog‘onalardan yugurib tushadi.

11. Qaytishda “buzilgan ko‘prik” to‘sig‘idan o‘tish

• O‘quvchi vertikal narvondan ko‘tarilib, balkaga chiqadi. Biroz engashib, muvozanatni saqlagan holda yurib yoki yugurib harakatlanadi. Balka tugagach, 2 m li devordagi qiya taxta orqali yugurib pastga tushadi.

12. Qaytishda “xandaq” to‘sig‘idan o‘tish

• O‘quvchi qiya taxta orqali tushgach, yugurishda davom etadi. Xandaqning 2 m li qismidan sakrab o‘tadi va yugurishni boshlagan chiziqdan o‘tib, to‘siqlarni yengib o‘tishni yakunlaydi. To‘siqlar yo‘lagining uzunligi 200 m ni tashkil etadi.

Savol va topshiriqlar

1. Yagona to‘siqlar yo‘lagini yengib o‘tishni o‘rganishdan maqsad nima?
2. Yagona to‘siqlar yo‘lagida harakat qilish tartibini ayting.
3. Yagona to‘siqlar yo‘lagini yengish paytida qanday xavfsizlik qoidalariga amal qilish lozim?
4. Yagona to‘siqlar yo‘lagi to‘siqlarining joylashish ketma-ketligini to‘g‘ri belgilang (jadvalda ketma-ketlik tartibi buzib ko‘rsatilgan).

T/r	**Yagona to‘siqlar yo‘lagi to‘siqlarining joylashish ketma-ketligi**
1	yo‘lakning boshlanish chizig‘i
2	yo‘lakning tez yuguriladigan 20 metrli qismi
3	uzunligi 6 m, eni 2 m, bo‘yi 1,1 m li labirint
4	yer sathi tomonlari 2×2,5×3 m o‘lchamli, chuqurligi 1 m li xandaq
5	bo‘yi 2 m li vayron buzilgan ko‘prik
6	bo‘yi 2 m, qalinligi 0,25 m li devor
7	eni 2 m li vayron bo‘lgan 4 pog‘onali zinapoya
8	bo‘yi 1,1 m, eni 2,6 m, qalinligi 0,4 m li devor
9	quduq va yurish yo‘lagi
10	eni 2 m li yugurish yo‘lagi
11	chuqurligi 1,5 m li transheya

2-mashg‘ulot. To‘siqlar yo‘lagini yengib o‘tish mashqini bajarish

O‘quv faoliyati natijalari:

- To‘siqlar yo‘lagini yengib o‘tish mashqini bajara oladi.



Yagona to‘siqlar yo‘lagida quyidagi to‘siqlarni yengib o‘tish lozim.

1. To‘siqlar qatorining boshlanish chizig‘i. Ushbu chiziq oldida start olinadi. Boshlang‘ich holat – to‘siqlar qatorining boshlanish chizig‘i oldida qo‘llarga tayanib yotish.

2. Tez yugurish yo‘lakchasi (20 m). Masofa tez yugurish orqali yengib o‘tiladi.

3. Sakrab o‘tish uchun chuqurlik (yuzasi tomonlari 2×2,5×3 m; chuqurligi 1 m). To‘siq sakrab o‘tish orqali yengib o‘tiladi.

4. Labirint (eni 2 m, bo‘yi 1,1 m; yo‘lakchalar oralig‘i 0,5 m; yo‘lakchalar soni 10 ta); labirint oralaridan o‘tishda qo‘l bilan yordam beriladi.

5. Devor (balandligi 2 m; qalinligi 25 cm) qiya taxta bilan (taxtaning uzunligi 3,2 m, eni 25–30 cm). To‘siq ilashgan usulda yoki kuch bilan yengib o‘tiladi.

6. Buzilgan ko‘prik (balandligi 2 m). Ko‘prik 3 ta to‘g‘ri burchakli 0,2×0,2 m li balka bo‘laklaridan iborat. Birinchi balkaning uzunligi 2 m, ikkinchisi 3,8 m, boshlanishidan 135º li burilishgacha 1 m. Uchinchi balkaning uzunligi 3,8 m, boshlanishidan 135º li burilishgacha 2,8 m. Balkalar orasidagi uzilishlar kattaligi 1 m. Ikkinchi bo‘lak boshlanishi va oxirgi bo‘lakda vertikal narvonlar mavjud. To‘siqni yengishda dastlab ko‘prikning ikkinchi qismiga narvon orqali chiqiladi. So‘ngra balka bo‘ylab yugurib, uchinchi balkaga sakrab o‘tiladi va uchinchi balka oxiridan yerga sakrab tushiladi.

7. Buzilgan zinapoya (eni 2 m, pog‘onalar balandligi 0,8 m, 1,2 m, 1,6 m, 1,8 m, pog‘onalar orasi 1,2 m). Oxirgi pog‘onada 2,3 m li narvon mavjud. To‘siqni yengishda buzilgan zinapoyalarning uchtasidan oshib o‘tiladi, to‘rtinchisining esa ostidan o‘tiladi.

8. G‘ishtli devor (balandligi 1,1 m, eni 2,6 m, qalinligi 0,4 m. Devorning ikkita ko‘zi (derazasi) mavjud: pastkisi 1×0,4 m, yuqoridagisi 0,5×0,6 m. G‘ishtin devor ostida 2,6×3 m li maydoncha bor. To‘siqni yengishda devorning 0,5×0,6 m li ko‘zi (derazasi) orqali o‘tiladi.

9. Quduq (chuqurligi 1,5 m, eni 1 m) va aloqa yo‘li (uzunligi 8 m, bitta burilish bilan). Quduqqa kelish uchun g‘ishtin devor derazasi orqali o‘tilgach, yugurib borib, transheyaga tushiladi va aloqa yo‘li orqali quduqqa o‘tiladi.

10. Transheya (chuqurligi 1,5 m). Transheya orqali quduqqa o‘tiladi. Yerdagi uchta granatadan birini olib, 1,1 m li devordagi tuynuklardan biriga yoki devor ortidagi 2,6×3 m li maydonchaga uloqtiriladi.

11. Quduqdan turib granata uloqtirilgach, undan sakrab chiqiladi va 1,1 m li devor ustidan sakrab o‘tiladi.

12. Buzilgan zinapoyaning qiya pillapoyasi orqali 4-zinapoyaga yugurib chiqiladi va buzilgan zinapoya zinalari bo‘ylab yugurib o‘tiladi.

13. Buzilgan ko‘prik to‘sini ustiga tik narvondan chiqiladi, to‘sin bo‘ylab yugurib, uzilgan joylardan sakrab o‘tiladi va qiya taxtadan yugurib pastga tushiladi.

14. 2 m li chuqurlikdan sakrab o‘tiladi, 20 m masofani yugurib o‘tib, to‘siqlar tizimining boshlang‘ich chizig‘i kesib o‘tiladi.

Savol va topshiriqlar

1. Yagona to‘siqlar yo‘lagini yengishni o‘rganishdan maqsad nima?
2. Yagona to‘siqlar yo‘lagining uzunligi qancha?
3. Yagona to‘siqlar yo‘lagi qanday to‘siqlardan tashkil topgan?
4. Gorizontal to‘siqlar qanday usullarda yengib o‘tiladi?
5. Vertikal to‘siqlarga qanday to‘siqlar kiradi?

3-mashg‘ulot. Umumiy nazorat mashqlarini bajarish

O‘quv faoliyati natijalari:

- Umumiy nazorat mashqlarini bajaradi.



To‘siqlarni yengishning asosiy usullariga o‘rgatish, harbiy xizmatchilar uchun umumiy jismoniy va ruhiy sifatlarni shakllantirish maqsadida yagona to‘siqlar yo‘lagi va undan o‘tish bo‘yicha 2 ta umumiy nazorat mashqi belgilangan.

1-nazorat mashqi (200 metr) qurolsiz bajariladi.

Boshlang‘ich holat – to‘siqlar yo‘lagining boshlanish chizig‘i oldida tik turish.

«OLG‘A!» komandasi berilganda:

1) sakrab 20 m ga yuguriladi va 2,5 m kenglikdagi chuqurlikdan sakrab o‘tiladi;

2) labirint yo‘laklaridan yugurib o‘tiladi;

3) 2 m li devordan xohlagan usulda oshib o‘tiladi;

4) vertikal narvon orqali buzilgan ko‘prikning ikkinchi qismiga chiqiladi, balkadan yugurib borib, balkaning oxiridan yerga sakrab tushiladi;

5) buzilgan zinapoyaning uchta pog‘onasidan oshib o‘tiladi, bunda oyoq yerga tegishi shart, 4-pog‘onaning tagidan o‘tiladi;

6) devorning derazasi orqali o‘tiladi;

7) transheyagacha yugurib boriladi, unga sakrab tushiladi va aloqa yo‘li orqali quduqqacha boriladi;

8) yerdan granata olinib, devordagi derazalarning xohlagan biriga yoki devor ortiga 2,5 m li maydonchaga uloqtiriladi (bunda 3 tagacha granata otishga ruxsat beriladi;

9) quduqdan sakrab chiqib, devordan sakrab o‘tiladi;

10) qiya narvon orqali buzilgan zinapoyaning 4-pog‘onasiga chiqiladi va zinapoya pog‘onalaridan yugurib tushiladi;

11) vertikal narvon orqali buzilgan ko‘prikning balkasi ustiga chiqiladi, unda yugurib borib, uzilgan joydan sakrab o‘tiladi va qiya taxta orqali pastga yugurib tushiladi;

12) 2 m kenglikdagi chuqurdan sakrab o‘tiladi, yo‘lakchaga o‘tib olib, to‘siqlar yo‘lagining boshlanish chizig‘i kesib o‘tiladi.

Baholash:

“5” – 1 daqiqa 30 soniya;

“4” – 1 daqiqa 40 soniya;

“3” – 1 daqiqa 55 soniya.



05 HARBIY ISH ASOSLARI

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangchilari o‘z Vatanlarining haqiqiy himoyachilaridir. Ular o‘z ajdodlari – ulug‘ sarkardalar jangovar an’analariga rioya qilgan holda kasbiy tayyorgarligi bo‘yicha hamisha zamonaviy talablarga javob berishi, doimo sergak turishi, yuksak jangovar tayyorgarlik va qobiliyatlarga ega bo‘lishi lozim. Har bir jangchi o‘zining butun ma’naviy va jismoniy kuchini jamlagan holda jang qilishi, g‘alabaga bo‘lgan qat’iy iroda, qat’iyatni, jasurlik va mardlikni namoyon etishi, faollik, tashabbuskorlik va jasorat ko‘rsatishlari kerak bo‘ladi.

V.1. UMUMQO‘SHIN JANGI ASOSLARI

1-mashg‘ulot. Nazariy. Jang haqida tushuncha. Zamonaviy umumqo‘shin jangining tavsifi va maqsadi. Zamonaviy umumqo‘shin jangining asosiy turlari. Askarning jangdagi majburiyatlari va ekipirovkasi

O‘quv faoliyati natijalari:



- Zamonaviy jangni tavsiflaydi.
- Zamonaviy umumqo‘shin jangining tavsifi va maqsadini tushunadi.
- Zamonaviy umumqo‘shin jangining asosiy turlarini biladi.
- Askarning jangdagi majburiyatlari va ekipirovkasini aytib beradi.

Bilasizmi?

1. Tarixda qanday mashhur janglar bo‘lib o‘tgan ?
2. Jang deganda nimani tushunasiz?
3. Zamonaviy jang maydonini qanday tasavvur qilasiz?

Jang – urushayotgan tomonlar birlashma, qism va bo‘linmalarining maqsadi, joyi va vaqti bo‘yicha kelishilgan qurolli to‘qnashuvi. Har qanday jangning maqsadi dushmanni yo‘q qilish (tor-mor keltirish), uning zarbalarini qaytarish va boshqa taktik vazifalarni bajarishdan iborat.

Zamonaviy jang umumqo‘shin jangi hisoblanadi. Unda quruqlikdagi qo‘shinlar, harbiy havo kuchlari, havo hujumidan mudofaa qo‘shinlari ishtirok etadi. Zamonaviy jang tezkorligi, qat’iyatliligi, yuqori manyovrga egaligi, jang holatining tez va qaltis o‘zgaruvchanligi hamda jang olib borish usullarining turlicha bo‘lishi bilan xarakterlanadi.

Hujum – jangning asosiy turi. Faqat qat’iy hujum bilangina dushmanni tor-mor qilish mumkin. Hujumning mohiyati atakaga o‘tib, barcha mavjud vositalar yordamida dushmanga zarba berish, uning ichkarisiga kirib borish, jonli kuchini yo‘q qilish yoki asir olish, qurol-yarog‘i va jangovar texnikasini qo‘lga kiritish, u egallab turgan hududni egallab olishdan iborat.

Ataka – bo‘linma va qismlarning jangovar tartibdagi shiddatli harakatini eng yuqori kuchlanishdagi o‘t ochish bilan uyg‘unlashtirish. Ataka hujumning hal qiluvchi lahzasi hisoblanadi.

Eslab qoling!

Taktika – harbiy san'atning tarkibiy qismi. U o'z ichiga qism va bo'linmalar tomonidan jangni tashkil etish va olib borish nazariyasi hamda amaliyotini qamrab oladi.

Jangovar harakatlarning maqsadi, unga erishish usullariga ko'ra umumqo'shin jangi *hujum* va *mudofaa* turlariga bo'linadi. Jang umumqo'shin jangovar tuzilmalarida mavjud jangovar kuch va vositalarni, shu jumladan, piyodalar jangovar mashinalari, artilleriya, havo hujumidan mudofaa qo'shinlari hamda boshqa texnika va qurol-aslahalarni qo'llash orqali olib boriladi.

Eslab qoling!

Hujum – dushman kuchini tor-mor qilish va muhim marralarni egallash maqsadida tashkil etiladigan jarayon.

Kutilmaganda to'qnashuv jangi – hujumning bir ko'rinishi. U ikkala tomon ham hujumga o'tish uchun o'z qo'shinlarini yoyayotganda yuz beradi.

Mudofaa – dushman hujumini qaytarish, unga zarar yetkazish va qarshi hujumga o'tish uchun sharoit yaratish maqsadida maqsadli yoki majburiy tarzda tashkil etiladigan jarayon.

Zamonaviy umumqo'shin jangining xususiyatlari: qat'iyatlilik, keskinlik, yuqori manyovrlilik, tez o'zgaruvchanlik.



Askarning jangdagi majburiyatlari:

- vzvodi, jangovar guruhi (tanki) va o‘zining jangovar vazifalarini bilish;
- dushman tanklari, zirhlangan mashinalari va tankka qarshi vositalarining jangovar imkoniyatlari, ularning kuchli va zaif tomonlari, ayniqsa, eng zaif joyini bilish;
- jangda komandirini himoyalash, agar u jarohat olsa yoki halok bo‘lsa, qo‘rqmasdan bo‘linma qo‘mondonligini zimmasiga olish;
- havodagi dushmanni tanib olish, uning samolyot, vertolyot va boshqa nishonlariga o‘qotar qurollardan o‘t ochishni bilish;
- jangda komandirning ruxsatisiz o‘z joyini tashlab ketmaslik, tibbiy punktga borishning imkoni bo‘lmaganda, quroli bilan pana joyga emaklab borib, sanitarlarni kutish;
- joydan, individual himoya vositalaridan va mashinaning himoya xususiyatlaridan mohirona foydalanish;
- istehkom inshootlarining jihozlash hajmi va jihozlash tartibini doimo kuzatib borish, dushmanni o‘z vaqtida topib olish va darhol bu haqda komandirga bildiruv berish;
- o‘q-dorilar, PJM (ZTR) va tank yonilg‘ilari sarfini kuzatib turish, o‘z vaqtida komandiriga o‘q-dorilar va yonilg‘i zaxirasi bo‘yicha bildiruv berish;
- PJM (ZTR) va tank buzilganda, ularni tuzatish chora-tadbirlarini ko‘rish.



Askarning ekipirovkasi

Askarning anjom xaltasida quyidagilar bo‘ladi: shaxsiy foydalanish anjomlari, furnitura, oshxona anjomlari, suv idishi, kotelok, bir sutkalik quruq payok (yegulik), plash-yoping‘ich, shaxsiy himoya vositasi (umumqo‘shinlar himoya jamlanmasi), doriquti.

Serjantlar uchun qo‘shimcha va majburiy holatda aslaha to‘plami: serjant sumkasi, uning tarkibida – kompas, ofitserlik chizg‘ichi, flomaster va qalamlar to‘plami, yozuv daftari (bloknot), o‘chirg‘ich, yig‘iluvchi pichoqcha, sirkul-o‘lchagich, kurvimetr.



Hujum, mudofaa va to‘qnashuv jangida jangovar harakatlarni muvaffaqiyatli olib borishda hamda maxsus harbiy harakatlarni bajarishda har bir askar o‘z shaxsiy quroliga ega bo‘lishi kerak. Shtatdagi mansabiga ko‘ra, guruhda har bir harbiy xizmatchi o‘zining qurol turiga egalik qiladi. Guruh komandirining o‘rinbosari – serjant, qoidaga binoan, AK-74 avtomati, guruh mergani SVD merganlik miltig‘i, guruh pulemyotchisi RPK-74 pulemyoti yoki PMK, avtomatchilar AK-74, mexanik-haydovchi va PJM mo‘ljalga oluvchi-operatori PM pistoleti (AKS – yig‘iladigan metall qo‘ndoqli avtomatlar bilan ham qurollanishi mumkin), haydovchi va ZTR mo‘ljalchisi AK-74 avtomati bilan qurollanadi.

2-mashg‘ulot. Nazariy. Jangovar guruhning tarkibi, qurollanishi va jangovar imkoniyatlari. Jangovar guruhning jangovar tartibi

O‘quv faoliyati natijalari:

- Jangovar guruhning tarkibi, qurollanishi va jangovar imkoniyatlarini biladi.
- Jangovar guruhning jangovar tartibini tushunadi.

Jangovar guruh eng quyi taktik bo‘linma bo‘lib, tashkiliy jihatdan motoo‘qchi vzvod tarkibiga kiradi. Mazkur bo‘linma O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida jangovar guruh piyodalarining jangovar mashinasi (PJM) yoki zirhli transportyor (ZTR) bilan qurollanadi.

Jangovar guruhning tarkibi va qurollanishi

Shtat bo‘yicha unvoni	Lavozimi	Soni	Quroli turi	Qurolining jangovar jamlanmasi
Leytenant	guruh komandiri	1	PM	32 ta patron
Serjant	komandir o‘rinbosari	1	AKM yoki AK-74	450 ta patron (80 ta yorishuvchi)
Oddiy askar	granatomyotchi	1	RPG-7	4 ta granata (vistrel)
Oddiy askar	granatomyotchi yordamchisi – o‘qchi	1	AKM yoki AK-74	450 ta patron (80 ta yorishuvchi)
Oddiy askar	pulemyotchi	1	RPK yoki PK	2000 ta patron
Oddiy askar	o‘qchi (o‘qchi-sapyor)	1	AKM yoki AK-74	450 ta patron (80 ta yorishuvchi)
Oddiy askar	mexanik-haydovchi	1	AKS-74U	450 ta patron (80 ta yorishuvchi)
Oddiy askar	mo‘ljalga oluvchi	1	AKS-74U	450 ta patron (80 ta yorishuvchi)
Oddiy askar	mergan	1	SVD	100 patron

Eslab qoling!

Jangovar imkoniyatlar – bo‘linma qismlarining o‘rnatilgan ma’lum vaqt ichida aniq vazifani bajara olish imkonini xarakterlovchi son va sifat ko‘rsatkichlari.

Jangovar imkoniyatlar shaxsiy tarkibning soni, uning jangovar tayyorgarlik darajasi, ruhiy-ma’naviy holati, qurol-yarog‘ va jangovar texnikasining holati, komandirlarning o‘qimishliligi va bo‘linmalarni boshqara olish mahorati, bo‘linma va qismlarning tashkiliy tuzilishi, ularning moddiy vositalar bilan ta’minlanganlik darajasiga bog‘liq. Jangovar imkoniyatga dushman tomonining qarshi harakatlari, joyning sharoitlari, ob-havo holati, sutkaning vaqti sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Jangovar guruhning jangovar imkoniyatlari uning o‘t ochish va manyovr qilish imkoniyatlari bilan xarakterlanadi.

Hujum va mudofaada jangovar guruh motoo‘qchi vzvod tarkibida harakat qiladi, razvedkada esa mustaqil harakatlanadi. Jangovar vazifa, joyning xarakteri va holatning boshqa sharoitlaridan kelib chiqib, motoo‘qchi jangovar guruh PJM (ZTR)da, piyoda, ba’zan esa tankda desant holatida harakat qilishi mumkin.

Jangovar guruh dushmanning tanklari va zirhli mashinalari, past uchayotgan samolyot va vertolyotlari bilan kurasha oladi, dushmanning o‘t ochish vositalari va jonli kuchlarini yo‘q qila oladi. Jangovar guruh hujumda dushmanning bir tanki, bronetransportyori va bir necha askarini, mudofaada esa ikki tanki, ikki bronetrnsportyori va 20–25 askarini yo‘q qila oladi.

Muhim!

- **Jangovar tartib** – jangovar guruhning jang olib borish uchun saflanishi.
- **Yurish tartibi** – jangovar guruhning piyoda harakat qilinganda harakatlanish uchun kolonnaga tizilishi. U jangovar guruhning tez harakat qila olishi, texnika bilan jangovar tartibga o‘ta olishi va tarkib kuchini saqlashni ta’minlashi kerak. Jangovar guruhning yurish tartibi bir yoki ikkita kolonnadan iborat bo‘ladi.

Savol va topshiriqlar

1. Jangovar guruhning tarkibi, qurollanishini aytib bering.
2. Jangovar guruhning jangovar imkoniyatlarini aytib bering.
3. Jangovar guruhning yurish va jangovar tartibini aytib bering.



06 FUQARO MUHOFAZASI

Fuqaro muhofazasi tinchlik va urush vaqtlarida o‘tkaziladigan umumdavlat mudofaa tadbirlarining tarkibiy qismidir. U umumdavlat mudofaa siyosatlaridan biri bo‘lib, har qanday favqulodda holatlarda fuqarolarni, xalq xo‘jaligi tarmoqlarini muhofaza qilishda, ularning doimiy ishlashini ta’minlashda hamda qutqarish va tiklash ishlarini bajarishda katta ahamiyat kasb etadi.

Fuqaro muhofazasining fuqarolarni hamda iqtisodiyot obyektlarini himoya qilish bo‘yicha tadbirlar kompleksi tabiiy va texnogen ofatlarning vayron etuvchi oqibatlarini sezilarli miqdorda pasaytirishga xizmat qiladi.

Fuqaro muhofazasining vazifalari:

- aholini harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavflardan himoyalanish usullariga o‘rgatish;
- obyektlarni harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavflardan himoyalash harakatlari va usullariga tayyorlash;
- boshqaruv, xabar berish va aloqa tizimlarini tashkil qilish, rivojlantirish va doimiy shay holatda saqlab turish;
- xalq xo‘jaligi obyektlarining barqaror ishlashini ta’minlash yuzasidan tadbirlar kompleksini o‘tkazish;
- aholini, moddiy va madaniy boyliklarni xavfsiz joylarga evakuatsiya qilish;
- fuqaro muhofazasi harbiy tuzilmalarining shayligini ta’minlash;
- aholini umumiy va yakka muhofazalanish vositalari bilan ta’minlash tadbirlarini o‘tkazish;
- aholining harbiy harakatlar olib borish paytidagi yoki shu harakatlar oqibatidagi hayot faoliyatini ta’minlash;
- radiatsion, kimyoviy va biologik vaziyat ustidan kuzatish va laboratoriya nazorati olib borish;
- qutqaruv va boshqa kechiktirib bo‘lmaydigan ishlarni o‘tkazish;
- harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida zarar ko‘rgan hududlarda jamoat tartibini yo‘lga qo‘yish va saqlab turish;
- aholini va hududlarni muhofaza qilish yuzasidan boshqa tadbirlarni amalga oshirish.

VI. 1. FAVQULODDA VAZIYATLAR TUSHUNCHASI. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDIDA SODIR BO‘LISH EHTIMOLI MAVJUD TABIIY XARAKTERDAGI FAVQULODDA VAZIYATLAR

1-mashg‘ulot. Favqulodda vaziyatlar tushunchasi. Zilzila, ko‘chgilar, suv toshqini, sel, qor ko‘chishi, kuchli shamol va boshqalar. Yaqinlashib kelayotgan xavfning belgilari

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27-oktyabrida “Texnogen, tabiiy va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to‘g‘risida”gi 455-son Qarori qabul qilingan. Ushbu qarorga ko‘ra, favqulodda vaziyatlar vujudga kelish sabablari bo‘yicha texnogen, tabiiy va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarga tasniflanadi. Ushbu vaziyatlar zarar ko‘rgan odamlar soni, moddiy zararlar miqdori va ko‘lamiga qarab lokal, mahalliy, respublika va transchegaraviy turlarga bo‘linadi.

O‘quv faoliyati natijalari:

- Zilzila, ko‘chkilar, suv toshqini, sel, qor ko‘chishi, kuchli shamol va boshqa shunga o‘xshash ofatlarni tavsiflaydi.
- Yaqinlashib kelayotgan xavf belgilarini biladi.



Bilasizmi? Yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan favqulodda holatlarga nimalar kiradi?



Tayanch so‘zlar:

Favqulodda vaziyat – aniq bir hududda falokat, halokat, tabiiy yoki ekologik ofatlar, shuningdek, ommaviy yuqumli kasalliklar tufayli odamlarning normal hayot faoliyatining buzilishi.

Fuqaro muhofazasi – tinchlik va urush vaqtlarida o‘tkaziladigan umumdavlat mudofaa tadbirlarining tarkibiy qismi.

Tabiiy ofat – qo‘qqisdan ro‘y beradigan, halokatli oqibatlarga, ya’ni odamlar, qishloq xo‘jaligi hayvonlari va o‘simliklarning nobud bo‘lishiga, bino va inshootlarning vayron bo‘lishiga, moddiy boyliklarning nobud bo‘lishiga olib keluvchi tabiiy kuchlarning turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishi.

Eslab qoling!

Baxtsiz hodisa deb, turli tabiiy va texnogen tusdagi hodisalar natijasida tirik olamga ta’sir etuvchi sabablarga aytiladi.



Zilzila – yer po‘stining ichki qismida ro‘y beradigan uzilish, sinish, siljish kabi jarayonlar ta’sirida sodir bo‘ladigan silkinishlar. Zilzila kuchi 10 yoki 12 balli seysmik shkala yordamida aniqlanadi



Suv toshqini – daryo, ko‘l, suv ombori yoki dengiz sathining ko‘tarilishi natijasida quruqlik joylarining vaqtinchalik suv ostida qolishi.



Sel – tog‘ daryolari o‘zanlarida to‘satdan paydo bo‘luvchi suv, qum, loy, shag‘al, tosh va tog‘ jinslari parchalaridan iborat oqim.



Qor ko‘chishi – tog‘dan pastga siljiyotgan qor massasi. Tog‘da qor to‘satdan ko‘chadi. Bunday holat qorning ostki qismi o‘z og‘irligiga dosh berolmay qolganda yoki harorat 0 °C darajaga yetganda yuz beradi.



Kuchli shamol – katta miqyosdagi gazlar oqimi. Yerda shamol massiv havo harakatlarida namoyon bo‘ladi. Shamollar hajmi, tezligi, sababchi kuchlari, mintaqalar va samaralariga ko‘ra turlarga ajratiladi.

Yaqinlashib kelayotgan tabiiy ofat belgilari

Jala quyishi, haroratning birdan ko‘tarilishi sel kelishining birinchi belgilaridan hisoblanadi. Sel ko‘chirib kelayotgan toshlarning urilishidagi larza, daryolardagi suv sathining keskin ortishi sel oqimining bevosita yaqinlashishi haqida ogohlantiradi.

Tog‘ va tepalik yonbag‘irlari yuzalarida g‘ayrioddiy o‘zgarishlarning paydo bo‘lishi, yer massasining turli shakldagi uyumlari va ochiq yoriqlarining paydo bo‘lishi, tog‘ yonbag‘irlariga yaqin binolar devorlarida yoriqlarning paydo bo‘lishi ko‘chki yaqinlashayotganining belgilari hisoblanadi.

Yer qimirlashi yuz berishi mumkin bo‘lgan vaqtda geodeziya reperlari ko‘tarilishi mumkin, yer osti suvlari tarkibining fizik-ximik parametrlari o‘zgaradi. Bundan tashqari, yer qimirlashi yuz berishi kutilayotgan joyda avval bo‘lmagan gaz hidi paydo bo‘ladi, uy hayvonlari va qushlar bezovtalanadi.

Savol va topshiriqlar

1. Fuqaro muhofazasining vazifalari nimalardan iborat?
2. Tabiiy ofat deb nimaga aytiladi?
3. Favqulodda vaziyatlar qanday tasniflanadi?
4. Siz yashab turgan hududda qanday texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlar yuz berishi mumkin?

VI.2. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDIDA YUZAGA KELISHI MUMKIN BO‘LGAN TEXNOGEN VA TABIIY TUSDAGI FAVQULODDA VAZIYATLARDA AHOLINING HARAKATLARI

1-mashg‘ulot. Nazariy. Favqulodda yuzaga keladigan epidemiologik, epizootik va epifitotik vaziyatlar. Karantin va pandemiya

O‘quv faoliyati natijalari:

- Favqulodda yuzaga keladigan epidemiologik, epizootik va epifitotik vaziyatlarni tavsiflaydi.
- Karantin va pandemiyani tushunadi.
- Yaqinlashib kelayotgan xavfdan darak beruvchi belgilarni biladi.



Tayanch so‘zlar:

tabiiy tusdagi favqulodda vaziyatlar, epidemiologik vaziyat, epizootik vaziyat, epifitotik vaziyat, pandemiya, karantin.

Tabiiy tusdagi favqulodda vaziyatlar kelib chiqishining asosiy sababi tabiiy ofatlardir. *Tabiiy ofat* deganda, qo‘qqisdan ro‘y beradigan, halokatli oqibatlarga, ya’ni odamlar, qishloq xo‘jaligi, hayvon va o‘simliklarning nobud bo‘lishiga, bino va inshootlarning vayron bo‘lishiga olib keluvchi tabiiy kuchlarning turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishiga aytiladi.

Bilasizmi? Tabiiy tusdagi favqulodda vaziyatlar haqida nimalarni ayta olasiz?

Tabiiy ofatlar, odatda, kutilmaganda ro‘y beradi va qisqa vaqt ichida katta maydonni, turarjoy va kommunikatsiyalarni vayron etadi, o‘zidan so‘ng ocharchilk va kasalliklarni keltirib chiqaradi. Tabiiy ofatlarning kelib chiqishiga iqlim hodisalari, geomorfologik jarayonlar, biologik omillar yoki fazoviy hodisalar sabab bo‘ladi.

Tabiiy ofatlar bir-biridan mustaqil tarzda yoki bir-biri bilan bog‘langan holda yuz berishi, biri ikkinchisini keltirib chiqarishi mumkin.

Tabiiy ofatlar o‘zlarining o‘lchamlari hamda davomiyligining turlicha bo‘lishi bilan farqlanadi – bir necha soniya va daqiqadan (yer silkinishi, qor ko‘chkilari) bir necha soat (sellar), kun (ko‘chki) yoki oygacha (suv toshqini) davom etishi mumkin.

Eslab qoling!

Aholini hamda iqtisodiyot obyektlarini tabiiy ofatlardan muhofaza qilishning samarali tizimini tashkil etish, respublikada tabiiy va texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 4-martdagi “O‘zbekiston Favqulodda vaziyatlar vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoniga binoan O‘zbekiston Favqulodda vaziyatlar vazirligi tashkil etilgan.

Tabiiy tusdagi favqulodda vaziyatlar

- geologik xavfli hodisalar
- gidrometeorologik xavfli hodisalar
- favqulodda epidemiologik, epizootik va epifitotik vaziyatlar

Eslab qoling!

*Geologik xavfli hodisalar*ga zilzilalar, yer ko‘chkilari, tog‘ o‘pirilishlari kabi geologik hodisalar kiradi.



Tuproq ko‘chkisi – tog‘ va tepalik yonbag‘irlarida ulkan hajmda ortiqcha namlikka ega bo‘lgan tuproq massasining og‘irlik kuchi ta’siri ostida qo‘qqisdan surilishi. Ko‘chkilar o‘z yo‘lidagi barcha jonzotlarni supurib ketadi, ekinlarni, bino va inshootlarni, yo‘llarni yo‘q qiladi, daryo o‘zanlarini to‘sib qo‘yadi.

Qiyaliklar tikligining ortib ketishi, ular asosining daryo suvlari tomonidan yuvib ketilishi, tuproq jinsining ortiqcha namlanishi kabi omillar tuproq ko‘chkisining tabiiy sabablariga kiradi.



O‘pirilish. Tik tushgan jarlik va tog‘ yonbag‘irlarida, asosan, shamol uchirib ketishi (nurash), yer usti va yer osti faoliyati ta’sirida tog‘ jinslarining bo‘shashishi hisobiga katta massalar va tog‘ jinslarining uzilib, ag‘darilib tushishi *o‘pirilish* deb ataladi.

O‘pirilishning asosiy sababi – og‘irlik kuchining suruvchi kuchi bilan tuproqni ushlab turuvchi kuchi (tirnalish) orasidagi muvozanatning buzilishi.

Eslab qoling!

*Gidrometeorologik xavfli hodisalar*ga suv toshqinlari, sel, dovul, quyun, tuproq va qor ko‘chkilari kabi gidrometeorologik hodisalar kiradi.



Dovul (tayfun) qattiq bo‘ron bo‘lib, uning chekkalarida shamolning tezligi 30 m/s ni tashkil etadi. Dovul shimoliy yarim sharda soat miliga teskari, janubiy yarim sharda esa soat millari bo‘yicha esadi. U 120 km/h tezlik bilan harakat qiladi.

Dovul paytida avvaldan tayyorlab qo‘yilgan pana joylarda yoki yerto‘lalarda panoh topgan ma’qul. Agar tabiiy ofat paytida odam bino ichida qolib ketsa, u holda xonaning o‘rta qismi, yo‘laklar, binoning birinchi qavatida yashirinish zarur.



Quyun (tornado) – diametri bir necha o‘n metrdan yuzlab metrga yetadigan aylanuvchi havo ustuni. Quyun quyun bulutidan uzun xartum ko‘rinishida yer yuzasigacha tushadi. Havo ustuni soat millari harakatiga teskari yo‘nalishda 100 m/s dan kattaroq tezlikda aylanadi.

Bu ulkan havo girdobi ichida bosim doimo past, shu sababli, u yerga shamol ko‘tara olishi mumkin bo‘lgan barcha narsalar so‘rib olinadi va spiral bo‘yicha yuqoriga ko‘tariladi.

Yuqumli kasalliklar paydo bo‘lishi va tarqalishi xavfini kuchaytiruvchi omillar:

- aholi zichligi;
- aholining ko‘chib yurishi;
- mavjud kommunikatsiya tarmoqlarining ishdan chiqishi;
- jamiyat sog‘liqni saqlash dasturlari bajarilishining to‘xtab qolishi.

Epidemiologiya yuqumli kasalliklarning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va aholi o‘rtasida tarqalish xususiyatlari hamda qonuniyatlarini o‘rganib, yuqumli kasallikllarga qarshi kurashish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va ularni amalga oshirishni ta’minlaydi. *Epidemiologik vaziyatlarga* odamlar orasida uchraydigan o‘ta xavfli yuqumli kasalliklar (o‘lat, vabo, sarg‘ayma isitma va b.), zoonos infeksiyalar (sibir yarasi, qutirish va b.), virusli infeksiyalar (OITS va aniqlanmagan etiologiya kasalliklari) tarqalishi kiradi.

Karantin – yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olish va zararlanish o‘chog‘ini batamom yo‘q qilishga mo‘ljallangan qat’iy izolyatsion-cheklov tadbirlari tizimi.

Pandemiya – epidemik kasallikning bir mamlakat, bir necha mamlakat, qit’a yoki butun dunyo bo‘ylab yoppasiga tarqalishi. Bunga hammaga ma’lum koronavirus kasalligi (COVID-19)ni misol keltirish mumkin.

Epizootiya – aniq bir hududda ko‘p turdagi qishloq hayvonlari orasida yuqumli kasallikning qayd qilinadigan darajadan ancha katta darajada tarqalishi.

Epizootik vaziyatlar. Hayvonlar yuqumli kasalliklarining tarqalishi epizootiya, panzootiya va enzootiya shaklida yuz beradi.

Epifitotiya – qishloq xo‘jaligi ekinlarining ommaviy nobud bo‘lishi va hosildorlikning pasayishi bilan kechuvchi makon va zamonda rivojlanuvchi kasallikning tarqalishi hamda o‘simlik zararkunandalari sonining keskin ko‘payishi.

Epifitotik vaziyatlarga o‘simliklarning ommaviy nobud bo‘lishi kiradi. O‘simliklar kasalligi – muhitning noxush sharoitlari ta’sirida o‘simliklar hosildorligining pasayishi yoki nobud bo‘lishiga olib keluvchi hujayralar, o‘simlik organlari va butun o‘simlikdagi me’yordagi moddalar almashinuvining buzilishi.

Favqulodda vaziyatlarda aholining harakatlari

Zilzila paytida:

- vahimaga tushmaslik, o‘zini qo‘lga olish;
- zudlik bilan uydan tashqaridagi ochiqlikka chiqish;
- yuqori qavatlarda xonaning xavfsiz joylarni egallash, eshikni ochib, eshik bo‘shlig‘i yoki xona burchagiga turish, deraza va xavfli predmetlardan uzoqroq masofa saqlash;
- binoning beshinchi qavatidan yuqorida lift orqali harakat qilmaslik;
- baland bino, elektr uzatish tarmog‘i, ko‘priklardan uzoqroq masofa saqlash;
- mashinani xavfsiz joyga to‘xtatish, eshiklarini ochib, silkinishlar to‘xtaguncha kutib turish.

Qor ko‘chkisi paytida:

- ko‘chki boshlanayotgan bo‘lsa, tezlik bilan xavfsiz joyda yoki bo‘rtib turgan qoya ortida saqlanish;
- ko‘chki bosib qolsa, og‘iz-burunni qo‘l bilan yopish, ko‘chki sirtiga chiqib olishga harakat qilish va chiqib olishga urinish;
- ko‘chki to‘xtaganda yuz va ko‘krak atrofida imkon boricha bo‘shliq hosil qilish.

Suv toshqinida:

- aloqa vositalari orqali berilayotgan holat bo‘yicha axborotni tinglash va komissiya talablarini bajarish;
- gaz, elektr va suvni o‘chirish, pul va hujjatlarni yuqoriga (tomga) olib chiqish, eshik va derazalarni yopish, hayvonlarni bo‘shatib yuborish;
- tashkiliy evakuatsiya bo‘lmasa, yordam yetib kelguncha yoki suv pasayguncha, uylar tomi yoki baland daraxtlar ustiga chiqib olish, falokat signalini uzluksiz berib turish;
- qutqaruvchilar yetib kelganda ular ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajarish va ularning suzish vositalariga o‘tib olish.

Kuchli shamollarda:

- uyning eshik va derazalarini yopish, gaz, elektr va suvni ta’minotdan uzib qo‘yish;
- zaruratsiz tashqariga chiqmaslik, imkon qadar chuqurroq xonalarda bo‘lish;
- kuchli shamol paytida ko‘chadagi yengil qurilgan imoratlar, elektr uzatish tarmoqlaridan uzoqroq bo‘lish, uchayotgan siniq parchalardan himoyalanish uchun himoya vazifasini bajaruvchi turli buyumlardan foydalanish.

Savol va topshiriqlar

1. Tabiiy tusdagi favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelish sabablarini aytib bering.
2. Siz yashab turgan hududda qanday tabiiy ofatlar yuz berishi mumkin?
3. Tabiiy tusdagi favqulodda vaziyatlar yuz berganda to‘g‘ri harakatlanish qoidalarini aytib bering.

2-mashg‘ulot. Nazariy. Texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar tushunchasi va ularning yuz berish sabablari

O‘quv faoliyati natijalari:



- Texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarni tavsiflay oladi.
- Kuchli ta’sir etuvchi zararli moddalar (KTEZM)ni biladi.
- Texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar yuz berganda to‘g‘ri harakatlana oladi.

Bilasizmi?

Texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlarning inson faoliyati bilan qanday bog‘liqlik tomonlari bor?

Eslab qoling!

Falokat (avariya) – mashina va mexanizmlar, dastgoh va qurilmalar, quvvat ta’minoti tizimlari, transport vositalari, bino va inshootlarning buzilishi va ishdan chiqishi. Ular keltirib chiqargan talofat obyektlar uchun jiddiy bo‘lmaydi, inson o‘limiga olib kelmaydi.

Halokat (katastrofa) – yirik avariya holati. U obyekt uchun jiddiy holatni keltirib chiqaradi, ko‘plab insonlarning o‘limiga olib keladi.

Texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlar



Transport avariyalari va halokatlar. Bularga ekipaj a’zolari va yo‘lovchilarning o‘limiga, transport vositalarining to‘la parchalanishiga yoki qattiq shikastlanishiga olib keluvchi aviahalokatlar, temir yo‘l transportidagi avariya va halokatlar, metropoliten bekatlari va tunnellardagi avariyalar

va yong‘inlar, odamlarning o‘limi va yong‘inlarga, shuningdek, kuchli ta’sir etuvchi zaharli moddalarning tarqalib ketishiga olib keluvchi avtomobil avariyalari kiradi.



Kimyoviy xavfli obyektlardagi avariyalar. Bularga atrof-muhitga kuchli ta’sir etuvchi zaharli moddalarning tarqalib ketishiga, odam, hayvon va o‘simliklarning nobud bo‘lishiga olib keluvchi avariya, portlash va yong‘inlar kiradi. O‘quv yurtlari joylashgan yoki aholi yashash joylari yaqinida joylashgan turli ishlab chiqarish korxonalarida kimyoviy zaharli moddalar ishlatilishi mumkin. Ularda turli ko‘ngilsiz hodisalar va boshqa sabablar tufayli ishlab chiqarish falokatlari, hatto halokatlar yuz berishi, natijada odamlar halok bo‘lishi, moddiy boyliklar yo‘q qilinishi mumkin.



Yong‘in-portlash xavfi mavjud bo‘lgan obyektlardagi avariyalar. Bularga oson portlaydigan, oson yonib ketadigan moddalar va materiallar ishlatiladigan yoki saqlanadigan obyektlardagi avariyalar, portlash va yong‘inlar, shuningdek, ko‘mir shaxtalaridagi, kon-ruda sanoatidagi gaz va chang portlashi bilan bog‘liq avariyalar, yong‘inlar va jinslar qo‘porilishi kiradi.

Yong‘inlar va portlashlar. Yong‘in nazoratsiz yonish jarayoni bo‘lib, bino va konstruksiyalarning shikastlanishi, ko‘pincha esa inson o‘limi bilan birga kechadi. Yong‘inlar mahalliy (lokal), yirik ko‘lamli va halokatli yong‘inlarga bo‘linadi.

Mahalliy yong‘inlarga turarjoy, korxona, tashkilot, muassasalarning alohida binolarida sodir bo‘ladigan yong‘inlar kiradi. Ularni bir yoki bir necha soat davomida o‘chirish mumkin.

Yirik ko‘lamli yong‘inlar bir necha uy, korxonalarning bir necha sexi, burg‘ulash minoralari, neft omborlariga katta moddiy zarar yetkazadi. Bunday yong‘inlarni bir necha sutka davomida ko‘plab texnik vositalar yordamida o‘chirish mumkin.

Halokatli yong‘inlarga korxona yoki transportdagi yong‘inlar kiradi. Ular natijasida ko‘plab odamlar halok bo‘ladi.

Yong‘inning shikastlovchi omillari:

- ochiq olov va uchqunlar, havoning, atrofdagi buyum va boshqalarning yuqori harorati;
- yonish mahsulotlari zaharliligi;
- tutun va u bilan bog‘liq ko‘rinishning chegaralanganligi;

- kislorodning past konsentratsiyasi;
- bino va konstruksiyalarning qulab tushishi va vayron bo‘lishi;
- portlashlar.

Portlash juda qisqa lahzali kimyoviy reaksiya bo‘lib, cheklangan hajmda katta miqdordagi energiyaning ajralib chiqishi bilan xarakterlanadi.



Portlashga portlovchi moddalarni saqlashda xavfsizlik qoidalarining buzilishi, uchuvchan moddalar solingan idishlarning qizishi, gazlarning chiqib ketishi, uchuvchi moddalar aerozollari, chang-havo aralashmasining hosil bo‘lishi, portlovchi moddalarning o‘z-o‘zidan yemirilishi, qo‘poruvchilik va terrorchilik harakatlari sabab bo‘ladi.

Portlashlarning asosiy shikastlovchi omillari:

- *mexanik (dinamik)*: portlash to‘lqini, binolarning vayron bo‘lgan elementlari bilan bosib qolishi;
- *uchuvchan moddalarning yonuvchi aralashmasi*. Uning tarqalish zonasida darhol kislorod sarflanadi, harorat 6000 ºC gacha ko‘tariladi, portlash to‘lqini shakllanadi. Yong‘inlar suv gidranti yoki o‘t o‘chirgichlar yordamida o‘chiriladi.

Energetika va kommunal tizimlardagi avariyalar. Bularga aholi hayot faoliyatining buzilishiga, energiya ta’minotisiz qolishiga olib keladigan GES, GRES, IESlardagi, issiqlik markazlaridagi, energiya ta’minot obyektlaridagi, gaz quvurlari, suv quvurlari va boshqa kommunal obyektlardagi avariyalar kiradi.



Ijtimoiy yo‘nalishdagi obyektlar, uy-joy sektori binolari konstruksiyalarining to‘satdan buzilishi. Bularga zudlik bilan avariya-qutqaruv ishlarini talab etadigan, odamlar o‘limi bilan bog‘liq bo‘lgan maktab, shifoxona, kinoteatr kabi binolardagi buzilish, yong‘in va gaz portlashlari kiradi.

Radioaktiv va boshqa xavfli hamda ekologik jihatdan zararli moddalardan foydalanish yoki ularni saqlash bilan bog‘liq avariyalar. Bularga radioaktiv moddalardan foydalaniladigan obyektlardagi avariyalar, radioaktiv moddalarni tashish paytidagi avariyalar, radioizotop moddalarning yo‘qotilishi kiradi.

Gidrotexnik halokatlar va avariyalar. Bularga suv omborlaridagi, daryo va kanallardagi buzilishlar va halokatli suv bosishlari kiradi.



Kuchli ta’sir etuvchi zaharli moddalar

Ba’zi korxonalarda kuchli ta’sir etuvchi zaharli moddalar ishlab chiqariladi. Ishlab chiqarish falokatlari, tabiiy ofatlar va boshqa sabablar tufayli kuchli ta’sir etuvchi zaharli moddalar (KTEZM) to‘kilib (oqib) ketishi mumkin. Bunda joy va havoning zaharlanishi natijasida zaharli bulut hosil bo‘lib, yaqin orada joylashgan o‘quv yurtlari va aholiga xavf soladi.

Kuchli ta’sir etuvchi zaharli moddalar qatoriga ammiak, xlor, ftorli vodorod, xlorli vodorod, oltingugurtli vodorod, azot oksidi, uch xlorli fosfor va boshqalarni qo‘shish mumkin.

Ishlab chiqarishda yuz beradigan texnogen tusdagi favqulodda hodisalarning sabablari quyidagilardan iborat:

- rahbar va xodimlar mas’uliyatsizligi;
- xavfsizlik qoidalarining buzilishi;
- asbob-uskunalarning eskirishi, o‘z vaqtida ta’mirlanmasligi va yangilari bilan almashtirilmasligi;
- asbob-uskunalarning noto‘g‘ri qurilishi.

Savol va topshiriqlar

1. Texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlarning yuz berishiga nimalar sabab bo‘ladi?
2. Tabiiy va texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlar orasidagi farqlarni taqqoslang.
3. Kuchli ta’sir etuvchi zaharli moddalarning insonga ta’sir etuvchi omillarini sanab bering.
4. Texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlarda harakat qilish bo‘yicha tavsiyalarga izoh bering.

Epidemiologik, epizootik va epifitotik vaziyatlar	Texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar

VI.3. OMMAVIY QIRG‘IN QUROLLARI VA ULARDAN AHOLINI HIMOYA QILISH

1-mashg‘ulot. Nazariy. Yadroviy qurol. Yadroviy zararlanish o‘chog‘i. Termoyadro quroli. Neytron bombasi. Kimyoviy qurol

Fan va texnika taraqqiy etishi bilan radiaktiv moddalar ommaviy qirg‘in quroli va energiya manbayi sifatida (atom elektr stansiyalari, suv osti kemalarida) qo‘llanila boshladi. Dushman tomonidan yadroviy qurol qo‘llanilganda yoki atom elektr stansiyalarida turli falokatlar yuz berganda, odamlar va hayvonlarning hayotiga xavf soluvchi o‘tib-kirib boruvchi radiatsiya va joylarning radioaktiv zaharlanishi yuz beradi.

Bilasizmi? Mamlakat va insonlarga ommaviy ravishda ta’sir etuvchi qirg‘in qurollari haqida nimalarni bilasiz?

O‘quv faoliyati natijalari:



- Yadroviy qurol va uning shikast yetkazuvchi omillarini tavfsiflay oladi.
- Termoyadro quroli va neytron bombasini taniydi.
- Kimyoviy qurol va zaharlovchi moddalarni aytib beradi.

Tayanch so‘zlar:

ommaviy qirg‘in quroli, radioaktiv moddalar, yadroviy qurol, termoyadro quroli, neytron bombasi, radionuklidlar.

Ikkinchi jahon urushi nafaqat o‘zining ko‘lami, urush tufayli halok bo‘lgan odamlar soni va urush qoldirgan moddiy va ma’naviy zararlar bilan, balki unda ommaviy qirg‘in qurolidan biri – yadroviy qurol qo‘llanilgani bilan ham insoniyat xotirasida esda qoldi.

Ommaviy qirg‘in quroli deb, nisbatan qisqa vaqt ichida ulkan hududlarda odamlar va hayvonlarni yalpi nobud bo‘lishiga, bino va inshootlarning vayron bo‘lishiga, yuqumli kasalliklarning tarqalishiga olib keladigan qurolga aytiladi.

Odatda, ommaviy qirg‘in quroliga *yadroviy, kimyoviy* va *bakteriyaviy* qurollar kiradi. Hozirda dunyoning ba’zi mamlakatlarida lazerli qurol, geofizik qurol, ozon quroli, iqlim quroli kabi qurollar yaratilish bosqichida turibdi. Bu qurollar ham keyinchalik ommaviy qirg‘in

qurollari safiga qo‘shilishi mumkin. Ommaviy qirg‘in qurollarining eng yoshi va qudratlisi (vayronkori) *yadroviy* quroldir.



Yadroviy qurol – ichki yadro energiyasi asosida portlab ta’sir etadigan ommaviy qirg‘in quroli. U o‘zida turli yadroviy aslaha (raketa, bomba, snaryad)larni, ularni boshqarish hamda nishonga yetkazish vositalarini jamlaydi.

Yadroviy qurol qo‘llangan joyga *yadroviy zararlanish o‘chog‘i* deyiladi. Yadro zaryadi portlatilganda, soniyaning milliondan bir qismida juda katta miqdorda energiya ajralib chiqadi va u yerda harorat bir necha million gradusga, maksimal bosim esa milliard atmosferaga yetadi. Yuqori harorat va yuqori bosim qudratli zarba to‘lqini va yorug‘lik nurlanishini keltirib chiqaradi. Shu bilan birga neytron va gamma nurlaridan iborat o‘tib-kirib boruvchi radiatsiya tarqaladi. Radiatsiyaning tarqalishi 10–15 soniya davom etadi. Yadro portlashi natijasida hosil bo‘lgan bulut yadro portlashi mahsulotlarini atrofga tarqatadi, ya’ni bunda joylarning radiaktiv moddalar bilan zararlanishi yuz beradi.

Eslab qoling!

Yer sathidan 1 m balandlikda o‘lchangan doza quvvatiga *radiatsiya darajasi* deyiladi. Nurlanish darajasi dozimetrik asboblar yordamida o‘lchanadi. Radiatsiyaning o‘lchov birligi – rentgen.

Rentgen (R) – gamma nurlanishning miqdori. U 1 cm^3 quruq havoda 0 °C va bosim 760 mm simob ustuniga teng bo‘lganda $2{,}082 \times 10^9$ juft ionlarni hosil qiladi.



Zarbali to‘lqin – yadro portlashining asosiy shikastlovchi omili. Juda ko‘p bino va inshootlarning vayron bo‘lishi, odamlarning shikastlanishi zarb to‘lqinining hissasiga to‘g‘ri keladi. U portlash markazidan to‘rt tomonga tovush tezligidan ham yuqori tezlikda tarqaluvchi juda katta bosimda siqilgan havo qatlami (zonasi) hisoblanadi. Siqilgan havo zonasining oldingi sohasiga *zarbali to‘lqinning fronti* deyiladi. Zarbali to‘lqinning shikastlovchi ta’siri ortiqcha bosimning kattaligi bilan xarakterlanadi.

Ortiqcha bosim – zarbali to‘lqinning frontidagi maksimal bosim va to‘lqin fronti oldidagi normal atmosfera bosimi o‘rtasidagi farq. Ortiqcha bosim kv. metrga Nyutonda (N/m^2) o‘lchanadi.

Nurlanish – ultrabinafsha, ko‘rinadigan va infraqizil nurlardan iborat nurlanish energiya oqimi. Uning manbayi – portlashda hosil bo‘ladigan olovli shar. Yorug‘lik nurlanishi lahza ichida tarqaladi va portlash quvvatiga ko‘ra 10–20 soniyagacha davom etishi mumkin. U terini kuydirishi, ko‘rish organlarini shikastlashi va quruq narsalarni yondirib yuborishi mumkin. Shaffof bo‘lmagan (soya beradigan) har qanday narsa undan himoya qila oladi va kuyishning oldini oladi.



O‘tuvchan radiatsiya – gamma nurlar va neytronlar oqimi. U 10–15 soniya davom etadi. Gamma nurlar va neytronlar tirik to‘qimalardan o‘tayotib, hujayra tarkibiga kiruvchi molekulalarni ionlashtiradi. Ionlashish natijasida organizmda nurlanish kasalligini rivojlantiruvchi va ayrim a’zolar funksiyalarining buzilishiga olib keluvchi biologik jarayon yuz beradi. Yadro portlashi energiyasining 5 foizi o‘tib-kirib boruvchi radiatsiyaga sarf bo‘ladi.



Eslab qoling!

Nurlanishlar o‘rab turgan muhit materiallaridan o‘tar ekan, uning intensivligi pasaya boradi. Masalan, 2,8 cm li po‘lat, 10 cm li beton, 14 cm li tuproq, 30 cm li yog‘och gamma-nurlanish intensivligini 2 barobar pasaytiradi. Ochiq va yopiq o‘ralar o‘tib-kirib boruvchi radiatsiya ta’sirini kamaytiradi, panagoh va radiatsiyga qarshi pana joylar esa undan to‘la saqlaydi.

Joylarning radioaktiv moddalar bilan zararlanishi yadro portlashi natijasida hosil bo‘ladi. Bunga portlash energiyasining taxminan 10 % sarflanadi.



Elektromagnitli impuls – yadro quroli portlaganda hosil bo‘ladigan qisqa davrli elektromagnit to‘lqini. Bu qisqa elektromagnit to‘lqini yadroviy qurol portlaganda hosil bo‘ladigan gamma nur va neytronlarni o‘rab turgan muhit atomlari bilan o‘zaro ta’sirlashganda hosil bo‘ladi. Elektromagnitli impulsning ta’siri tufayli radioelektron va elektrotexnik apparaturalarning ba’zi qismlari kuyadi yoki ishlamay qoladi. Elektr uzatish va aloqa tarmoqlari ishdan chiqadi.

Yadroviy qurol yer yuzasida portlaganida olovli shar yerga tegadi. Uning ichiga bug‘langan tuproq massalari so‘riladi va tepaga ko‘tariladi. Tuproqning va bo‘linish massalarining bug‘lari sovugach, qattiq zarrachalarga aylanadi. Natijada, radiaktiv bulut hosil bo‘ladi. U ko‘p kilometrli balandlikka ko‘tariladi va shamol yo‘nalishida harakatlanadi. Radiaktiv zarrachalar bulutdan yerga to‘kilib, radiaktiv zaharlanish zonasini paydo qiladi. Uning uzunligi bir necha yuz kilometrni tashkil etishi mumkin.



A – zaif zararlanish zonasi (40 – 400 R/s).

B – kuchli zararlanish zonasi (400 – 1200 R/s).

V – xavfli zararlanish zonasi (1200 – 4000 R/s).

G – favqulodda xavfli zararlanish zonasi (4000 R/s dan yuqori).

Termoyadro quroli (vodorod bombasi)

Termoyadro quroli (vodorod bombasi) yadroviy qurolning bir turi bo‘lib, uning vayron etuvchi kuchi yengil elementlarning og‘ir elementlarga sintezlanish reaksiyasi energiyasidan foydalanishga asoslangan. Bunday sintezlanishda ulkan miqdorda energiya ajralib chiqadi. Uning tuzilishi atom bombasining tuzilishidan farq qilmaydi, faqat uning tarkibiga termoyadro zaryadi va tabiiy Uran-238 kiritilgan.

Vodorod bombasining tarkibi termoyadro sifatida deyteriy va tritiy (og‘ir va juda og‘ir vodorod)dan iborat. Vodorod bombasi portlaganda, kuchli termoyadro reaksiyasi ro‘y beradi va juda ko‘p energiya (issiqlik) ajralib chiqadi. Vodorod bombasining kritik massasi mavjud emas. Demak, bomba cheklanmagan miqdorda katta bo‘lishi mumkin.

Neytron bomba yadroviy qurolning uchinchi avlodiga mansub. Uning portlash kuchi ancha kuchsiz hisoblanadi. Bomba portlaganda ajralib chiqqan energiyaning asosiy qismini neytronlar oqimi tashkil qiladi. Neytron bomba portlaganda, portlash energiyasining 80 % ini neytron va gamma-nurlanish, qolgan 20 % ini boshqa shikastlovchi omillar tashkil qiladi. Bunda o‘tib-kirib boruvchi radiatsiyaning zararlash zonasi zarbali to‘lqinning zararlash zonasidan bir necha barobar katta bo‘ladi. Bu zonada odamlar halok bo‘ladigan darajada shikastlanadi, ammo bino va texnikalar butun qoladi.

Kimyoviy qurol – ta’sir etishi bir qator kimyoviy moddalarning zaharlovchi xususiyatiga asoslangan ommaviy qirg‘in quroli. Bunga jangovar zaharlovchi moddalar hamda ularni qo‘llash vositalari kiradi.

Samolyotlar ortidan yer tomon cho‘zilib qoladigan qora yo‘llar, barg, bino, tuproqda paydo bo‘lib qolgan moyli dog‘lar, shuningdek, portlagan bomba va snaryadlar atrofidagi moyli dog‘lar, o‘simlik barglari tabiiy rangining o‘zgarishi, odam ko‘z, burun, tomoqlaridagi achishish, ko‘z qorachig‘ining kichrayib ketishi (mioz), ko‘krakda og‘irlikni his qilish – bularning barchasi kimyoviy qurol qo‘llanganligining belgilaridir.

Zaharlovchi moddalar shunday kimyoviy birikmalarki, ular qo‘llanilganda katta maydondagi odam va hayvonlarni shikastlaydi, joylar va suv havzalarini zaharlaydi. Zaharlovchi moddalar bilan raketalar, aviatsion bombalar, artilleriya snaryadlari, kimyoviy fugaslar, shuningdek, to‘kadigan aviatsion asboblar o‘qlanishi mumkin. Qo‘llanilayotgan zaharlovchi moddalar tomchi-suyuq holda, bug‘ va aerozol ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.

Jangovar zaharlovchi moddalarning tasnifi

O‘limga olib keluvchi	asabni falaj qiluvchi	GB (zarin), GD (zoman), VX (V gazlari)
	terini yiringlatuvchi	HD (iprit), HL (lyuizit)
	bo‘g‘uvchi	CG (fosgen), difosgen
	umumiy zaharlovchi	AG (sinil kislotasi), CK (xlorsian)
Vaqtinchalik safdan chiqaruvchi	psixokimyoviy	BZ (Bi-Zet)
Achishtiruvchi	achishtiruvchi-kuydiruvchi	Cs (Si-Es)



Zaharlovchi moddalarning odam organizmiga ta’sir etish yo‘llari

*Umumiy zaharlovchi moddalar*ga sinil kislotasi va xlorsian kiradi. Bu moddalar odamga faqat nafas yo‘llari orqali ta’sir etadi. Og‘izda temir ta’mining paydo bo‘lishi, tomoqning achishishi, bosh aylanishi, qayt qilish, tutqanoq tutishi, falaj bo‘lishlik zaharlanganlik belgilaridir. Himoyalanish uchun gazniqobdan foydalanishning o‘zi kifoya.

*Achishtiruvchi-kuydiruvchi moddalar*ga CS, adamsit va boshqalar kiradi. Bu moddalar odamga ta’sir etgach, og‘izda, tomoq va ko‘zlarda og‘riq paydo bo‘ladi, yosh oqadi, yo‘tal tutadi va nafas olish qiyinlashadi.

Kimyoviy binar quroli – kimyoviy qurolning bir ko‘rinishi. Binar quroli ikkita zaharli bo‘lmagan kimyoviy moddalardan tashkil topadi. Mos keladigan zaharli moddani olish uchun komponentlar “suyuqlik-suyuqlik”, “suyuqlik-qattiq jism” holida bo‘lishi mumkin. Bu elementlarga kimyoviy reaksiyani tezlashtiruvchi katalizatorlar va boshlang‘ich komponentlarning turg‘unligini ta’minlab beruvchi stabilizatorlarni qo‘shish mumkin.

Kimyoviy qurolning yo‘naltirilgan joygacha uchib borishi davomida boshlang‘ich komponentlar aralashib ketadi va kimyoviy reaksiyaga kirishib, yuqori darajadagi zaharli modda (Vi-Iks, zarin)ni hosil qiladi.

Savol va topshiriqlar

1. Radioaktiv moddalarga qaysi moddalar kiradi?
2. Ommaviy qirg‘in qurollarining shikastlovchi omillari haqida nimalarni bilasiz?
3. Ommaviy qirg‘in qurollaridan himoyalanish bo‘yicha xavfsizlik qoidalarini o‘rganish.

2-mashg‘ulot. Nazariy. Bakteriyaviy (biologik) qurol. Karantin va observatsiya. Zamonaviy oddiy qirg‘in vositalari

Bilasizmi?	Insonlar orasida yuqumli kasalliklarni keltirib chiqaruvchi sabablarga nimalar kiradi?

O‘quv faoliyati natijalari:



- Bakteriyaviy qurol va u qo‘llanilganda namoyon bo‘luvchi belgilarni aytib beradi.
- Asosiy bakteriologik (biologik) vositalarnini tavsiflaydi.
- Karantin va observatsiya nimaligini biladi va tavsiflay oladi.
- Zamonaviy oddiy qirg‘in vositalarini biladi va tavsiflay oladi.
- Parchalanuvchi, sharikli, fugasli qurol-aslahalarni taniydi.
- Yondiruvchi qurollar, ulardan qanday himoyalanishni biladi.

Qurolning bu turi mikroorganizm (bakteriya, virus, rikketsia, zamburug‘)larning kasallik keltirib chiqaruvchi xususiyatlariga asoslangan. Bakteriyaviy qurolga kasallik keltirib chiqaruvchi mikroorganizmlarning retsepturalari, ularni nishonga eltuvchi vositalar (raketa, aviatsiya bombalari va konteynerlar, aerozol changlatgichlar, artilleriya snaryadlari) kiradi.

Eslab qoling!

Bakteriyaviy qurol qo‘llanganligining belgilari: bomba va snaryadlar portlashidagi g‘ayrioddiy bo‘g‘iq tovushlar, joylarda suyuqlik tomchilari yoki kukunsimon moddalarning paydo bo‘lishi; bombalar portlagan yoki konteynerlar tushgan joylarda mayda jonivorlarning g‘ayrioddiy to‘planishi; odamlar va hayvonlarning ommaviy kasallanishi.

Dushman tomonidan bakteriyaviy qurol qo‘llanganligi laboratoriya tekshiruvlari orqali aniqlanadi.

Bakteriyaviy qurollar ulkan hududlarda odamlar va hayvonlar o‘rtasida ommaviy xavfli kasalliklarni keltirib chiqaradi.

Qurolning bu turidan aholini himoya qilish usullariga quyidagilar kiradi: yuqumli kasalliklarga qarshi maxsus va shoshilinch ishlatiladigan vaksina – zardob preparatlari, antibiotiklar, sulfanilamit va boshqa dorivor moddalar, shuningdek, shaxsiy va jamoaviy himoya vositalaridan foydalanish.

Eslab qoling!

Observatsiya – kasallanganlarni aniqlash va alohida ajratish maqsadida maxsus tashkil etilgan tibbiy kuzatish. Bunda bir vaqtda antibiotiklar yordamida kasallanishga qarshi profilaktika ishlari o‘tkaziladi, emlash amalga oshiriladi, gigiyena talablariga rioya etish kuzatib turiladi.

Zamonaviy oddiy qirg‘in qurollariga *parchalanuvchi, fugasli va yondiruvchi* vositalar kiradi. O‘zining quvvati va shikastlash omillari bo‘yicha ularning ba’zi birlari ommaviy qirg‘in qurollariga teng kela oladi.

Parchalanuvchi, sharikli, fugasli, portlash bilan hajmi oshadigan qurollar. Parchalanuvchi aslahalarning xususiyati shundaki, qo‘llanilganda bu qurollar bir necha yuzdan bir necha mingtagacha sharcha, ignacha va yoychalarga o‘xshash parchalarga ajraladi. Uning og‘irligi bir necha grammgacha bo‘ladi.

*Yondiruvchi qurol*ning odam, texnika va boshqa obyektlarga shikastlovchi omili yuqori haroratning bevosita ta’siriga asoslangan. Yondiruvchi qurol o‘z ichiga yonuvchan modda va uni qo‘llash vositasini oladi.

Yonuvchan moddalar uchta asosiy guruhga bo‘linadi:

- neft mahsulotlari asosidagi tarkiblar;
- metallashtirilgan yonuvchan moddalar;
- termitli tarkiblar.

Oq fosfor yarim shaffof qattiq modda bo‘lib, havoda kislorod bilan birikishi natijasida yonib ketadi. Yondiruvchi qurollarni qo‘llash vositalari sifatida aviatsiya bombalari, kassetalar, artilleriya yondiruvchi aslahalari, ognemyotlardan foydalaniladi. Yondiruvchi qurollardan himoyalanishning eng yaxshi vositasi – panada yashirinish. Agar yonuvchi aralashma kiyimga tekkan bo‘lsa, yonayotgan joy mato bilan mahkam yopiladi yoki tuproq (loy) bilan ko‘miladi yoki suvga botiriladi.

Portlaganda hajmi ortadigan bomba (vakuumli bomba). 2007-yildan ishlab chiqarila boshlandi va “barcha bombalar otasi” degan nom olgan. Quvvati bo‘yicha yadroviy quroldan so‘ng ikkinchi o‘rinda turadi.





Portlaganda hajmi ortadigan bomba (vakuumli bomba). Yuqorida: 1 – elektromexanik qurilma; 2 – detonator; 3 – portlovchi modda (suyuq yoqilg‘I – suyuq etilen); 4 – stabilizator; 5 – parashyut.

Pastda vakuumli bombaning ishlash prinsipi: 1 – belgilangan balandlikda suyuq portlovchi modda aerozol bulut holatida purkalishi; 2 – aerozol bulut portlab, o‘ta yuqori bosim zonasining hosil bo‘lishi (yuqori bosim va harorat 500 m radiusda barcha narsani yo‘q qiladi); 3 – faqat kuygan yer qoladi, hech qanday kimyoviy yoki riadioaktiv zaharlanish yuz bermaydi.

Savol va topshiriqlar

1. Yuqumli kasalliklarni qo‘zg‘atuvchi mikroorganizmlarni sanab bering.
2. Karantin va observatsiyaning farqi nimada?
3. Kimyoviy va bakteriyaviy qurollardan foydalaniliganda aholini xabardor qilish tartibini ayting.
4. Zaharlovchi moddalar turlari haqida buklet tayyorlash.
5. Har bir o‘quvchi tomonidan ko‘rsatilgan qurol turlari bo‘yicha tushunchalarning bayon etilishi.

Tushunchalar	Sizningcha, bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?	Qo‘shimcha ma’lumot
Yadroviy qurol		
Termoyadro quroli		
Neytron bombasi		
Kimyoviy va bakteriyaviy kurol		
Parchalanuvchi, sharikli, fugasli aslahalar. Yondiruvchi qurollar		

VI.4. SHAXSIY (INDIVIDUAL) HIMOYA VOSITALARI, VAZIFASI, TUZILISHI VA ULARDAN FOYDALANISH TARTIBI

1-mashg‘ulot. Nafas olish organlarini himoya qiluvchi individual vositalar. Fuqaro gazniqoblari. Ularning vazifasi, tuzilishi va ulardan foydalanish. Respirator. Changga qarshi matoli niqob, paxta-doka bog‘lagich va ulardan foydalanish

Bilasizmi? Qanday kiyimlar shaxsiy himoya vositalari deb ataladi?

O‘quv faoliyati natijalari:



- Nafas olish organlarini himoya qiluvchi individual vositalarini biladi.
- Fuqaro gazniqoblarini farqlaydi, tavsiflaydi, ularning vazifasi, tuzilishi va ulardan foydalanishni biladi.
- Respirator, changga qarshi matoli niqob va paxta-doka bog‘lagich himoya vositalari va ulardan foydalanishni biladi.

Tayanch so‘zlar:

Shaxsiy himoya vositalari – odam teri qoplami va nafas olish organlarini havodagi zaharlovchi moddalar va boshqa zararli aralashmalardan himoya qiluvchi vositalar (faollashtirilgan ko‘mir, silikogel).

Adsorbent – atrof-muhitdan gaz va bug‘larni tanlab yutib oluvchi moddalar.

Respirator – nafas olish organlarini radiaktiv chang va bakterial aerozollardan himoya qilishga mo‘ljallangan yengillashtirilgan himoya vositasi.

Shaxsiy himoya vositalari organizm ichiga, teri qoplami va kiyimga radiaktiv, zaharlovchi moddalar va bakteriyaviy vositalarning tushishidan himoya qilishga mo‘ljallangan. Ularga nafas olish organlarini himoya qiluvchi vositalar (gazniqoblar, respiratorlar, changga qarshi matoli niqob, paxta-doka bog‘lagich) va terini himoya qiluvchi vositalar (himoya kiyimi, terini himoya qiluvchi qo‘l osti vositalari) kiradi.

Nafas olish organlarini himoya qiluvchi vositalarga filtrlovchi gazniqoblar – umumqo‘shin va fuqaro gazniqoblari (GP-5m, GP-4u, PDF-SH, GP-7) kiradi. Ularning himoyalash prinsipi odam olayotgan havoni zaharli aralashmalardan tozalash (filtrlash)ga asoslangan.



Umumqo‘shin gazniqobi

GP-5



GP-4U



Fuqaro gazniqoblari (GP-5 va GP-4U)

Eslab qoling!

Gazniqob – odamning yuzi va ko‘zini havodagi bug‘, gaz, aerozol ko‘rinishidagi zaharlovchi moddalardan saqlovchi shaxsiy himoya vositasi.

Umumqo‘shin gazniqobi filtrlovchi-yutuvchi quti va yuz qismdan iborat. Bundan tashqari gazniqob jamlanmasiga sumka hamda terlashga qarshi plyonkalar solingan quticha ham kiradi.

Gazniqobning filtrlovchi-yutuvchi qutisi nafas uchun olinayotgan havoni radioaktiv, zaharli moddalar va bakteriyaviy vositalardan tozalashga xizmat qiladi



GP-7 filtrlovchi fuqarolar gazniqobi:
1 – yuz qismi; 2 – filtr quti; 3 – matoli g‘ilof;
4 – nafas olish klapani uzeli;
5 – so‘zlashish moslamasi; 6 – nafas chiqarish klapani uzeli.

Gazniqob yig‘ishtirilgan holda sumkaga solinadi. Gazniqob quyidagi usulda yig‘ishtiriladi: filtr-quti sumkaga solinadi; shlyom-niqob uzunasiga, so‘ngra eniga teng buklanib, ikkala oynasi ham yopiladi; birlashtiruvchi nay va shlyom-niqob sumkaga joylanadi.

Gazniqob quyidagi holatda olib yuriladi:

- “Safar” holatida gazniqob chap yonda olib yuriladi, bunda sumkaning og‘zi yopilgan va bel barobarida bo‘ladi;
- “Tayyor” holatida sumka oldinga surilgan, og‘zi ochilgan, gazniqob bel tasmasi bilan mustahkamlangan bo‘ladi;
- “Jangovar” holatida shlyom-niqob boshga kiyilgan bo‘ladi.

Gazniqobni “jangovar” holatga o‘tkazish uchun nafas to‘xtatiladi, ko‘z yumiladi, bosh kiyim yechiladi va shlyom-niqob sumkadan olinib, boshga kiyiladi.

Zaharlangan havo sharoitida gazniqob shikastlanib (yirtilib) qolsa, ma’lum vaqt davomida undan foydalanishga to‘g‘ri keladi. Agar shlyom-niqob ozroq yirtilsa, uni qo‘l bilan yuzga ezib turiladi. Katta o‘lchamda yirtilsa, ko‘rish oynasi sinsa, nafas olish yoki chiqarish klapanlari ishdan chiqsa, nafas olish to‘xtatiladi, ko‘z yumiladi, shlyom-niqob yechiladi, biriktiruvchi nay filtr-qutidan burab ajratiladi, so‘ngra filtr-qutining bo‘g‘zi og‘izga solinib, undan to‘g‘ridan-to‘g‘ri nafas olinadi. Filtr-quti zararlansa, loy yoki xamir yordamida teshik yamaladi. Agar biriktiruvchi nayga zarar yetsa, u burab chiqarib tashlanadi va filtr-quti to‘g‘ridan-to‘g‘ri shlyom-niqobga burab qotiriladi.

Respirator R-2 va undan foydalanish

R-2 respiratori uch qavatli materialdan tayyorlangan. Ichkari qavati polimer polietilen plyonka bilan o‘ralgan. Havo o‘tkazish uchun ikkita nafas oluvchi klapan o‘rnatilgan.



Respirator R-2: A) yarim niqob; B) tasma; 1 – nafas chiqarish klapani; 2 – nafas olish klapani; 3 – burun qisqichi; 4 – elastik tasmacha; 5 – cho‘zilmaydigan tasmachalar.

Eslab qoling!

Respirator nafas olish organlarini radiaktiv chang va bakterial aerozollardan himoya qilishga mo‘ljallangan yengillashtirilgan himoya vositasidir.

SHB-1 “Lepestok” respiratori maxsus yuqori filtrlash xususiyatga ega materialdan tayyorlangan. Respirator ishlatib bo‘linganidan so‘ng dezaktivizatsiya qilinadi.



SHB-1 "Lepestok"



"Kama-200"



F-62SH



RPA-1

Nafas olish organlarini himoya qiluvchi oddiy vositalarga paxta-doka bog‘lagichlar va changga qarshi matoli niqoblar (CHQMN-1) kiradi. Ular nafas olish organlarini radiaktiv chang va bakteriyaviy aerozollardan himoya qilishga mo‘ljallangan. Ammo ular kimyoviy zaharli moddalardan himoya qila olmaydi.



*Paxta-doka bog‘lagich*ni tayyorlash uchun 100×50 cm o‘lchamda doka olinadi. Unga 1–2 cm qalinlikda paxta solinadi. Dokaning chekkalari buklanadi, ikki tomonidan 30–35 cm uzunlikda ayri holatida qirqiladi. Bog‘lagich jag‘, og‘iz va burunni yopishi lozim.



Changga qarshi matoli niqob korpus va mahkamlagichlardan iborat. Korpus 4–5 qavat matodan tayyorlanadi. Niqobning boshga mahkam yopishishi rezinali tasma yordamida ta’minlanadi.

Savol va topshiriqlar

1. Shaxsiy himoya vositalariga nimalar kiradi?
2. Gazniqoblar ishlash prinsipini izohlab bering.
3. Respirator nimalardan himoya qilishga mo‘ljallangan?
4. Oddiy himoya vositalari qanday tayyorlanadi?

Nafas olish organlari va terini himoya qiluvchi individual vositalar	Xususiyatlari	
	Tuzilishi	O‘lchamlari
Umumqo‘shin gazniqoblari		
Respiratorlar		
Changga qarshi matoli niqob (CHQMN-1), paxta-dokali bog‘lam gazniqoblar		
Umumqo‘shin himoya jamlanmasi (UQHJ)		
Himoyalovchi-filtrlovchi kiyim (HFK)		
Nafas olish organlari va terini himoya qiluvchi qo‘lbola vositalar		

2-mashg‘ulot. Amaliy. Terini himoya qilish vositalari. Maxsus himoya vositalari: umumqo‘shin himoya jamlanmasi, yengil kostyum, himoyalovchi-filtrlovchi kiyim. Umumqo‘shin himoya jamlanmasidan yoping‘ich, yengli plash, kombinezon ko‘rinishida foydalanish. L-1 yengil kostyumini kiyish. Terini himoya qilishning qo‘lbola vositalaridan foydalanish. Germetizatsiyalash va aralashma shimdirish orqali himoya xususiyatlarini oshirish

Tayanch so‘zlar:

Terini himoya qiluvchi maxsus himoya vositalari – nam o‘tkazmaydigan matodan maxsus tikilgan himoya vositalari.

Terini himoya qiluvchi qo‘lbola himoya vositalari – odamlar turmushda foydalanadigan, namni oson o‘tkazib yubormaydigan qalin kiyim-boshlar.

O‘quv faoliyati natijalari:

- Terini himoya qilish vositalarini taniydi va ajratadi.
- Maxsus himoya vositalari – umumqo‘shin himoya jamlanmasi (UQHJ), yengil kostyum (L-1), himoyalovchi-filtrlovchi kiyim (HFK)larni taniydi va biladi.
- Umumqo‘shin himoya jamlanmasidan yoping‘ich, yengli plash, kombinezon ko‘rinishida foydalanishni biladi.
- L-1 yengil kostyumini kiyish, terini himoya qilishning qo‘lbola vositalaridan foydalanishni biladi.
- Germetizatsiyalash va aralashma shimdirish orqali himoya xususiyatlarini oshirishni aytib beradi.

Terini himoya qilish vositalari odamlarni kimyoviy xavfli, teri orqali ta’sir etuvchi zaharlovchi moddalar (Vi-Iks, iprit, zoman), radiaktiv moddalar va bakteriyaviy vositalardan himoya qilish uchun mo‘ljallangan. Ular maxsus va qo‘lbola turlarga bo‘linadi. Terini himoya qilish vositalari, shuningdek, yadroviy portlashning yorug‘lik nurlanishidan ham himoya qiladi.

Maxsus himoya vositalariga umumqo‘shin himoya jamlanmasi, yengil himoya kostyumi va himoyalovchi-filtrlovchi kiyimilar kiradi. Ular turli chang va aerozollardan yuqori darajada himoyalash xususiyatiga ega.

Nafas olish organlarini himoya qiluvchi vositalar bilan bir jamlanmada odatdagi nam o‘tkazmaydigan yoping‘ich va plashlar, shuningdek, qalin palto, paxtali kurtkalar ham samarali ishlatilishi mumkin.



Umumqo‘shin himoya jamlanmasi: 1 – kapyushonli himoya plashi; 2 – himoya paypoqlari; 3 – himoya qo‘lqoplari.

Oyoqlarni himoya qilish uchun rezina etiklardan foydalanish mumkin. Bunday oyoq kiyimlari topilmasa, oyoq kiyimini qalin plyonka material bilan o‘rab, ustidan mato bilan chirmab bog‘lash lozim. Qo‘llarni himoyalash uchun rezina yoki teridan qilingan qo‘lqoplardan foydalaniladi.

Umumqo‘shin himoya jamlanmasi himoya plashi, himoya paypog‘i va himoya qo‘lqoplaridan iborat. Himoya plashi (OP-1) rezina qo‘shib to‘qilgan bo‘lib, uning yengi va qalpoqchasi bo‘ladi.

Plash to‘rt xil bo‘y o‘lchamida bo‘ladi. Himoya paypoqlari qalin rezinali matodan tayyorlanadi. Ular oyoq kiyimi ustidan kiyiladi, oyoqqa maxsus kamarcha va tugmachalar yordamida mahkamlanadi. Himoya paypoqlari uch xil bo‘y o‘lchamida tayyorlanadi.



Yengil himoya kostyumi L-1:
1 – kapyushonli ko‘ylak;
2 – paypoqli shim;
3 – podshlyomnik;
4 – qo‘lqop; 5 – sumka.

Yengil himoya kostyumi (L-1), odatda, radiatsion, kimyoviy va bakteriyaviy razvedka o‘tkazishda ishlatiladi. U rezina qo‘shilgan matodan tayyorlanadi va kapyushonli ko‘ylak, paypoqli shim, qo‘lqop va podshlyomnikdan iborat. Uning og‘irligi 3 kg. U ham uch xil bo‘y o‘lchamda tayyorlanadi:

- 1-bo‘y o‘lchami – bo‘yi 165 cm gacha bo‘lgan odamlar uchun;
- 2-bo‘y o‘lchami – bo‘yi 165–172 cm gacha bo‘lgan odamlar uchun;
- 3-bo‘y o‘lchami – bo‘yi 172 cm dan yuqori bo‘lgan odamlar uchun.

Himoyalovchi-filtrlovchi kiyim (HFK) terini radioaktiv chang va bakteriyaviy vositalardan hamda yorug‘lik nurlanishidan himoya qiladi. Maxsus pastaning suvdagi eritmasiga shimdirilsa, u zaharli moddalarning bug‘laridan ham himoya qilishi mumkin. Bu kiyim qalpoqchali kombinezon ko‘rinishida bo‘lib, yopishib turadigan yoqa va yenglarga ega.



Himoyalovchi-filtrlovchi kiyim (HFK)



Umumqo‘shin himoya jamlanmasidan foydalanish usullari

Himoya vositalaridan foydalanish

Umumqo‘shinlar himoya jamlanmasi maqsadga qarab “yoping‘ich”, “yengiga”, “kombinezon” holatlariga kiyilishi mumkin.

Jamlanma kutilmaganda dushman tomonidan bakteriyaviy vositalar qo‘llanib qolinsa yoki radioaktiv changlar tushsa, “yoping‘ich” holatida kiyiladi. Texnika vositalarini zararsizlantirish va bakteriyaviy hamda radioaktiv zaharlanish yuz bergan joyda harakat qilinganda “yengiga” holatida kiyiladi. Zaharlovchi moddalar qo‘llanilgan yoki kuchli kimyoviy va bakteriyaviy zaharlanish yuz bergan zonada harakat qilinganda “kombinezon” holatida kiyiladi.

Himoya kiyimlari zaharlanmagan joyda kiyiladi va zaharli zonada harakat qilib bo‘lingach, yana zaharlanmagan toza joyda yechiladi.

Terini himoya qiluvchi oddiy vositalar sifatida ishlab chiqarish kiyimlari (brezentdan tikilgan maxsus kiyimlar) va xo‘jalikdagi kiyimlar (plash, palto), shuningdek, rezinali etik va qo‘lqoplardan foydalanish mumkin.

Har kuni kiyiladigan kostyumlarni radioaktiv changlardan himoyalanish uchun moslash mumkin. Buning uchun shim va kurtkalarning poycha va yenglariga qo‘shimcha qo‘yib tikiladi, barcha tugmalar qadaladi, yoqasi ko‘tarilib, sharf bilan o‘raladi. Bunday kiyimlar zaharlovchi moddalardan ham himoya qila olishi uchun maxsus pasta (K-4) yoki sovun-moy emulsiyasi bilan shimdiriladi. 250–300 g maydalangan xo‘jalik sovuniga 0,5 *l* o‘simlik moyi qo‘shiladi va 2 *l* suvga (suvning harorati 60–70 °C) aralashtiriladi. Bunda avval sovun solinib eritiladi, so‘ng moy qo‘shiladi va aralashtiriladi. Kostyum mana shu aralashma solingan idishga botirib turiladi va yengil siqiladi, so‘ngra ochiq havoda quritiladi.

Terini himoya qiluvchi maxsus himoya vositalari ajratilgan maxsus joyda saqlanadi. Kiyim-bosh va oyoq kiyimlari kir va loylardan tozalangan, zarurati bo‘lsa, ta’mirlangan holda saqlanishi lozim. Himoya kiyimlari kimyoviy tozalovdan o‘tkazilgan va yuvilgan bo‘lishi kerak. Bunday choralar ularning xizmat muddatini uzaytiradi.

Savol va topshiriqlar

1. Terini himoya qilish bo‘yicha maxsus vositalarga nimalar kiradi?
2. Terini himoya qilish vositalarini “Yoping‘ich”, “Yengiga” va “Kombinezon” holatlarida kiyib ko‘rsating.
3. Terini himoya qiluvchi qo‘lbola vositalar qanday tayyorlanadi?
4. Umumqo‘shin himoya jamlanmasini (OZKni) kombinezon holatida kiyishni mashq qiling.

VI.5. FUQARO MUHOFAZASI HIMOYA INSHOOTLARI

1-mashg‘ulot. Panagohlar. Radiatsiyaga qarshi pana joylar. Oddiy pana joylar. Odamlarni himoya inshootlariga joylashtirish

Bilasizmi? Yuz berishi mumkin bo‘lgan favqulodda holatlarda qanday pana joylardan foydalanish mumkin?

Tayanch so‘zlar:

panagoh, radiatsiyaga qarshi pana joy, oddiy pana joylar.

O‘quv faoliyati natijalari:



- Panagohni taniydi va ajratadi.
- Radiatsiyaga qarshi pana joylarni taniydi va ajrata oladi.
- Oddiy pana joylar (ochiq va yopiq o‘ralar)ni taniydi va ajratadi.
- Aholini himoyalash uchun yerto‘la va boshqa chuqurlashtirilgan xonalarni moslashtirishni biladi.
- Oddiy pana joylarni qurish tartibini biladi.
- Odamlarni pana joylarga joylashtirish va ular tomonidan o‘zini tutish qoidalarini aytib beradi.

Mamlakatning ishlab chiqarish kuchlari va aholini dushmanning ommaviy qirg‘in qurolidan himoya qilish davlatning muhim vazifalaridan biridir. Bu vazifani hal qilish usullaridan biri iqtisodiyot obyektlari va aholi punktlarida odamlarni yashirish uchun turli xil himoya inshootlarini qurishdan iborat. Himoya inshootlari oldindan tayyorlangan bo‘lishi yoki maxsus ko‘rsatma bo‘yicha qurilishi mumkin.

Panagoh maxsus inshoot bo‘lib, yashiringan odamlarni yadro portlashining barcha shikastlovchi omillaridan, zaharlovchi moddalar va bakteriyaviy vositalardan, shuningdek, yuqori harorat hamda zararli gazlardan himoya qilishga mo‘ljallangan.

Panagoh asosiy va yordamchi xonalardan tashkil topadi. Asosiy xonalarda odamlar joylashadi. Bu xonalarda o‘tirish uchun 2 yoki 3 qavatli so‘rilar va yotish uchun tokchalar qilinadi. Yordamchi xonalarda sanuzel, filtr-ventilyatsiya kamerasi, tibbiyot xonasi, dizel elektrostansiyasi joylashadi.



Panagoh rejasi: 1 – germetik eshik; 2 – shlyuz kameralari; 3 – sanitar bo‘limi; 4 – odamlar joylashuvchi asosiy xona; 5 – avariya holati uchun chiqish joyi; 6 – filtr-ventilyatsiya kamerasi; 7 – tibbiyot xonasi; 8 – yukxona; 9 – dizel elektrostansiyasi.

Panagohlar shartli ravishda, o‘ziga qancha odam sig‘dira olishi (hajmi)ga ko‘ra uch xil bo‘ladi:

1) kichik hajmli (150–600 odam);

2) o‘rta hajmli (600–2000 odam);

3) katta hajmli (2000 dan ko‘p odam).

Himoya inshootida har bir yashirinuvchi uchun 2 sutkaga yetarli oziq-ovqat zaxirasi, 0,5 m^2 joy va 1,5 m^3 havo bo‘lishi lozim.



Havo bilan ta’minlash tizimining vazifasi – panagohda yashiringan odamlarni zarur miqdor, tarkib va haroratdagi toza havo bilan ta’minlab berish. Tizimga havo havzasi qurilmasi, changga qarshi filtr, yutuvchi filtr, ventilyator, tarqatuvchi tarmoq, regeneratsiya vositasi va havo sovutkichlar kiradi.

Suv bilan ta’minlash tizimi odamlarni ichimlik suvi va gigiyena talablariga javob beruvchi suv bilan ta’minlaydi. Panagohni suv bilat ta’minlash tashqi suvoqava tarmog‘idan amalga oshiriladi. Avariya holati uchun sutkasiga har bir kishiga 3 litr miqdorda ichimlik suvi va 5–7 litr texnik suv zaxirasi mavjud bo‘ladi.

Isitish tarmog‘i isitish radiatorlari yoki silliq truba shaklida bo‘lib, binoning isitish tarmog‘iga ulangan. U xonalarda doimiy harorat va namlikni saqlashni ta’minlab beradi.

Elektr ta’minoti havo almashtirish tizimini tok bilan ta’minlash va yoritish uchun kerak bo‘ladi. Odatiy vaqtda u shahar elektr tarmog‘idan, avariya holatida esa dizel elektr stantsiyasidan amalga oshiriladi.

Tibbiy xizmat ko‘rsatish sanitar postlari va iqtisodiyot obyekti tibbiyot punkti tomonidan amalga oshiriladi.

Himoya inshootining hajmi 2 yarusli (qavatli) qilib joylashtirilganda jon boshiga 0,5 m², 3 yarusli qilib joylashilganda 0,4 m² miqdorida belgilangan. Himoya inshootining balandligi 2,2 m dan kam bo‘lmasligi shart. Har bir odam o‘tirish uchun 0,45×0,45 m, yotish uchun 2 va 3-yaruslarda 0,55×1,8 m o‘lchamda joy bilan ta’minlanadi. Bolali shaxslar alohida xonaga joylashtiriladi.

Himoya inshootida quyidagilar taqiqlanadi:

- chekish;
- shovqin solish;
- ruxsatsiz kerosin lampasini yoqish;
- oson o‘t oladigan moddalarni va o‘tkir hidli moddalarni olib kirish;
- katta hajmli buyumlar va hayvonlarni olib kirish.

Bo‘layotgan voqealar tufayli ba’zi odamlarda paydo bo‘ladigan qo‘rqinch hissi vahimani keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun yashirinuvchilar orasida intizomli bo‘lish, vahimaga berilmaslik to‘g‘risida tushuntirish ishlari o‘tkazilib boriladi.



Savol va topshiriqlar

1. Fuqaro muhofazasi himoya inshootlariga nimalar kiradi?
2. Panagoh va radiatsiyaga qarshi pana joyni taqqoslang.
3. Oddiy pana joylar (ochiq va yopiq o‘ralar)dan foydalanish zaruratini aytib bering.
4. Odamlarni panagohlarga joylashtirish tartibini aytib bering.
5. O‘zingiz yashaydigan uy yerto‘lasini radiatsiyaga qarshi pana joyga qanday moslagan bo‘lar edingiz?
6. Konseptual jadval asosida jamoaviy himoya vositalari xususiyatlarini aniqlang.

Jamoaviy himoya vositalari	Xususiyatlari	
	Vazifasi	Tuzilishi
Panagohlar		
Radiatsiyaga qarshi pana joylar		
Oddiy pana joylar (ochiq va yopiq o‘ralar)		
Yerto‘la va boshqa chuqurlashtirilgan xonalar		

VI.6. EVAKUTSIYA TADBIRLARIDA AHOLINING HARAKAT QILISH TARTIBI

1-mashg‘ulot. Evakuatsiya tadbirlarini o‘tkazish

Bilasizmi? Aholini xavfsiz hududlarga ko‘chirish zaruriyati haqida nimalarni bilasiz?

Tayanch so‘zlar:

evakuatsiya, taqsimlab joylashtirish, xavfsiz hudud.

O‘quv faoliyati natijalari:



- Favqulodda vaziyatlar yuz berganda evakuatsiya tadbirlari haqida bilimlarga ega bo‘ladi.
- Aholini favqulodda vaziyatlarga axloqiy-ruhiy tayyorlashning mohiyatini tushunadi.

Aholini evakuatsiya qilish – harbiy harakatlar paytida yoki favqulodda vaziyatlar yuz berganda aholini, moddiy va ma’naviy boyliklarni himoya qilish usullaridan biri. Evakuatsiya aholi zichligini bir necha marta kamaytiradi, demak, aholini yo‘qotish xavfi ham shuncha kamayadi.

Evakuatsiya – ishlab chiqarishda band bo‘lmagan aholini, shu jumladan, o‘quvchilarni shahardan shahar tashqarisiga tashkiliy ravishda olib chiqish (tashish).

Taqsimlab joylashtirish – iqtisodiyot obyektlarining ishchi va xizmatchilarini tashkiliy ravishda shahardan tashqariga olib chiqish va joylashtirish.

Evakuatsiya va taqsimlab joylashtirishni o‘tkazish uchun transportning barcha turlaridan foydalaniladi. Evakuatsiyani qisqa muddatlarda o‘tkazish uchun aholining asosiy qismi shahardan piyoda chiqariladi, qolgan qismi transport vositalarida tashiladi. Evakuatsiya o‘tkazishning bu usuli asosiy usul sanaladi va aralash usul deyiladi.



Aholini evakuatsiya qilish usullari



Aholini avtomobil transporti yordamida evakuatsiya qilish

Evakuatsiya va taqsimlab joylashtirishni aniq va o‘z vaqtida o‘tkazish uchun shaharlarda *yig‘uv-evakuatsion punktlar* tashkil etiladi. Odatda, ular klub, maktab, kinoteatr binolarida joylashtiriladi. Har bir yig‘uv punktiga tartib raqami beriladi.

Evakuatsiya ishlarini o‘tkazishni fuqarolar muhofazasining barcha pog‘onalaridagi shtablari boshqaradi. Evakuatsiya qilish to‘g‘risida aholini fuqarolar muhofazasi shtabi *televideniye, radio, matbuot,* ijtimoiy tarmoqlar hamda uy boshqarmalari orqali ogohlantiradi.

Muhim!

Xonadonda gaz, elektr asboblari o‘chiriladi, deraza yaxshilab yopiladi. So‘ngra uy qulflanib, qo‘riqlash uchun uy boshqarmasiga topshiriladi. Aytilgan vaqtda yig‘uv-evakuatsion punktiga yetib kelib ro‘yxatdan o‘tiladi. O‘zi bilan birga dori-darmon va 2–3 sutkaga yetarli ovqat zaxirasini olib kelish lozim.



Eslab qoling!

Shahar tashqari zonasi – falokatli suv bosishi, kimyoviy va radioaktiv zararlanish ehtimoli bo‘lgan zonadan tashqarida joylashgan hudud.

Yayov ketayotganlar uchun har 1–1,5 soatda kichik (10–15 minut) va yo‘lning yarmi bosib o‘tilganda katta (1–2 soat) hordiq chiqarish beriladi.

Belgilangan manzilga yetib kelgan aholini qabul qilish va joylashtirishni mahalliy hokimlik fuqarolar muhofazasi shtablari bilan birgalikda amalga oshiradi. Buning uchun tuman (shahar) hokimi, fuqaro muhofazasi boshlig‘ining qaroriga ko‘ra, qabul qiluvchi evakuatsion punktlar tashkil etiladi. Bu punktlar xavfsiz hududlarda tashkil etiladi va evakuatsiya komissiyasi raisiga bo‘ysunadi.

Aholini favqulodda vaziyatlardan ogohlantirish. Favqulodda vaziyat yuz berganda aholi diqqatini jalb qilish uchun *“DIQQAT, HAMMAGA!”* signali beriladi. Xabarda aholi qayerga borishi ko‘rsatilmagan bo‘lsa yoki bexabar qolinsa, zaharlangan maydonni shamol yo‘nalishiga perpendikulyar yo‘nalishda kesib o‘tish zarur. Agar buning imkoni bo‘lmasa, uyda qolib, eshik-derazalarni mahkamlab yopish kerak. Aholi dastlabki ogohlantiruvchi gudok, sirenalarni eshitishi bilan aloqa vositalarini tez ishga tushirishi shart. Chunki gudok va signallardan so‘ng axborot uzatish vositalari orqali tezkor xabar tarqatiladi.

Fuqaro muhofazasi signallarining maqsadi aholini dushman tomonidan ommaviy qirg‘in quroli qo‘llanilish ehtimoli va himoya choralarini ko‘rish to‘g‘risida o‘z vaqtida ogohlantirishdan iborat. Aholini ogohlantirish uchun quyidagi signallar o‘rnatilgan:

– “Havo trevogasi!”;

– “Havo trevogasi bekor qilinadi!”;

– “Radiatsion xavf!”;

– “Kimyoviy trevoga!”.

FM signallarini aholiga yetkazish vositalari:



Muhim!

Uyushqoqlik va intizomlilik, yig‘uv punktlari ma’muriyati buyruq va ko‘rsatmalarini o‘z vaqtida va aniq bajarish – aholining asosiy xulq me’yoridir.



Signal bo‘yicha aholi harakati. “Havo trevogasi!” signali. Signal barcha aholiga jami ommaviy axborot vositalari orqali “Diqqat! Diqqat! Fuqarolar! Havo trevogasi! Havo trevogasi!” ko‘rinishida ovozli e’lon qilinadi. Signal matni bir necha marta takrorlanishi mumkin. Signal berilgan paytda uyda bo‘lsa, tezlik bilan pul, hujjatlar, birinchi tibbiy yordam va himoya vositalari, oziq-ovqat zaxirasi olinadi. Gaz, suv, isitish vositalari o‘chiriladi. Qo‘shnilarga xabar beriladi. So‘ngra pana joyga yashiriniladi.

Signal paytida ish joyida bo‘lsa, ishlab chiqarish vositalari to‘xtatiladi va ishxonaga biriktirilgan pana joyga borib joylashiladi. Signal paytida ko‘chada, shahar transportida bo‘lsa, tezroq uyga yetib olishga shoshilish yoki metro stansiyasi va shunga o‘xshash joylarga tushib yashirinish zarur.

Signal paytida o‘quvchilar maktabda bo‘lsa, mashg‘ulotlar to‘xtatilib, bolalar zudlik bilan panaga olib borib joylashtiriladi. *“Havo trevogasi bekor qilinadi!”* signali bo‘yicha aholi panagoh va pana joylarni tark etadi. Ular panadan chiqqach, dushman hujumi xavfi bo‘lgan davr uchun o‘rnatilgan qoidalarga amal qiladi.

“Radiatsion xavf!” signali ushbu hududda bevosita radioaktiv zaharlanish xavfi paydo bo‘lganda yoki radioaktiv zaharlanish yuz berganda beriladi. Bu signal bo‘yicha respirator (paxta-doka bog‘lagich) taqiladi, agar u bo‘lmasa, gazniqob kiyiladi, hujjatlar, pullar va boshqa tayyorlab qo‘yilgan buyumlar olinib, panagoh yoki pana joyga kirib yashiriniladi.

“Kimyoviy trevoga!” signali kimyoviy yoki bakteriyaviy zaharlanish xavfi tug‘ilganda yoki yuz berganda beriladi. Ushbu signal bo‘yicha gazniqob, terini himoya qiluvchi vositalar

kiyilib, pana joyga borib yashiriniladi. Agar yaqin orada himoya inshootlari bo'lmasa, uy ichida qolish va eshik derazalarni mahkam yopish kerak.

Favqulodda vaziyatlar to'g'risida aholini xabardor qilishning asosiy usullari. Favqulodda vaziyatlar xavfi bo'lganda korxona va uylarda axborot vositalarini yoqib qo'yish, shaxsiy va kollektiv (jamoaviy) himoya vositalarini tayyorlash lozim. Yong'inga qarshi xavfsizlik choralarini ko'rish, oziq-ovqat zaxirasini tayyorlash, qishloq joylarda esa hayvonlar, yem-xashak va suvning zaharlanishini oldini olish choralarini ko'rish kerak.

Favqulodda vaziyatlar yuz berganda quyidagilar taqiqlanadi:

- tashqaridagi suvni ichish (baklajkali va shishali suvlar bundan mustasno);
- avariya zonasidagi meva va sabzavotlarni iste'mol qilish;
- germetik yopilmaydigan yerto'lalarga berkinish.

Eslab qoling!

Xavfsiz hudud – mahalliy va evakuatsiya qilib keltirilgan aholi hayot kechirishi, shuningdek, moddiy va ma'naviy boyliklarni joylashtirish va saqlash uchun tayyorlangan shahar tashqarisidagi hudud. Xavfsiz hududlar hali favqulodda vaziyatlar yuz bermagan tinchlik paytida mahalliy boshqaruv organlari bilan kelishilgan holda aniqlab qo'yiladi.

Savol va topshiriqlar

1. Evakuatsiya nima?
2. Xavfsiz hududlarda aholini joylashish tartibi haqida aytib bering.
3. Aholini evakuatsiya qilish tadbirlari qanday tartibda amalga oshiriladi?
4. Evakuatsiya qilinishga to'g'ri kelsa, qanday tartibda harakatlanasiz?
5. Evakuatsiya tadbirlarini tashkil etish va o'tkazishga doir tadbirlar mazmunini ko'rsating.

Evakuatsiya	Kuzatish va qabul qilish punktlari	Evakuatsiya jarayonida transportdan foydalanish	Evakuatsiya vaqtida aholining o'zini tutish qoidalari	Aholini favqulodda vaziyatlarga axloqiy-ruhiy tayyorlash

VI.7. SANITARIYA ISHLOVI. KIYIM-BOSH VA BUYUMLARNI ZARARSIZLANTIRISH

1-mashg‘ulot. Odamlarni sanitariya ishlovidan o‘tkazish

Bilasizmi? Qanday vaqtda zararsizlantirish zarurati tug‘iladi?

Tayanch so‘zlar:

sanitariya ishlovi, dezaktivatsiya, degazatsiya, dezinfeksiya.

O‘quv faoliyati natijalari:



- Odamlarni sanitariya ishlovidan o‘tkazish tartibini biladi.
- Radioaktiv, kimyoviy ta’sir etuvchi zaharli moddalar va bakteriyaviy vositalar bilan zararlanganda to‘la va qisman sanitar ishlovi o‘tkazishni aytib beradi.
- Kiyim-bosh, poyabzal, individual himoya vositalarini dezaktivatsiya, degazatsiya va dezinfeksiya qilish usullarini amalda bajaradi.

Kuchli ta’sir etuvchi zaharli moddalar ishlatiladigan va radiatsion xavfli bo‘lgan obyektlarda, shuningdek, kimyoviy xavfli moddalarni transportda tashish jarayonida yirik ishlab chiqarish avariyalari, falokatlar yuz berib, odamlar, atrof-muhit, binolar, transport vositalari, suv, oziq-ovqatlar zararlanishi mumkin bo‘lganligi tufayli zararsizlantirish ishlari amalga oshiriladi. Odamlar va hayvonlar ommaviy tarzda yuqumli kasalliklar bilan kasallanganda ham zararsizlantirish zarurati tug‘iladi.

Zararsizlantirish odamlarni sanitariya ishlovidan o‘tkazish, kiyim-bosh, individual himoya vositalari va texnikani dezaktivizatsiya, degazatsiya va dezinfeksiya qilish bo‘yicha ishlarni qamrab oladi. Zararsizlantirish bo‘yicha ishlar xavfsizlik qoidalariga qat’iy amal qilgan va shaxsiy himoya vositalaridan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Sanitariya ishlovi – odamlar teri qoplami, shuningdek, kiyilgan shaxsiy himoya vositalari, kiyim va poyabzallaridan radioaktiv moddalarni yo‘q qilish, zaharlovchi moddalar, kasallik qo‘zg‘atuvchi mikroblar va toksinlarni yo‘q qilish yoki zararsizlantirish. Sanitariya ishlovi to‘liq yoki qisman bo‘lishi mumkin.

Qisman sanitariya ishlovi (radioaktiv chang bilan zaharlanganda) imkon boricha zaharlangandan so‘ng birinchi soatdayoq bevosita zaharlangan joyda yoki undan chiqiboq o‘tkaziladi. Buning uchun tashqi kiyim yechiladi, orqa tomon bilan shamolga qarama-qarshi turib, kiyim qoqiladi. So‘ngra kiyim dorga yoyiladi va obdon tozalanadi. Poyabzal toza suv bilan yuviladi. Toza suv bilan, shuningdek, qo‘l va bo‘yinning ochiq qismlari, gazniqobning yuz qismi yuviladi, gazniqob yechiladi, yuz yaxshilab yuviladi, og‘iz va burun yaxshilab chayiladi. Qishda qor bilan tozalanish ham mumkin.



Radioaktiv moddalar bilan zararlanganda qisman sanitar ishlovini o‘tkazish

Eslab qoling!

Zaharli moddalar bilan zaharlansa, zaharli modda tekkan joy kimyoviy moddalarga qarshi individual paket (IPP-8) yordamida tozalanadi yoki bir litr 3 % li vodorod perekisiga 30 g o‘yuvchi natriy qo‘shib tozalanadi, natriy topilmasa, silikat yelimi qo‘shiladi (150 g yelim 1 litr 3 % li vodorod perekisiga aralashtiriladi).

To‘liq sanitar ishlovida butun tana iliq suvda sovunlab yuviladi. Kiyim-bosh alamashtiriladi, eskisi maxsus ishlovdan o‘tkaziladi. Sanitar yuvish punktlari hammomlarda, dushxonalarda yoki bevosita joyning o‘zida palatkalarda tashkil etiladi. Yilning issiq oylarida to‘liq sanitar ishlovini oqar suvlarda o‘tkazish mumkin.

Zararlangan joyda harakat qilinganda kiyim-bosh, himoya vositasi, texnika, qurol-aslahalar radioaktiv, zaharlovchi moddalar va bakteriyaviy vositalar bilan zararlanishi mumkin. Ularni zaharsizlantirish va odamlar shikastlanishini oldini olish maqsadida dezaktivatsiya, degazatsiya va dezinfeksiya ishlari o‘tkaziladi.



Dezaktivatsiya – zararlangan yuzalardan radioaktiv moddalarni yo‘q qilish. Kiyim-bosh, poyabzal va himoya vositalarini dezaktivatsiya qilish uchun ular yaxshilab silkib tozalanadi va yuviladi. Yuvayotganda dezaktivatsiyalovchi moddalardan foydalaniladi. Texnikaning dezaktivatsiyasi uni zararlanganlik darajasini pasaytirish maqsadida o‘tkaziladi. *To‘liq dezaktivatsiya* – dezaktivatsiyalovchi suyuqlik va suv bilan cho‘tka yordamida yuvish orqali texnikaning butun sirtidan radioaktiv moddalarni yo‘q qilish. Dezaktivatsiya qilish uchun maxsus aralashmalar, yuvish vositalarining aralashmalari va erituvchilar (benzin, kerosin) ishlatiladi.



Degazatsiya – zaharlovchi moddalarni yo‘q qilish yoki zararsizlantirish. Kiyim-bosh, poyabzal, himoya vositalari qaynatish orqali degazatsiya qilinadi. Texnika vositalarini qisman degazatsiya qilishda uning odamlar tegishi mumkin bo‘lgan joylariga ishlov beriladi. To‘liq degazatsiya qilish esa maxsus ishlov punktlarida amalga oshiriladi. Degazatsiya qilish uchun maxsus degazatsiyalovchi suyuqliklar ishlatiladi. Shuningdek, mahalliy ishqorli moddalar, ammiak aralashmasi, erituvchilar (benzin, kerosin, dizel yonilg‘isi)dan foydalaniladi.



Dezinfeksiya – yuqumli kasalliklarni qo‘zg‘atuvchi bakteriyaviy vositalarni yo‘q qilish. Kiyim, poyabzal va himoya vositalarini dezinfeksiyalash bug‘-havo aralashmasi orqali ishlov berish, qaynatish, dezinfeksiyalash suyuqliklarida yuvish orqali amalga oshiriladi. Qurol va texnikani to‘liq dezinfeksiya qilish maxsus ishlov berish punktlarida o‘tkaziladi. Dezinfeksiya uchun maxsus dezinfeksiyalovchi moddalar: fenol, krezol, lizol, shuningdek, dezinfeksiyalovchi suyuqliklar ishlatiladi.

Savol va topshiriqlar

1. Qachon zararsizlantirish zarurati tug‘iladi?
2. Sanitariya ishlovi nima va u necha xil bo‘ladi?
3. To‘liq va qisman sanitariya ishlovi o‘tkazish tartibini aytib bering.
4. Sanitariya ishlovini o‘tkazish uchun qanday moddalar ishlatiladi?



07 TIBBIY BILIM ASOSLARI

Turmushda, tabiiy ofatlar yuz berganda, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar, terrorchilik harakatlari yuz bergan vaqtda insonga yetkazilgan har qanday jarohatning tuzalishi hodisa yuz bergan joyda ko‘rsatiladigan birinchi tibbiy yordamning o‘z vaqtida va malakali tarzda ko‘rsatilishiga bog‘liq. Chunki yordam ko‘rsatayotgan shaxs malakali tarzda harakat qilsa, elementar tibbiy bilim va usullarga ega bo‘lsagina ko‘rsatilayotgan birinchi tibbiy yordam samarali bo‘lishi mumkin.

Jarohatlanganda birinchi tibbiy yordam – turli shikastlanishlar yuz berganda kechiktirib bo‘lmaydigan zarur harakatlar. Bu harakatlar jarohatlangan odamning hayoti va sog‘lig‘iga xavf soluvchi omillarni bartaraf qilishga, ko‘ngilsiz oqibatlarning oldini olishga, og‘riq sindromini pasaytirishga va tez yordam shifokorlari yetib kelgunga qadar yordam ko‘rsatishga qaratilgan. Ular oddiy va oson bo‘lgani uchun ularni maxsus ma’lumot va tayyorgarlikka ega bo‘lmagan har qanday odam ham bajarishi mumkin.

Aksariyat holatlarda jarohat yuz berganda birinchi tibbiy yordamning o‘z vaqtida ko‘rsatilishi inson hayotini saqlab qolishi yoki salbiy oqibatlardan qutqarishi mumkin. Shuning uchun har bir odam u yoki bu holatlarda o‘zini qanday tutishni va qanday harakatlarni bajarishini aniq bilishi lozim.

O‘quvchilar tibbiy bilim asoslari bo‘limi bo‘yicha quyidagilarni bilishi shart:

– jarohatlar tavsifi;

– qon ketishining turlari va ularning asoratlari;

– suyak sinishi turlari va ularning asoratlari;

– qo‘l, oyoq, bosh, qorin sohalari shikastlanganda bog‘lam qo‘yish.

O‘quvchilar uddalashi shart:

– shikastlanganda va boshqa baxtsiz hodisa sodir bo‘lganda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish.

VII.1. SHIKASTLANGANDA, BAXTSIZ HODISA SODIR BO‘LGANDA VA JAROHATLANGANDA (YARALANGANDA) BIRINCHI TIBBIY YORDAM KO‘RSATISH

1-mashg‘ulot. Nazariy. Jarohat to‘g‘risida tushuncha, jarohatlarning turlari. Jarohatlanganda birinchi tibbiy yordam. Bog‘lam va bog‘lash uchun materiallar. Shaxsiy bog‘lash paketidan foydalanish qoidalari

O‘quv faoliyati natijalari:



- Jarohat to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘ladi, jarohatlar turlarini taniydi va ajratadi.
- Jarohatlanganda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatishni biladi.
- Bog‘lam va bog‘lash uchun materiallardan foydalanishni biladi.
- Shaxsiy bog‘lov paketidan foydalanish qoidalarini aytib beradi.

Bilasizmi?

Turli baxtsiz hodisalar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan jarohatlar haqida nimalarni bilasiz?

Tayanch so‘zlar:

jarohat, shaxsiy bog‘lov paketi, aseptika, antiseptika.

Jarohat – turli mexanik ta’sirlar natijasida odam tanasining tashqi teri qoplamlari, ba’zan esa ichki tana a’zolarining shikastlanishi.

O‘tkir tig‘li bo‘lmagan predmet tomonidan katta yuzada terining sirt qatlami yoki shilliq pardasiga yetkizilgan chuqur bo‘lmagan jarohatga *shilinish* deyiladi.

O‘tkir tig‘li bo‘lmagan predmet tomonidan terining sirt qatlamiga yetkizilgan ingichka chiziq ko‘rinishidagi jarohatga *tirnalish* deyiladi.

Shikastlanishning ochiq va yopiq turlari mavjud. Ochiq turdagi shikastlanishda jarohat joyiga mikrob tushishi uchun sharoit yaratiladi. Terining shikastlanmagan qoplami organizmga mikroblarning tushishiga haqiqiy to‘siq bo‘ladi.

Jarohatlar yetkizgan buyumning ko‘rinishiga qarab:

– kesilgan va chopilgan;

– yirtilgan;

– sanchilgan;

– tishlangan;

– o‘q tekkan bo‘lishi mumkin.

Eslab qoling!

Jarohatlarning klinik belgilari: jarohat chetlarining kerilishi, to‘qimalardagi nuqsonlar, qon oqishi, badan (yoki tana a’zosi) shikastlangan qismi funksiyalarining buzilishi.

Jarohatlarning asosiy belgisi og‘riqdir. Og‘riqning intensivligi jarohat yetkizgan predmet xarakteri, jarohatning yuzasi va chuqurligi, jarohat tananing qayerida ekanligi, jabrlanuvchining ruhiy-emotsional holatiga bog‘liq.

Muhim!

Jarohatlanganda birinchi tibbiy yordam, odatda, bevosita jarohat va shikastlanish yuz bergan joyda, tabiiy ofat o‘chog‘ida o‘ziga va o‘zaro yordam tartibida ko‘rsatiladi.

Jarohatlanganda birinchi tibbiy yordam quyidagi ketma-ketlikda bajariladi:

– shikastlovchi narsaning ta’sirini to‘xtatish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish;

– buzilgan nafas olish va yurak faoliyatini tiklash (yurak-o‘pka jonlantirishini o‘tkazish);

– qon ketishni vaqtinchalik to‘xtatish;

– jarohatni imkon qadar tezroq aseptik bog‘lam bilan yopish (bog‘lam jarohatga mikrob tushishidan saqlaydi, kapillyar qon ketishini to‘xtatishga yordam beradi va ma’lum darajada og‘riqni pasaytiradi);

– qo‘lbola vositalar bilan tananing shikast yetgan qismi harakatlarini cheklash (bu yumshoq to‘qimalarning singan suyak parchalari bilan qo‘shimcha jarohat olishining oldini oladi);

– shikastlangan odamga qulay holat yaratish;

– shikastlangan odamni ehtiyotlagan holda davolash muassasasiga tezroq olib borish yoki hodisa joyiga “Tez yordam”ni chaqirish.

Aseptika – shikastlangan odamga tibbiy yordam ko‘rsatilayotganda jarohat, to‘qima va tana bo‘shlig‘iga mikroorganizm tushib qolishining oldini olishga qaratilgan profilaktik choralar tizimi. Aseptika asboblar sterilizatsiyasi hamda tibbiy yordam beruvchining qo‘llariga ishlov berishdan iborat. Boshqacha aytganda, aseptika jarohatga ishlov berishda unga mikrob tushishining oldini olishni ta’minlovchi usuldir.

Antiseptika – jarohat, teri yoki butun tanaga tushib qolgan mikroblarni yo‘q qilishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi.

Eslab qoling!

Bo‘glam – shikastlangan odam badaniga bo‘g‘lovchi materialni mahkamlovchi yumshoq yoki qattiq moslama.

Bog‘lam quyidagi elementlardan tashkil topadi:

– bog‘lovchi material: dokadan tayyorlangan mahsulotlar (tampon, salfetka, sharchalar) va paxta;

– bog‘lovchi material shimdirilgan dorivor modda;

– bog‘lamni mahkamlab turuvchi bog‘lovchi material (bint, doka, durracha, plastir).

Bog‘lovchi material sifatida ko‘pincha doka va dokadan tayyorlangan bog‘lovchi materiallar (sharcha, tampon, salfetka, bint), paxta, paxta yoki kanopdan qilingan materiallar ishlatiladi. Vazifasiga ko‘ra bog‘lamlar bog‘lovchi materialni to‘xtatib turadigan, immobilizatsiyalovchi va cho‘zilishni paydo qiluvchi bog‘lamlarga bo‘linadi. Qo‘llaniladigan materialiga ko‘ra yumshoq va qattiq bog‘lamlarga bo‘linadi.



Yumshoq bog‘lamlar to‘xtatuvchi va ezuvchi sifatida ishlatiladi. Bunda bog‘lovchi material sifatida dokadan foydalaniladi. Doka jarohatga qo‘yilganidan so‘ng oq paxta to‘shaladi (alohida holatlarda qopchalarga solingan va sterillangan mox va torf ishlatiladi). Jarohatning barcha qismiga bosim teng taqsimlanishi uchun porolon qatlami qo‘yiladi. Bularning barchasi bint yoki durra, plastir va boshqa materiallar yordamida mustahkamlanadi. Keyingi vaqtlarda shu maqsadda yengcha ko‘rinishdagi to‘rsimon tibbiy bintlaridan foydalanilmoqda.

Qattiq bog‘lamlarga shinali, kraxmalli, gipsli, yelimli, plastmassali bog‘lamlar kiradi. Bu bog‘lamlar, odatda, immobilizatsiya qilish va tortib turish maqsadida ishlatiladi.

Paketni ochish uchun uning rezinali qoplamasi kesmasi bo‘ylab yirtiladi. Qog‘oz qoplamasining chekkasi ostidan to‘g‘nag‘ich olinadi va kiyimning qulay joyiga qadab qo‘yiladi. So‘ngra bint va yostiqcha olinadi. Bog‘lovchi material ifloslanmasligi uchun bitta qo‘l bilan bint yostiqcha mahkamlangan uchidan ushlanadi, ikkinchi qo‘l bilan sterillangan bint ushlanadi. Ikkala qo‘l ikki tomonga yoyiladi. Yostiqchalarning bir tomonida rangli iplar tikib qo‘yilgan. Yostiqchaning shu tomonidan qo‘l bilan ushlanadi va zarurati bo‘lsa, yostiqcha kerakli masofaga suriladi va jarohatga qo‘yiladi, bint bilan mahkamlanadi, bintlarning oxiri to‘g‘nog‘ich bilan mahkamlanadi.

Jarohatlanganlarga birinchi yordam ko‘rsatishda, eng avvalo, qon ketishini to‘xtatish, ikkilamchi infeksiya tushmasligi uchun jarohatga birlamchi aseptik bog‘lam qo‘yish, shokning oldini olish, suyak sinish holatlarida esa singan suyakni immobilizatsiya qilish (harakatsizlantirish) lozim.

Savol va topshiriqlar

1. Jarohat nima va uning qanday turlari mavjud?
2. Jarohatlanganda birinchi tibbiy yordam qanday tartibda ko‘rsatiladi?
3. Bog‘lam va bog‘lash uchun qanday materiallar ishlatiladi?
4. Shaxsiy bog‘lash paketidan foydalanish qoidalarini aytib bering.
5. Shaxsiy bog‘lash paketidan foydalanish usullarini mashq qiling.

2-mashg‘ulot. Amaliy. Bosh, ko‘krak, qorin, qo‘l va oyoq sohalariga sterilizatsiya qilingan bog‘lamlar qo‘yish

O‘quv faoliyati natijalari:

- Bosh, ko‘krak, qorin, qo‘l va oyoq sohalariga sterilizatsiya qilingan bog‘lamlar qo‘yishni amalda bajaradi.



Bilasizmi? Inson tana a’zosi singanda qanday bog‘lamlar qo‘yiladi?



Bog‘lamning turlari jarohatning joylashgan o‘rni, chuqurligi, o‘lchami va xarakteriga (uning qanday olinganiga) ko‘ra turlicha bo‘ladi. Ular turli materiallardan tayyorlanadi va so‘zsiz sterillanadi.

Shuningdek, bog‘lamlarning funksiyalari ham turlicha bo‘ladi. Masalan, ularning tarkibida ba’zan antibakterial xususiyatli va jarohat bitib ketishini tezlashtiruvchi maxsus moddalar bo‘lishi mumkin.







Bog‘lam turlari: *a) boshni “chepes” ko‘rinishida bog‘lash; b) ensa sohasini butsimon bog‘lash; d) burunni sopqonsimon bog‘lash; e) ko‘krakni spiralsimon bog‘lash; f) chov sohasini boshoqsimon bog‘lash; g) barmoqni bog‘lash; h) yelkani bog‘lash; i) tirsak bo‘g‘imini spiralsimon bog‘lash; j) kaftni bog‘lash.*

Birinchi tibbiy yordam ko‘rsatishda individial bog‘lov paketidan foydalaniladi. Uning asosiy maqsadi – jarohatlangan odam tibbiy punktga olib ketilayotganda jarohatga mikroblar tushib qolishidan himoya qilish.

Boshning sochli qismi jarohatiga “chepes” nomli bog‘lam qo‘yiladi. Bunday bog‘lam bint bilan past jag‘ga bog‘lab mustahkamlanadi. Bintdan 1 metrcha qirqib olinib, o‘rtasi jarohatni yopib turgan steril salfetka ustiga, bosh tepasi sohasiga qo‘yiladi, uning uchlari quloqlar oldidan tik pastga tushirilib, tarang tortib turiladi. Bundan gir aylantirib ushlab turadigan bint o‘tkaziladi, so‘ngra tugiladigan joyga yetgandan keyin bintni shu joydan qaytarib, qiyshiq holda ensaga qarab olib boriladi.

Bint ikkinchi tomonda ham tugiladigan joy atrofidan qaytarilib, qiyshiq holda peshonaga qarab yurgiziladi. Shu tariqa bintni bir safar ensadan, bir safar peshonadan o‘tkazib va har safar tikroq yurgizib borib, boshning butun sochli qismi berkitib chiqiladi. Shundan keyin bintni 2–3 marta gir aylantirib o‘rab, bog‘lam mahkamlab qo‘yiladi. Tugunning uchlari engak tagidan kapalak nusxa qilib bog‘lanadi. Odamning bo‘yni, tomog‘i yoki ensasi jarohatlangan bo‘lsa, butsimon bog‘lov qo‘yiladi.



Boshda katta-katta jarohat bo‘lganda, yuz sohasi jarohatlanganda “yugancha” ko‘rinishda bog‘lam qo‘ygan ma’qul.

Burun, peshona va ensaga sopqonsimon bog‘lam qo‘yish mumkin.

Bog‘lam tagidan jarohat yuzasiga steril salfetka yoki bint qo‘yiladi.

Ko‘krakka spiral yoki butsmon bog‘lam qo‘yiladi. Spiral bog‘lam qo‘yish uchun bintning uch tomonidan taxminan 1,5 m uzunlikda kesib olinib, u sog‘lom kiftga solinadi va ko‘krakka qiyshiq qilib osiltirib qo‘yiladi. Bintni spiral holda yurgizib, ko‘krak qafasi orqa tomonining pastidan boshlab bintlab chiqiladi. Bintning erkin osilib turgan uchlari bog‘lanadi.

Butsimon bog‘lamni bintni ushlab turadigan qilib 1–3 marta gir aylantirib o‘rash yo‘li bilan pastdan solib buraladi. So‘ngra orqaning o‘ng tomonidan chap kiftga o‘tkaziladi, keyin ushlab turadigan qilib gir aylantirib o‘raladi, pastdan o‘ng kift osha yana ko‘krak qafasi gir aylantirib o‘raladi, so‘nggi bint o‘ramining uchi to‘g‘nog‘ich bilan mahkamlab qo‘yiladi.

Qoringa jarohat yetganda jarohatdan ichki organlar – ichak va charvi tashqariga chiqib qolishi, juda ko‘p qon ketishi mumkin. Chiqib qolgan ichki organlar qaytarib qoringa solinmaydi, jarohatlar atrofiga steril salfetka qo‘yib, steril bint bilan bog‘lanadi. Bunday jarohatlangan odamga suv ichirib bo‘lmaydi, faqat lablari namlab turiladi.

Qorinning pastki tomoniga spiral bog‘lam qo‘yiladigan bo‘lsa, tushib ketaveradi, shu sababdan bunda qorin va chov sohasiga boshoqsimon bog‘lam qo‘yiladi. Bunday bog‘lam qorinni bint bilan gir aylantirib o‘rashdan boshlanadi. Bint sonning tashqi yuzasi bo‘ylab uni o‘rab o‘tadi va keyin yana qorinni gir aylantirib o‘rab boriladi. Qorinni teshib o‘tmagan jarohatlar yopishqoq plastirdan foydalanib bog‘lanadi.

Yelka bo‘g‘imi, yelkaning yuqoridagi uchdan bir qismi yoki qo‘ltiqosti chuqurchasi sohalarida qonab turgan jarohatda o‘mrov osti arteriyasi o‘mrov ustidagi chuqurchada qovurg‘aga bosiladi.

Yelkaning o‘rtadagi yoki pastdagi uchdan bir qismi jarohatlangan bo‘lsa, qo‘ltiq osti arteriyasi yelka suyagining boshchasiga bosiladi, buning uchun yelka bog'imining ustki yuzasiga bosh barmoqni tirab, boshqa barmoqlar bilan arteriya bosiladi.

Qo‘l panjasi arteriyalari shikastlanganda bilak arteriyasi kaft osti sohasida bosh barmoq yonidan tagidagi suyakka bosiladi.

Quyida tananing turli joylariga birlamchi aseptik bog‘lam qo‘yish usullari ko‘rsatilgan:



Savol va topshiriqlar

1. Bog‘lam turlari va bog‘lam qo‘yish qoidalarini aytib bering.
2. Boshga bog‘lam qo‘yishni ko‘rsatib bering.
3. Ko‘krakka bog‘lam qo‘yishni ko‘rsatib bering.
4. Qoringa bog‘lam qo‘yishni ko‘rsatib bering.

3-mashg‘ulot. Amaliy. Qon ketishining turlari. Qon ketishini vaqtincha to‘xtatish usullari. Arteriya qon tomirlarini barmoq bilan bosish nuqtalari. Qo‘lbola siquvchi bog‘lam va tasma (jgut)dan foydalanish qoidalari

O‘quv faoliyati natijalari:



- Qon ketishining turlarini biladi.
- Qon ketishini vaqtincha to‘xtatish usullarini bajaradi.
- Arteriya qon tomirlarini barmoq bilan bosish nuqtalarini aytib beradi.
- Qo‘lbola siquvchi bog‘lam va tasmadan foydalanadi.

Bilasizmi? Inson organizmi uchun qon qanday ahamiyatga ega?

Qon ketishi – qon tomirlarining zararlanishi oqibatida undan qonning oqib chiqishi. Qon ketishi ikki turga bo‘linadi: tashqi va ichki qon ketishi. *Tashqi qon* ketishida qon tananing tashqarisiga oqib chiqadi. *Ichki qon* ketishida esa qon ichki organ, bo‘shliq (kalla suyagi, ko‘krak qafasi, qorin bo‘shlig‘i) va to‘qimalarga oqib chiqadi.



Arterial qon ketish juda xavfli sanaladi. Chunki arteriyalarga qon bevosita yurakning o'zidan katta bosim ostida otilib chiqadi.

Arterial qon ketishining belgilari:

– qonning tez, pulsatsiyali favvorasimon otilib chiqishi;

– qisqa vaqt ichida bemor ahvolining og'irlashi;

– oqayotgan qonning yorqin qizil rangda bo'lishi;

– oyoq va qo'llar terisi oqargan, nam va muzdek bo'lishi.

Arterial qon ketishi, odatda, intensiv bo'lgani uchun qisqa vaqtda ko'p qon yo'qotilishi mumkin.

Venoz qon ketishi venalar jarohatlanganda yuz beradi. Venalardagi bosim arterialardagi bosimga nisbatan pastroq bo'ladi.

Venoz qon ketishining belgilari:

– qon qora olcha (qirmizi) rangda bo'ladi.

– qon jarohatlangan joydan sizib oqib chiqadi.

Kapillyar qon ketishi mayda kapillyar qon tomirlari jarohatida yuz beradi. Bunday qon ketishi teri shilinishi va unchalik chuqur bo'lmagan jarohatlarda yuz beradi. Uni to'xtatish uchun oddiy bintli bog'lam kifoya qiladi va kapillyar qon ketishi mustaqil tarzda, o'z-o'zidan to'xtab qolishi mumkin.

Ichki (parenximatoz) qon ketishi. Parenximatoz ichki a'zolar (buyrak, jigar va b.) jarohatidan kelib chiqadi. Bu a'zolar arteriya, vena va kapillyar qon tomirlariga ega bo'lib, a'zo parenximasi jarohatida parenximatoz qon ketishi yuz beradi va teri qoplamasining tashqarisiga oqib chiqmaydi. Ichki qon ketishi – bu ko'krak yoki qorin bo'shlig'iga qon oqishidir. Bosh chanog'i (qutisi)ga qon oqishi – ichki qon ketishining alohida turi hisoblanadi. Bunday holatlarda miya va ichki organlarning faoliyatini buzadigan **gematoma** hosil bo'ladi.

Muhim!

Agar jarohatlangan odam kuchli og'riq yoki oyoq-qo'lini qimirlata olmayotganligidan shikoyat qilayotgan bo'lsa, zudlik bilan "Tez yordam"ni chaqirish zarur!

Eslab qoling!

Hushdan ketish – bosh miyaning qon bilan ta'minlanishida qon yetishmovchiligi tufayli kelib chiqadigan qisqa vaqtli hushsizlanish.

Kasal odamning qo'qqisdan boshi aylanadi, ko'zi oldi qorong'ulashadi, ko'ngli ayniydi, holsizlanadi, so'ngra hushidan ketadi. Hushsiz holat bir necha minutgacha davom etishi mumkin. Bunda bemor yuzaki nafas oladi, uning yuragi tez-tez, lekin sust uradi.

Eslab qoling!

Kollaps – arterial bosimning halokatli pasayib ketishi. Kollaps hushdan ketishga nisbatan xavfli sindrom hisoblanadi. Bunda bemor oqarib ketadi, uning lablari ko'karadi. Oyoqlari sovib, tana harorati pasayib ketadi, yuragi tez-tez va sust uradi. Kollapsda ham xuddi hushdan ketishdagi kabi birinchi tibbiy yordam ko'rsatiladi.



Uyqu arteriyasining bosilishi



Yelka arteriyasining bosilishi



Son arteriyasining bosilishi

Oyoq panjasining ustki tomonidagi arteriyalarni uning tagidagi suyaklarga bosish, keyin esa oyoq panjasiga bosib turadigan bog‘lam qo‘yib bog‘lash, arteriyadan kuchli qon ketayotgan mahalda esa boldir qismiga jgut qo‘yish mumkin.

Bosib turuvchi bog‘lam qo‘yish qon ketishini to‘xtatishning eng oddiy usullaridan biri hisoblanadi.





Bosib turuvchi bog‘lam qo‘yish uchun shaxsiy bog‘lov paketi ishlatiladi. Bunday bog‘lamni o‘ta qattiq qo‘yish talab qilinmaydi. Agar bosib turuvchi bog‘lam qo‘yilganidan so‘ng, qo‘l yoki oyoq ko‘kara boshlasa, bu bog‘lam vena qon tomirlarini ezib, tomir ichida qonning harakatini buzganligidan dalolat beradi. Bunday holatlar faqat qon tomirlardan qon ketishini kuchaytiradi.

Mayda vena va kapillyarlardan oqayotgan qonni to‘xtatish uchun bosuvchi bog‘lam qo‘yiladi. Qon oqayotgan joy jarohatning shaxsiy bog‘lov paketidagi bir yostiqcha bilan yopiladi, uning tepasiga mahkam o‘ralgan ikkinchi yostiqcha yoki boshqa paketdagi yostiqchani qo‘yib, hammasi birgalikda bint bilan o‘rab qo‘yiladi.

Muhim!

Arteriyadan qon ketayotganda jgut qo‘yishning ketma-ketligi:

1) arteriya barmoq bilan jarohat yuqorisidan bosiladi;

2) jarohatning 3–5 cm yuqorisidan yumshoq, toza material aylantirib qo‘yiladi;

3) jgutni oyoq (qo‘l) atrofida bir necha marta kuch bilan o‘rab, uchlari mahkamlanadi;

4) jgutga uning qo‘yilgan kuni, soati yozilgan yorliq qistirib qo‘yiladi;

5) jarohatlangan odam qo‘yilgan jguti bilan shifoxonaga olib boriladi.

Jgut qo‘yish qo‘l va oyoqlardan xavfli qon ketishlarida qo‘llaniladi. Jgut jarohatning yuqorisidan, jarohatga yaqinroq qo‘yiladi. Jgutni yelkaning o‘rta – uchinchi qismiga qo‘yish mumkin emas, chunki nerv tolalari ezilib, qo‘l va oyoqlar falajlanishi mumkin.



Jgut yoki turli burama material – ro‘molcha, kamar, tasma, pishiq gazlamadan istalgani (qo‘l ostida bori)ni olib, shikastlangan qo‘l yoki oyoqning jarohatlangan joyi yuqorisidan o‘raladi va mahkam tugib qo‘yiladi. Hosil bo‘lgan sirtmoqqa yog‘och yoki boshqa narsa solinib buraladi. Bunda burash jarohatdan qon oqishi to‘xtagunga qadar davom ettiriladi.



Jarohatlangan bemorga qonni vaqtinchalik to‘xtatish uchun birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish usullari

1. Tananing jarohatlangan qismi tanaga nisbatan balandroq holatda ko‘tariladi. Buni bajarish juda oson. Jarohatlangan qo‘l boshdan balandroq qilib ko‘tarib qo‘yiladi. Agar oyoq jarohatlangan bo‘lsa, u ko‘krak qafasidan balandroq qilib ko‘tarib qo‘yiladi va tagiga biror narsa (odeyol, to‘shak, yostiq, sumka) dumaloqlab to‘shaladi. Bunda bemor albatta chalqancha yotqiziladi.

2. Jarohatni bosib turuvchi bog‘lam qo‘yiladi. Bu qon ketishini to‘xtatishning, og‘riqni kamaytirish va tananing jarohatlangan qismiga tinchlik yaratib berishning sodda va ishonchli usuli hisoblanadi.

Venadan qon ketishi



Bosib turadigan bog‘lam qo‘yiladi.

Arteriyadan qon ketishi

Arteriyaga ezib turiladi.



Jgut qo‘yiladi.



3. Arteriyalar barmoq bilan bosib turiladi.

Chakka arteriyasi. Boshdagi jarohatdan qon ketayotganda chakka arteriyasi (1) bosh barmoq bilan quloq suprasining old tomonidagi chakka suyagiga bosiladi.

Umumiy uyqu arteriyasi (2) bo'yinning oldingi yuzasida hiqildoqning yon tomonidan umurtqa pog'onasi suyaklariga bosiladi. Bunda dastlab bog'lam tagidan shikastlangan arteriya ustiga pishiq qilib o'ralgan bint, salfetka yoxud paxta qo'yiladi.



Qon oqishini to'xtatish uchun arteriyaning barmoq bilan eziladigan nuqtalari

O'mrov osti arteriyasi. Yelka bo'g'imi, yelkaning yuqoridagi uchdan bir qismi yoki qo'ltiqosti chuqurchasidagi jarohatdan shikastlangan o'mrov osti arteriyasi (3) o'mrov ustidagi chuqurchada 1-qovurg'aga bosiladi.

Qo'ltiq osti arteriyasi. Yelka sohasi jarohatlanib qon oqayotganida, qo'ltiqosti arteriyasi (4) qo'ltiqosti chuqurligida yelka suyagiga qattiq eziladi.

Yelka arteriyasi. Yelkaning paski uchdan biri, chig'anoq va barmoqlar jarohatlanib qon oqayotganida, yelka arteriyasi (5) ichki tomondan yelka suyagiga qattiq eziladi.

Chig'anoq arteriyasi (6).

Bilak arteriyasi. Kaft jarohatlanib qon ketayotganida, bilak arteriyasi bilak (7) suyagiga qattiq eziladi.

Son arteriyasi. Son sohasi jarohatlanib qon ketayotganida, son arteriyasi (8) oraliq tomondan o'rta qismiga qaratib qattiq eziladi.

Tizza osti arteriyasi. Boldir sohasi va oyoq kafti jarohatlanib qon ketayotganida, tizza osti arteriyasi (9) tizza osti chuqurligiga qattiq eziladi.

Taqim arteriyasi. Oyoq kafti jarohatlanib qon ketayotganida, taqim arteriyasi suyak tomonga qaratib qattiq eziladi.

Barmoq bilan bosib turish qon ketishini tezlik bilan to'xtatish imkonini beradi. Lekin kuchli odam ham 3–5 minutgina bosib tura olishi mumkin. Shunday bo'lsa-da, bu usul muhim, chunki qonni to'xtatishning boshqa usullarini qo'llash uchun vaqtdan yutish imkonini beradi.

4. Bo'g'imlar maksimal tarzda bukib bog'lanadi. Qo'l yoki oyoq arteriyalaridan qon ketayotganida, ularni maksimal darajada bukish orqali qonni to'xtatish mumkin.

Savol va topshiriqlar

1. Qon ketishi nima?
2. Ichki va tashqi qon ketishining qanday belgilari mavjud?
3. Insonda qon ketish yuz berganida birinchi yordam berish haqida aytib bering.
4. Jgutdan foydalanish tartibini mashq qilish.

4-mashg‘ulot. Amaliy. Suyak sinishi to‘g‘risida tushuncha va uning belgilari. Bosh suyagi, yelka, ko‘krak qafasi, oyoq va qo‘l suyaklari singanda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish usullari

O‘quv faoliyati natijalari:

- Suyak sinishi to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘ladi va uning belgilarini biladi.
- Bosh suyagi, yelka, ko‘krak qafasi, oyoq va qo‘l suyaklari singanda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish usullarini bajaradi.

Avariya, favqulodda hodisalar va tabiiy ofatlar paytida odamlar har xil jarohat oladi. Aksariyat hollarda bunday jarohatlar suyak sinishi ko‘rinishida bo‘lib, qon ketishi va og‘riq talvasasi bilan birga kuzatiladi.

Suyak sinishi – suyaklar butunligining qisman yoki to‘liq buzilishi bilan yuz beradigan shikastlanish. Suyak singanda hamisha suyakka yaqin turgan yumshoq to‘qimalar, paylar, asab tolalari, qon tomirlari shikastlanadi. Bunday holat esa suyak sinishini og‘ir jarohatlar qatoriga qo‘shadi.



Boldir suyagining yopiq va ochiq sinishi

Eslab qoling!

Suyak ochiq singanda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish:

1) qon ketishi to‘xtatiladi va jarohat atrofiga antiseptik vositalar bilan ishlov beriladi;
2) og‘riqni qoldiruvchi vosita beriladi;

3) immobilizatsiya qilinadi;

4) jarohatga steril bog‘lam qo‘yiladi;

5) shikastlangan bemor shifoxonaga olib boriladi.

Suyak yopiq singanda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish:

1) og‘riqni qoldiruvchi vosita beriladi;

2) immobilizatsiya qilinadi;

3) shikastlangan bemor shifoxonaga olib boriladi.

Suyak sinishining belgilari

1. Og‘riq. Suyak singanda og‘riq paydo bo‘ladi va turli muddatgacha davom etadi. Suyak singan joy qo‘l bilan paypaslab ko‘rilganda, kuchli og‘riq paydo bo‘ladi. Bu esa suyak sinishining belgisi hisoblanadi.

2. Suyak singan joyning deformatsiyalanishi. Suyakning singan parchalari siljiganda, suyak singan joy deformatsiyalanadi. Buni zararlangan joyni sog‘ joyga solishtirib aniqlash mumkin.

3. Funksiyaning buzilishi. Bu belgi barcha sinishda kuzatiladi. Harakat qilishga uringanda, singan joyda kuchli og‘riq paydo bo‘ladi va shu soha harakatchanlik vazifasini yo‘qatadi

4. Bo‘g‘imlarning qisqarishi. Suyak parchalarining surilishi bo‘g‘imlarning qisqarishiga olib keladi. Bu shikastlangan bo‘g‘imni sog‘ bo‘g‘imga solishtirish bilan aniqlanadi.

5. Suyaklarning g‘ichirlashi. Suyak parchalari bir-biriga nisbatan siljiganda, g‘ichirlash yuz beradi. Jarohatlangan odam yurmoqchi bo‘lganda, bog‘lam qo‘yilayotganda, g‘ichirlash sodir bo‘ladi.

Suyak singanda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish shikastlanishning oqibati (tezroq bitib ketishi, suyak parchalarining siljib ketishi, qon ketishi) qanday bo‘lishini aniqlab beradi. U, shuningdek, to‘rtta maqsadni ko‘zda tutadi:

1) immobilizatsiya – singan sohada suyaklar qimirlashining oldini olish (natijada suyak parchalari qon tomirlari, asab tolalari va paylarni shikastlamaydi);

2) shok (talvasa)ning oldini olish, kuchli og‘riq qoldiruvchi dori vositalarini berish;

3) infeksiyaning oldini olish;

4) jabrlangan odamni zudlik bilan tibbiyot muassasasiga yetkazish.

Suyak singanda birinchi yordam ko‘rsatishda eng muhimi – zararlangan bo‘g‘imni o‘z vaqtida va to‘g‘ri immobilizatsiya qilishdir.

Eslab qoling!

Immobilizatsiya – shikastlangan bo‘g‘imni harakasizlantirish va uning to‘la tinchligini ta’minlash.

Immobilizatsiyaning maqsadi:

– og‘riqni kamaytirish;

– ochiq sinishda infeksiya rivojlanishining oldini olish;

– yumshoq to‘qimalarning yanada ko‘proq zararlanishining oldini olish;

– singan suyaklar bitib ketishi uchun qulay sharoit yaratish.

Immobilizatsiya shinalar yordamida amalga oshiriladi. Shinalar qattiq, mustahkam va elastik materiallardan tayyorlanadi. Shinani doka bint bilan bog‘lash mumkin. Agar zarur bo‘lsa, durra, kamar, sochiqlardan foydalanish ham mumkin. Imkoni bo‘lsa, Kramer shinasi, Esmarx shinasi, Diterixs yog‘och shinalaridan, zamonaviy plastmassa shinalardan va damlanadigan rezina shinalardan foydalangan ma’qul. Immobilizatsiya turlari:



Singan joylarni immobilizatsiyalash

Bilak suyagi singanda immobilizatsiya uchun narvonsimon shina qo‘yish. Shina bo‘g‘imning shakliga mos qilib qo‘yiladi. Paxta to‘shalib, bint bilan mahkamlanadi. U yelkaning uchdan biridan boshlab barmoq uchlariga qadar tashqi tomondan qo‘yiladi. Shina sifatida fanerlardan ham foydalanish mumkin. Agar bilakning bitta suyagi sinsa, ikkinchi

butuni tirsakkacha shina rolini bajaradi. Agar ikkala suyagi ham sinsa, shina yelkaning yarmiga yetishi kerak.

Yelka suyagi singanda, katta shotisimon shinadan foydalaniladi.

Shina yelka ustidan boshlab sog‘lom tomon bilan shikastlangan yelka bo‘ylab orqa tomondan, so‘ngra bukilgan tirsak va bilak bo‘ylab barmoqlarga o‘tkaziladi.

Boldir suyagi singanda shina sonning uchdan bir qismidan boshlab qo‘yiladi, u tizza va to‘piqni harakatsizlantirishi shart. Boldirni immobilizatsiya qilish uchun shotisimon shina orqa tomondan barmoq uchlarigacha qo‘yiladi. Bunda shina bo‘g‘imga mos shaklda bukiladi, oyoqning tovon qismi boldirga perpendikulyar holatda ushlanadi. So‘ngra yon shinalar qo‘yiladi.

Son suyagi singanda shotisimon shinalardan foydalangan ma’qul. Bunda ulardan zarur uzunlikdagi bir necha donasi tanlab olinadi va oyoq uzunligiga qarab moslanadi. So‘ng kiyim-bosh ustidan oyoqqa bog‘lab qo‘yiladi.

Ko‘krak qafasi shikastlanishi ko‘p uchraydigan hodisa hisoblanadi. U transportda avariya yuz berganda, balandlikdan yiqilganda, harakatlanayotgan predmetlar ko‘krak qafasi sohasiga zarba yetkizganda sodir bo‘ladi. Ko‘krak qafasi jarohati teshib o‘tgan (jarohat yetkizgan predmet tana bo‘shlig‘iga yetib borgan) va teshib o‘tmagan (jarohat yetkizgan predmet tana bo‘shlig‘iga yetib bormagan) bo‘lishi mumkin. Ko‘krak qafasi shikastlanishi ko‘p qon yo‘qotish, o‘pka, yurak va ko‘krak qafasi boshqa organlarining shikastlanishi bilan kuzatiladi. Natijada jarohatlangan odamda pnevmotraks (ko‘krak qafasida havoning to‘planishi) deb nomlangan holat paydo bo‘ladi.

Qobirg‘a suyagi singanda jarohatlangan joyda qattiq og‘riq paydo bo‘ladi, suyak parchalari g‘ichirlaydi, nafas tez-tez va og‘riq bilan olinadi. Shikastlangan odamni yotgan holatdan o‘tirgan holatga o‘tkazish juda qiyin kechadi.



Ko‘krakka spiralsimon (a) va xochsimon (b) bog‘lam qo‘yish



Ko‘krak qafasiga Dezo bog‘lami (a) va leykoplastir (b) yordamida germetizatsiyalovchi bog‘lam qo‘yish

Savol va topshiriqlar

1. Suyak sinishi belgilarini aytib bering.
2. Qo‘l yoki oyoq suyaklari singanda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish to‘g‘risida gapirib bering.
3. Immobilizatsiya nima?
4. Qo‘l va oyoq sinishida immobilizatsiya uchun ishlatiladigan qo‘lbola vositalarni tayyorlang.
5. Qo‘l va oyoq sinishida birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish tartibini o‘rganing.
6. Toifalash jadvali yordamida jarohat (yara) turlariga ko‘ra birinchi tibbiy yordam choralarini ko‘ring.

Jarohat (yara) turlari			
Bosh jarohatlanganda	Ko‘krak va qorin jarohatlanganda	Qon ketganda	Suyak singanda

TUSHUNCHA VA ATAMALAR LUG‘ATI

Avtomat – unchalik katta bo‘lmagan og‘irlikka va yuqori tez otishga ega individual (shaxsiy) avtomatik qurol. Avtomat motoo‘qchi qo‘shinlarning qudratli o‘t ochish vositasidir. Uning avtomatik harakati otishda hosil bo‘ladigan porox gazlaridan foydalanishga asoslangan. “Avtomat” atamasi birinchi marta V. G. Fyodorov tomonidan 1913–1916-yillarda yaratilgan miltiqqa nisbatan aytilagan. Bu nomni N. M. Filatov taklif etgan.

Agressiya – bir davlat tomonidan boshqa davlatga qurolli kuchlarni qo‘llash. Qurolli kuchlar qo‘llanishining agressiya deb tan olinish sharti – qurolli kuchlarni qo‘llash agressiya obyektining suverenetiteti, hududiy yaxlitligi yoki siyosiy mustaqilligiga qaratilgan bo‘lishi lozim.

BMT Nizomida nafaqat qurolli kuchlarni qo‘llash, balki kuch ishlatish bilan tahdid qilishni taqiqlash prinsipi mavjud. BMT Bosh Assambleyasi 1974-yilda ushbu qoidani tasdiqlagan (“Agressiv urush – xalqaro tinchlikka qarshi jinoyat”).

Ataka (fr. *attaque* — hujum) – shiddatli ilgarilanma harakatni dushmanning jonli kuchi va texnikasini yo‘q qilish maqsadida ularga qarata o‘q ochish bilan uyg‘unlashtirish. Ataka hujumning hal qiluvchi lahzasi hisoblanadi. U turli qo‘shinlarning kelishilgan harakatlari bilan amalga oshiriladi va yaqin masofatan o‘t ochish, qo‘l granatalari va sovuq qurollarni (nayza-pichoq va b.) ishlatish bilan yakunlanadi. Piyodalar, otliqlar, tanklar, dengiz jangida torpedolar atakasi bo‘ladi.

Zamonaviy jangda ataka tank va motoo‘qchi qo‘shinlar tomonidan artilleriya va aviatsiya zarbalari yordamida olib boriladi. Atakani muhandislik, kimyo va boshqa maxsus qo‘shinlar ta’minlab beradi.

Bakterial retsepturalar – tarkibiga kasallik qo‘zg‘atuvchi mikroblar, toksinlar (zaharlar), neytral moddalar kiruvchi moddalar kompleksi. Ular mikroblar va toksinlar saqlanilganda yoki qo‘llanilganda mikroblar yashovchanligi yoki toksinlarning turg‘unligini oshiradi.

Davlat – aniq hududda jamiyatni tashkil etishning siyosiy shakli. Hokimiyatning suveren tashkiloti bo‘lib, boshqaruv va majburlash apparatiga ega bo‘ladi. Unga mamlakatning barcha aholisi bo‘ysunadi.

Fanda ham, xalqaro huquqda ham “davlat” tushunchasining yagona va barcha tomonidan tan olingan ta’rifi yo‘q.

Dastaki (qo‘l) pulemyoti – avtomatik o‘qotar qurol. Tirgakdan (ayridan, o‘rnatmadan) qo‘ndoqni elkaga tiragan holda otish uchun mo‘ljallangan. Pulemyot hisobi (raschyoti) ikki kishidan iborat – to‘g‘rilovchi va yordamchi.

Ekipaj – 1) ko‘p davlatlar qurolli kuchlarida eng quyi (boshlang‘ich) bevosita tank, BTR, PJM, samolyot va boshqalarga xizmat ko‘rsatuvchi bo‘linma; 2) kemaning shaxsiy tarkibi.

Fortifikatsiya inshootlari – jangda qurol va boshqa harbiy texnikani ko‘zdan yashirish, ulardan yanada unumliroq foydalanish, boshqaruv punktlarini joylashtirish, shuningdek, aholi hamda front ortidagi obyektlarni dushman zarbasidan himoya qilish uchun quriladigan inshootlar.

Garnizon – 1) aniq bir hudud yoki aholi punktida vaqtincha yoki doimiy joylashgan harbiy qismlar, harbiy o‘quv yurtlari va harbiy ta’lim muassasalari. Garnizonga garnizon boshlig‘i, uning o‘rinbosarlari va boshqa mansabdor shaxslar tayinlanadi, garnizon va qorovul xizmatlari tashkil etiladi; 2) tayanch punkti (uzoq mudofaaga mo‘ljallangan inshoot, qal’a)ni mudofaa qiluvchi qo‘shin.

Harbiy mulk – davlat mulkining Mudofaa vazirligi ixtiyoridagi qismi. Harbiy mulkka barcha turdagi qurollar va harbiy texnikalar, yoqilg‘i, oziq-ovqat, tibbiy vositalar, yashash, xizmat jamg‘armalari kiradi.

Imtiyozlar – faqat harbiy xizmatchilar uchun beriladigan qo‘shimcha afzalliklar. Imtiyozlarning quyidagi ko‘rinishlari bor: 1) ma’lumot olish sohasidagi imtiyozlar; 2) yashash (uy) joyi bo‘yicha imtiyozlar; 3) transportdan foydalanish bo‘yicha imtiyozlar; 4) mehnat va ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha imtiyozlar; 5) soliq va yig‘imlar bo‘yicha imtiyozlar.

Jangovar mashinalar – zanjirli (g‘ildirakli) o‘zi yuruvchi mashina. O‘ziga o‘rnatilgan qurol yarog‘i, aloqa va razvedka vositalariga ega. Jangovar mashinalar jangni olib borish, jangovar harakatlar va qo‘shinlar boshqaruvchini ta’minlashga mo‘ljallangan.

Katapulta – 1) avianoseslardan samolyotlar uchishini ta’minlab beruvchi moslama. Katapulta yordamida yo‘lning qisqa uchastkasi (50–90 m) ichida katta start tezligiga (170–250 km/h) erishiladi; 2) uchuvchi va kosmonavtlar tomonidan katapulta qilish mashq qilinadigan stend; 3) qadimgi Gretsiya va Rimda qo‘llanilgan uloqtiruvchi jangovar mashina. Undan XV asrgacha foydalanilgan.

Lampaslar – generallar shimining chokidagi mag‘iz (keng chiziq). Rangi shimning rangidan farqlanib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Toshkent, 2007.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi qonuni. Toshkent, 2019.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Mudofaa to‘g‘risida”gi qonuni. Toshkent, 2002,

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori 23.02.2018. №140. “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2-martdagi №50-sonli qarori “Vatan tayanchi” bolalar va o‘smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”.

6. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi. Quruqlikdgi qo‘shinlarning Jangovar nizomi, 3-qism. Toshkent, 2004.

7. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining umumharbiy nizomlari. Toshkent, 1996.

8. Quruqlikdagi qo‘shinlarda otish qurollaridan, jangovar mashina va tanklardan o‘q otish kursi. Toshkent, 2004. Qo‘llanma.

9. Harbiy atamalarning qisqacha izohli lug‘ati. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi. Toshkent, 2007.

10. Harbiy atamalarning yangi izohli lug‘ati. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Qurolli Kuchlari akademiyasi. Toshkent, 2020.

11. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi. Toshkent, 2001.

12. *Butayev A.* Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik. Andijon, 2004. O‘quv qo‘llanma.

13. *Butayev A.* Harbiy atamalarning qisqacha izohli lug‘ati. Toshkent, 2012.

14. *Hasanov F.* Turon xalqlari harbiy san’ati. Toshkent, 2009. O‘quv qo‘llanma.

15. *Dadaboev H.* Amir Temurning harbiy mahorati. Toshkent, 1996. O‘quv qo‘llanma.

16. *Inoyatov A.* Mustaqillik himoyasida, Toshkent, 2003. O‘quv qo‘llanma.

17. *Ilyosova Z. F.* Hayot xavfsizligi asoslari, Toshkent, 2001. O‘quv qo‘llanma.

18. *Mamatov I. I.* Harbiy toksikologiya va tibbiy muhofaza. Toshkent, 1997 yil. O‘quv qo‘llanma.

19. *Nurxo‘jayev A., Hikmatillayev A.* Tabiiy ofatlar. Toshkent, 2004. O‘quv qo‘llanma.

20. *Suyarov Z. X.* va boshq. Ommaviy qirg‘in qurollari va ulardan himoya qilish. Toshkent, 2005. O‘quv qo‘llanma.

21. *G‘ofurov B. B.* Yosh askarlar uchun boshlang‘ich umumqo‘shin harbiy tayyorgarlik. Toshkent, 2004. O‘quv qo‘llanma.

22. *G‘ofurov B. B.* Otish tayyorgarligi, Toshkent, 2000. O‘quv qo‘llanma.

23. *Туйчиев Т. Б.* и др. Защита населения и территорий от чрезвычайных ситуаций. Тошкент, 2003. Пособие.

24. Наставление по физической подготовке, Тошкент, 1997. Пособие.

O‘quv nashri

CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik

(O‘zbek tilida)

Bosh muharrir:
Anvar Zulpixarov

Dizayner-rassom:
Nafisa Sadikova

Texnik muharrir:
Shoxrux Turaxanov

Sahifalovchi:
Qobul Raufov

Musahhih:
Nilufar Oymatova

Bosishga _____ ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1/8. Kegli 12, Roboto garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog‘i 000. Nashr tabog‘i 000. Adadi 0000 nusxa. Buyurtma raqami:

Ijaraga berilgan darslik holatini ko‘rsatuvchi jadval

T/r	O‘quvchining ismi, familiyasi	O‘quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						

Darslik ijaraga berilib, o‘quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to‘ldiriladi.

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko‘chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo‘q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta’mirlangan. Ko‘chgan varaqlari qayta ta’mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqovaga chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo‘q, qoniqarsiz ta’mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo‘yab tashlangan. Darslikni tiklab bo‘lmaydi.